

R.X. KARLIBAYEVA, A.A. TEMIROV

**KORXONALARNI
RAQOBATBARDOSHLIGINI
BAHOLASH**

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2019

Karlibayeva R.X., Temirov A.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -155 bet.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tasdiqlagan davlat ta'lim standartlari talablariga mos holda tayyorlangan. Qo'llanmada korxonalarni raqobatbardoshligini baholash masalalari bayon qilingan. Qo'llanmadagi mavzular korxonalar raqobatbardoshligi bilan bog'liq qonun hujjatlaridagi oxirgi o'zgarishlarni hisobga olgan holda tayyorlangan. Qo'llanma sodda va tushunarli tilda yozilgan, har bir bobdan so'ng o'z-o'zini tekshirish uchun savollar berilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning "Korporativ boshqaruv" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Учебное пособие подготовлено согласно требованиям утвержденным государственным образовательным стандартам Министерством высшего и средне специального образования Республики Узбекистан. В пособии изложены оценка конкурентоспособности предприятий. Темы в данном пособии подготовлены с учетом последних изменений в законодательных актах по оценке конкурентоспособности предприятий. Учебное пособие написано простым и понятным языком, а также в конце каждой главы даны вопросы для самопроверки.

Tutorial was prepared in accordance with the requirements approved by the state educational standards of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan. In tutorial an assessment of the competitiveness of enterprises was depicted. The topics in this tutorial are prepared taking into account the latest changes in legislative acts on the assessment of the competitiveness of enterprises. The tutorial is written in a simple and understandable language, and also at the end of each chapter there are questions for self-ehamination.

The tutorial is intended for students at the "Corporate Governance".

Taqrizchilar: **N.O'rmonov**-Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ boshqaruv" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

A.Agzamov- Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmoq markazi bo'lim boshlig'i, PhD

ISBN 978-9943-6004-3-0

UO'K: 347.214.21(075)
KBK: 67.404.1

© «IQTISODIYOT», 2019.
© Karlibayeva R.X., Temirov A.A., 2019.

MUNDARIJA

	KIRISH	10
1-bob	KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI	12
1.1.	Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash mexanizmi	12
1.2.	Korxonalarni raqobatbardoshligini oshirishning asosiy tamoyillari	16
1.3.	O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy-me’yoriy asoslari	20
1.4.	Korxona moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar va ularning manfaatlari	26
	Qisqa xulosalar	30
	Nazorat savollari	30
2-bob	MOLIYAVIY TAHLIL VA KORXONANI BOSHQARISHDA UNING USULLARI	31
2.1.	Korxonalar faoliyatini tahlil qilishning mohiyati va zaruriyati	31
2.2.	Xo‘jalik faoliyatini tahlil etish tizimi va uslublari	32
2.3.	Moliyaviy tahlilning asosiy usullari	33
2.4.	Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy faoliyati natijalarini moliyaviy koeffitsientlar yordamida tahlil etish	40
	Qisqa xulosalar	50
	Nazorat savollari	51
3-bob	KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISH	52
3.1.	Korxona aktivlarining iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi	52
3.2.	Korxona aktivlarini shakllanish tamoyillari va ularning tarkibini optimallashtirish.	55
3.3.	Aktivlarga bo‘lgan talabni aniqlash va rejalashtirish	58
3.4.	Aylanma aktivlarning operatsion davrda aylanish xususiyatlari va bosqichlari	60
3.5.	Korxonaning uzoq muddatli aktivlari aktivlarning doiraviy aylanishi xususiyatlari va bosqichlari	65
	Qisqa xulosalar	69
	Nazorat savollari	69
4-bob	KORXONA KAPITALINI BOSHQARISH	70
4.1.	Korxonaning kapitali tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi	70

4.2.	Xususiy kapital tarkibi	72
4.3.	Kapital qiymati va uni baholash tamoyillari	75
4.4.	Kapital tarkibi va korxonaning bozor bahosi	77
	Qisqa xulosalar	80
	Nazorat savollari	80
5-bob	KORXONA INVESTITSİYALARINI BOSHQARISH	80
5.1.	Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turlari	80
5.2.	Investitsion muhit, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati	84
5.3.	Qulay investitsion muhit yaratish shartlari	86
5.4.	Investitsion muhitni baholash usullari	88
5.5.	Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari	94
	Qisqa xulosalar	99
	Nazorat savollari	100
6-bob	KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH	101
6.1.	Pul oqimlari tushunchasi va uning ahamiyati	101
6.2.	Pul oqimlarini boshqarish bosqichlari va korxonaning pul oqimlarini hisobotlarni shakllantirish	103
6.3.	Pul oqimlarining turlari	108
6.4.	Pul oqimlarini prognozlash	112
	Qisqa xulosalar	115
	Nazorat savollari	115
7-bob.	KORXONA XARAJATLARI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BOSHQARISH	116
7.1.	Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari	116
7.2.	Mahsulot tannarxini hisoblash tartibi va ketma-ketligi	120
7.3.	Operatsion tahlil usullarini qoʻllagan holda mahsulot tannarxining optimal qiymatini aniqlash	127
	Qisqa xulosalar	130
	Nazorat savollari	130
	FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	131
	GLOSSARIY	136

ОГЛАВЛЕНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	10
Глава 1	ПРЕДМЕТ И СОДЕРЖАНИЕ КУРСА ОЦЕНКА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	12
1.1.	Механизм оценки конкурентноспособности предприятий	12
1.2.	Основные принципы повышения конкурентоспособности предприятий	16
1.3.	Организация финансовой отчетности на предприятиях Республики Узбекистан и ее нормативно-правовые основы	20
1.4.	Пользователи финансовой отчетности предприятий	26
	Краткие выводы	30
	Контрольные вопросы	30
Глава 2	ФИНАНСОВЫЙ АНАЛИЗ И ЕГО МЕТОДЫ В УПРАВЛЕНИИ ПРЕДПРИЯТИЕМ	31
2.1.	Сущность и необходимость анализа деятельности предприятий	31
2.2.	Системы и методы анализа хозяйственной деятельности	32
2.3.	Основные методы финансового анализа	33
2.4.	Финансовое состояние предприятий и его анализ с помощью финансовых коэффициентов	40
	Краткие выводы	50
	Контрольные вопросы	51
Глава 3	УПРАВЛЕНИЕ АКТИВАМИ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	52
3.1.	Экономическое содержание и классификация активов предприятий	52
3.2.	Принципы образования активов предприятий и оптимизация их состава	55
3.3.	Определение и планирование спроса на активы	58
3.4.	Свойства и этапы оборота оборотных активов в операционном периоде	60
3.5.	Свойства и этапы кругооборота долгосрочных активов предприятий	65
	Краткие выводы	69
	Контрольные вопросы	69
Глава 4	УПРАВЛЕНИЕ КАПИТАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЯ	70

4.1.	Сущность, понятие и состав капитала предприятий	70
4.2.	Состав собственного капитала	72
4.3.	Стоимость капитала и принципы ее оценки	75
4.4.	Состав капитала и рыночная стоимость предприятий	77
	Краткие выводы	80
	Контрольные вопросы	80
Глава 5	УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЯМИ ПРЕДПРИЯТИЙ	80
5.1.	Экономическое содержание и виды инвестиций	80
5.2.	Инвестиционная среда, ее экономическое содержание	84
5.3.	Условия создания благоприятной инвестиционной среды	86
5.4.	Методы оценки инвестиционной среды	88
5.5.	Источники финансирования инвестиционных проектов	94
	Краткие выводы	99
	Контрольные вопросы	100
Глава 6	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	101
6.1.	Сущность и понятие денежных потоков	101
6.2.	Этапы управления денежными потоками и составление отчетов денежных потоков предприятий	103
6.3.	Виды денежных потоков	108
6.4.	Прогнозирование денежных потоков предприятия	112
	Краткие выводы	115
	Контрольные вопросы	115
Глава 7	УПРАВЛЕНИЕ ЗАТРАТАМИ И ИТОГАМИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	116
7.1.	Сущность, состав и элементы производственных затрат	116
7.2.	Порядок и этапы расчета себестоимости продукции	120
7.3.	Определение оптимальной стоимости себестоимости продукции путем применения методов операционного анализа	127
	Краткие выводы	130
	Контрольные вопросы	130
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	131
	ГЛОССАРИЙ	136

CONTENTS

	INTRODUCTION	10
Chapter 1	COURSE SUBJECT AND CONTENT ESTIMATION OF COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES	12
1.1.	The mechanism of assessing the competitiveness of enterprises	12
1.2.	The basic principles of increasing the competitiveness of enterprises	16
1.3.	Organization of financial reporting at enterprises of the Republic of Uzbekistan and its regulatory framework	20
1.4.	Users of financial statements of enterprises	26
	Brief conclusions	30
	Test questions	30
Chapter 2	FINANCIAL ANALYSIS AND ITS METHODS IN ENTERPRISE MANAGEMENT	31
2.1.	The essence and the need to analyze the activities of enterprises	31
2.2.	Systems and methods of business analysis	32
2.3.	The main methods of financial analysis	33
2.4.	The financial condition of enterprises and its analysis using financial ratios	40
	Brief conclusions	50
	Test questions	51
Chapter 3	ASSET MANAGEMENT IN INCREASING COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES	52
3.1.	Economic content and classification of assets of enterprises	52
3.2.	Principles of formation of enterprise assets and optimization of their composition	55
3.3.	Asset demand definition and planning	58
3.4.	Feature and stages of turnover of current assets in the operating period	60
3.5.	Feature and stages of the circulation of long-term assets of enterprises	65
	Brief conclusions	69
	Test questions	69
Chapter 4	ENTERPRISE CAPITAL MANAGEMENT	70
4.1.	The essence, concept and composition of capital of	70

	enterprises	
4.2.	Composition of equity	72
4.3.	The cost of capital and the principles of its assessment	75
4.4.	Composition of capital and market value of enterprises	77
	Brief conclusions	80
	Test questions	80
Chapter 5	INVESTMENTS MANAGEMENT OF ENTERPRISES	80
5.1.	Economic content and types of investments	80
5.2.	Investment environment, its economic content	84
5.3.	Conditions for creating a favorable investment environment	86
5.4.	Investment Environment Assessment Methods	88
5.5.	Sources of financing investment projects	94
	Brief conclusions	99
	Test questions	100
Chapter 6	CASH FLOW MANAGEMENT TO ENHANCE COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES	101
6.1.	The essence and concept of cash flows	101
6.2.	Cash Flow Management Steps and Enterprise Cash Flow Reporting	103
6.3.	Types of Cash Flows	108
6.4.	Enterprise cash flow forecasting	112
	Brief conclusions	115
	Test questions	115
Chapter 7	COSTS AND RESULTS MANAGEMENT OF ENTERPRISES	116
7.1.	The essence, composition and elements of production costs	116
7.2.	The procedure and stages of calculating the net cost	120
7.3.	Determining the optimal cost of production costs by applying operational analysis methods	127
	Brief conclusions	130
	Test questions	130
	LIST OF USED LITERATURE	131
	GLOSSARY	136

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, monopoliyaga qarshi qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bozor munosabatlariga o'tgan har bir mamlakat uchun hayotiy zaruratdir, chunki erkin raqobatga yo'l bermay iqtisodiyotda raqobat munosabatlarini rivojlantirmay turib bozor munosabatlarini shakllantirib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi sharoitida mamlakatimizda korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va uni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishga oid qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar orqali ushbu jarayonni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz 2018-yilga «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirganimiz o'tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimizning natijasini ko'rsatib turibdi"¹.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: O'zbekiston, 2019, - 84 b.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, investitsiya loyihalarini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada korxonalar raqobatbardoshligini baholash mexanizmini tashkil etishning nazariy asoslari, Moliyaviy tahlil va korxonani boshqarishda uning usullari, korxonalarni raqobatbardoshligini oshirishda aktivlarni boshqarish, korxona kapitalni boshqarish, korxona investitsiyalarini boshqarish to'g'risidagi mavzular berilgan. Bundan tashqari korxonalarni raqobatbardoshligini oshirishda pul oqimlarini boshqarish tartibi hamda korxona xarajatlari va faoliyati natijalarini boshqarish tartibi yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlari talabalari, ilmiy xodimlar, korxona va tashkilotlar xodimlari, kollej o'quvchilari hamda shu sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

1-bob

“KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash mexanizmi

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishining hozirgi sharoitida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida xom ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlar ulushini oshirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar katta o‘rin egallaydi. Bu esa, o‘z navbatida mahsulotlarning tashqi bozorga chiqishi, binobarin, eksport qilish imkoniyatini kengaytiriga yordam beradi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta‘minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o‘rinlarini tashkil etish, pirovard natijada qo‘yilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi..

Mamlaktimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirmasdan, raqobatdosh iqtisodiyot, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, o‘rta muddatli istiqbolida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishdek strategik vazifani amalga oshirish mumkin emasligi ko‘p ta‘kidlab o‘tildi. Shu sababli ham ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, raqobat - bu tadbirkorlikning ajralmas bir bo‘lagidir. Raqobat umumijtimoiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy jarayon qatnashchilari o‘rtasida yaxshiroq yashash uchun bo‘ladigan kurashni anglatadi.

Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini tularoq yuzaga chiqarish, ya‘ni yaxshi daromad topish, o‘z mavqeini mustahkamlash, o‘z qobiliyatini namoyon etish va imij (obro‘-e‘tibor)ga ega bo‘lish uchun boshqalar bilan kurashadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlarning raqobatbardoshligi aniqlanayotganda, uning boshqa raqobatchi tovarlardan yuksak taraflarining

mavjudligi, umume'tirof etilgan talablarga javob berishi hamda ketgan xarajatlar miqdori bilan baholanadi. Maxsulotning raqobatbardoshligini baholashda xaridorlar ehtiyoji va bozor talabiga asoslanadi. Chunki tovar xaridor talabiga javob berishi uchun quyidagi parametrlarga mos kelishi kerak:

- texnik parametrlarga (tovar belgisi, uni qo'llash va tavsiya etish markazlari);
- ergonomik parametrlarga (tovarning inson organizmiga mos kelishi);
- estetik parametrlarga (tovarning tashqi ko'rinishi);
- me'yoriy parametrlarga (tovarning amaldagi me'yorlarga va standartlarga mos kelishi);
- iqtisodiy parametrlarga (tovarning baho darajasi, unga ko'rsatiladigan servis xizmati, vositalar o'lchami, xaridorlarning ayni vaqtdagi ehtiyojlarini qondira olishi).

Har bir istemolchi uz ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlarni sotib oladilar. Bu esa o'z navbatida raqobatni keltirib chiqaradi.

Xaridorlarning xatti-harakatlaridan shuni ko'rish mumkinki, tovarlarni taqqoslashda, uning ishlatish samaradorligi (s), sotib olish xarajatlariga (x) nisbatan yuqori bo'lsa o'sha mahsulotni ko'proq tanlashadi. U holda tovarning raqobatbardoshligi (r) quyidagi,

$$R = S/X;$$

ko'rinishni oladi.

Tovarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi bosqichlarda bo'ladi:

1. O'rinbosar tovarlarni topish va uni tahlil qilish;
2. O'xshash mahsulotlarning solishtirilishi orqali asosiy ko'rsatkichlarini belgilash;
3. O'z mahsulotimizdagi integral (umumiy) raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Raqobat kurash vositalari va usullari jihatidan halol raqobat va g'irrom raqobatga bo'linadi. Halol raqobat qonuniy, yo'l berilgan va hamma tan olgan, insoniy usullar bilan o'zaro bellashuvdir. G'irrom raqobat man etilgan vositalar

yordamida va g'ayriinsoniy usullar bilan olib borilgan kurashdir. G'irrom raqobat yovvoyi bozor iqtisodiyotining, halol raqobat madaniy(sivilizatsiyalashgan) bozor iqtisodiyotining belgisi hisoblanadi. G'irrom raqobat yuz berganda josuslik, qo'poruvchilik, reket, tuxmat, tovar belgisini o'g'irlash va hatto qotillik kabi usullar qo'llaniladi, raqibni turli yo'llar bilan obro'sizlantirish choralari ko'riladi².

Halol raqobatda madaniy usullar qo'llaniladi. Bu usullardan narx vositasida raqobatlashuv, tovar sifatini oshirish orqali kurashish, servis (xizmat ko'rsatish) orqali bellashuv keng tarqalgan. Bu usullardan alohida emas, balki birgalikda foydalanish qo'llaniladi.

Hozirgi raqobat kurashida tovar reklamasiga alohida e'tibor beriladi. Reklama qilishda biznesmenlar o'rtasida o'z tovarlarini va ko'rsatayotgan qo'shimcha xizmatlari hamda boshqa faoliyatlari bilan keng bozorga ta'sir etib keladilar.

Raqobat kurashida samarali faoliyat yurg'izish, unda muvaffaqiyat qozonish raqobat strategiyasining qanchalik puxta, izchil, o'zoqni ko'ra oladigan rejasini ishlab chiqishga uzviy bog'liqdir.

Raqobat strategiyasi-raqobat kurashining o'zoq davrga muljallangan bosh yo'li va yo'l-yo'riqlarini ifoda etadi. Strategiyaning maqsadi tez kunda foydani maksimallashtirish, oz foyda bilan qanoat qilgan holda o'z bozorini kengaytirish yoki raqibni bozordan siqib chiqarish, yangi bozorga asta-sekin kirib borish kabi masalalarda harakat yo'llarini belgilashdan iborat. Strategiyaga qarab kurash taktikasi (usuli va shakllari) tanlanadi.

Raqobatbardoshlik tushunchasiga iqtisodiy adabiyotda firmalarning mavjud sharoitda raqobatchilariga nisbatan baho va bahosiz tavsifiga ko'ra tovarlarni loyihalashtirish, tayyorlash va sotish borasidagi real va potensial imkoniyatlaridir deya ta'rif beriladi.

Mamlakatning raqobatbardoshligi darajasini uning milliy kompaniyalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, firmalar, tarmoqlar raqobatbardoshligi ta'minlab beradi. Shuning uchun dastlab mamlakat raqobatbardoshligini emas, balki milliy

² Котлер Ф. Маркетинг и менеджмент – СПб: Питер Ком, 2010, -96с.

kompaniyalar raqobatbardoshligini tahlil etish lozim. U mamlakat kompaniyalarining muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan qulay muhitni yaratish quyidagi to'rtta muhim ko'rsatkichga bog'liqligini ta'kidlaydi³:

- ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik;
- talab ko'rsatkichlari;
- yaqin va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar;
- raqobat muhiti va firma strategiyasi.


Ushbu muhit doirasidagi milliy kompaniyalarning samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshlik reytingini belgilab beradi. Mamlakatning raqobatbardoshligini aniqlashda quyidagilar asosiy omillar sifatida xizmat qiladi:

- iqtisodiy salohiyat va iqtisodiyotning o'sish sur'atlari; sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanish darajasi va uni o'zlashtirish sur'atlari; xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish;
- ichki bozor hajmi va dinamikasi;
- iqtisodiyotda davlatning roli;
- moliya tizimining egiluvchanligi; mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va malaka darajasi;
- ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holat;
- iqtisodiyotning jahon bozori kon'yunkturasi talabiga moslashish darajasi va qobiliyati.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Quyidagi rasmda ushbu yo'nalishlar keltirib o'tilgan.

³Портер М. Конкуренция. /Пер. с англ. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2010. С. 176.



1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qoʻllab-quvvatlashning asosiy yoʻnalishlari⁴

Maʼlumotlardan koʻrinadiki, ayniqsa, real sektor korxonalarini qoʻllab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni ragʻbatlantirish masalalari alohida oʻrin tutdi.

Raqobat qoʻl qovushtirib oʻtirishga yoʻl qoʻymaydi, u kurash boʻlganidan hammani harakatga, yaxshi ishlashga undaydi. Biznesmen agar kimgadir yoki nimasigadir ishonib qoladigan boʻlsa yoki bozor muhiti toʻgʻrisida maʼlumotlarga ega boʻlmasa demakki bunday biznesmen jamiyatda uzoq biznes faoliyati bilan shugʻullana olmaydi va bankrot yoki sinib ketish ehtimoli juda koʻp boʻladi.

1.2. Korxonalarni raqobatbardoshligini tashkil etishning asosiy tamoyillari.

Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi mexanizm, uni olgʻa eltuvchi kuch hisoblanadi. Raqobatdagi iqtisodiy tanlov tamoyiliga koʻra iqtisodiyot ishtirokchilari saralanadi, yaxshi ishlagan firma boyib boradi, yomon ishlagani sinadi, yopiladi yoki kuchli firmalarga qoʻshilib ketadi. Raqobatga bardosh bera olmagan firmalar zarar koʻradilar, oʻz majburiyatlari boʻyicha pul toʻlay olmay qoladilar, yaʼni bankrot xoliga tushadilar.

Bozor iqtisodiyotining ilk belgilari paydo boʻlishi bilan unga xos raqobat ham yuzaga keladi. Iqtisodiyot rivojiga mos holda raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib boradi. Bozor raqobati tarixan 4 bosqichdan oʻtadi.

⁴ Maʼlumotlar asosida muallif ishlanmasi

Birinchi bosqich - bu natural xo'jalikdan bozor iqtisodiyotining dastlabki shakllariga o'tish bo'lib, bu davrda raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida boradi. Bu bosqichda raqobat mahalliy bozorlar doirasida borasida, u bir turdagi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bo'ladi. Raqobatda g'olib chiqish vositasi tajriba to'plab, mehnat maxoratini oshirish hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich - bu erkin raqobat bosqichidir. Bu bosqich tovar xo'jaligining ommaviy tus olishi bilan, mayda tovar ishlab chiqarish o'rniga yirik mashinalar tizimiga va yollangan mehnatga tayangan tovar ishlab chiqarishning kelishi bilan xarakterlanadi. Raqobatni cheklashlar bo'lmaydi, u erkin kurashga aylanadi, bu kurash mahalliy bozorlar doirasidan chiqib, milliy bozor miqyosida yuz beradi. Raqobat shiddatli boradi, uning ishtirokchilari ko'pchilikdan iborat bo'ladi. Raqobatda g'olib chiqishning sharti yangi texnikani joriy etib, mehnat unumdorligini o'stirish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish bo'ladi.

Uchinchi bosqich - bu monopol raqobat bosqichi bo'lib, u yakka hokimlikka intiluvchi yirik Biznes faoliyatlarining kurashidir. Raqobat iqtisodni monopollashgan va monopollashmagan sohalarida alohida boradi, ammo bu sohalar o'rtasida ham kurash ketadi. Raqobatda yengib chiqish shartlari ikkinchi bosqichdagidek bo'ladi, ammo o'zaro kurashda bozorni egallab olish, siyosiy hokimiyatdan foydalanish kabilar keng qo'llanadi. bu bosqichda monopol raqobat yetakchi bo'lsa-da, erkin raqobat yo'qolib ketmaydi, u ikkinchi qatorga suriladi. Iqtisodiyotda monopol raqobat sohasi va erkin raqobat sohalariga ajralish bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - yangicha erkin raqobat bosqichi bo'lib, u aralash iqtisodiyotga xosdir. Bu bosqichda raqobatchilar g'oyat ko'pchilik bo'lib, ular yirik korporatsiyalar, o'rtacha, mayda va o'ta mayda Biznes faoliyatlardan iborat bo'ladi. Raqobat doirasi kengayib, u ishlab chiqarishdan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasida ham faollashadi, u moliya bozoriga shiddat bilan kirib boradi, hatto sayohat biznesi, shou biznes, sport biznesi, harbiy biznes kabilarni ham o'z domiga tortadi. Raqobatlashuv baynalmilallashib, xalqaro bozor doirasida ham yuz beradi. Eng yangi texnika-texnologiyani qo'llash, boshqarishni kompyuterlashtirish, tovar tarkibini zudlik bilan yangilash, eng malakali ish kuchiga ega bo'lish, informatsiyadan

foydalanish va, nihoyat, zamonaviy Bozor xizmatini uyushtirish raqobatda engib chiqish shartiga aylanadi.

Raqobatni uning xarakteriga qarab ham baholash mumkin. qaysi bosqichda yuz berishdan qat'iy nazar raqobat 2 tipda bo'ladi, ya'ni u tartibsiz yovvoyi raqobatdan va qonun-qoidalar bilan tartibga solinuvchi sivilizatsiyalashgan raqobatdan iborat bo'ladi. Turli bosqichlarda xar ikkala raqobat tipining nisbati har xil bo'ladi. Sivilizatsiyalashgan raqobat aralash iqtisodiyotga xos bo'ladi, ammo u birdan emas, balki sekin-asta raqobatning asosiy tipiga aylanadi. Bu bozor munosabatining rivojlanishidan kelib chiqadi. Aralash iqtisodiyot bozor va nobozor munosabatining yaxlitligi bo'lganidan bu erda raqobat bilan birgalikda partnyorlik aloqalari ham amal qiladi.

Raqobat ishtirokchilarining sotsial-iqtisodiy maqomi bir xil emas, shu sababdan, ularning bevosita maqsadi ham farqlanadi. Tadbirkorning maqsadi ko'proq foyda kurish, ishchiniki yaxshi ish haqi olish, yer egasini yerdan daromad olish, puldorniki pulidan ko'proq pul chiqarib olish. Raqobat bu faqat individual manfaatni emas, balki jamoaning birgalikdagi manfaatini ham ko'zlaydi. Ayrim kishining manfaati bir tomondan alohidalashgan, ikkinchi tomondan jamoa manfaatiga birlashgan, shu orqali yuzaga chiqadi. Ishlovchilardan xar biri yaxshi ish joyi uchun kurashadi, ular jamoa doirasida esa uning manfaati yo'lida va birgalikda boshqa jamoalar bilan raqobatlashadi. Raqobat xo'jalikning hamma sohasida boradi, unda iqtisodiy faol kishilar qatnashadi.


Bozor xo'jaligidagi raqobat kim bo'lishidan qat'iy nazar yaxshi ishlaganlarni yutib chiqishini bildiradi. Shu jixatdan u bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, iqtisodiy resurslarni tejamli ishlatishga, tovar va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarishga undaydi. U xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini yuzaga keltiradi, iqtisodiy aloqalarning eng ma'qulini topishga majbur qiladi.

Raqobat iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida raqobat doirasini kengaytiradi, chunki tadbirkorlar safi kengayib boradi. Raqobat bozorning hamma turlarida amal qiladi. Tadbirkorlar tovar bozorida sotuvchi sifatida, resurslar bozorida

esa xaridorlar sifatida raqobatda bo'lishadi. Ishchilar mexnat bozorida yaxshi ish joyini egallash uchun kurashadilar.

Raqobat ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida ham boradi, bu sotuvchi va xaridor raqobatida kurinadi. Sotuvchi qimmatroq sotishga intilsa, xaridor arzonroq sotib olishni muljallaydi. Bu moliya bozorida ham bo'ladi.

Raqobatlashuv iqtisodiy faoliyatning hamma turlariga xos bo'ladi, u bozorning o'zida va bozordan tashqarida boradi. Axborot yig'ish va uni qayta ishlashning namunaviy tizimi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Yangi tovarni rejalashtirish jarayoni⁵

Bozorda raqobat bevosita yuz bersa, bozordan tashqarida xususan ishlab chiqarishda unga hozirlik ko'riladi, raqobatga g'olib chiqish chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bozorda narxni uzgartirish, savdo reklamasini tashkil etish orqali bellashuv yuz beradi. Bozor raqobatni shart-sharoiti qandayligi haqida axborot

⁵ Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan

beradi, unga asoslanib chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu o'rinda bozor alohida rol o'ynaydi.

Raqobatchilar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va ularni tahlil qilish muntazam ravishda o'tkazib turiladigan va anchagina ko'p mehnat talab qiluvchi ishdir. Bozordagi raqobatni tahlil qilishning birinchi bosqichi - bozorning raqobatchilik jarayonlariga jalb qilinganlik darajasini asosiy omillar tahlili asosida baholashdir. Bu omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- raqobatchi firmalar soni va ularning quvvati;
- raqobatchilar ishlab chiqarish-bozor faolyatining diversifikatsiya darajasi;
- talab hajmining o'zgarishi;
- raqobatchilar strategiyasidagi tafovutlar.

Ikkinchi bosqich nihoyasida asosiy raqobatchilar mavjud bo'lgan bozorlar ajratib olinadi.

Tahlil natijalari bozorni ushbu omillarga ko'ra segmentlarga ajratish imkonini beradi. Konyunktura - bozorda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyat bo'lib, unga talab va taklif o'rtasidagi nisbat, narxlar darajasi, tovar zahiralari, buyurtmalar portfeli va hokazolar deb ta'rif berishadi. Konyunkturani o'rganish va oldindan aytib berish zarurdir, chunki uni bilish - eng foydali narxlarda xarid qilish va sotish, tovar ishlab chiqarish hajmini bozorda kutilayotgan vaziyatga muvofiq kengaytirish yoki qisqartirish demakdir. Bunda har qanday oldindan aytib berish, hatto u noto'g'ri bo'lib chiqsa ham ahamiyatga egadir.

Konyunkturani o'rganish bozor va uni oldindan aytib berishga tayyorgarlik ko'rish uning ayni paytdagi ahvolini aniqlash hamda unga o'tgan yarim yil yoki bir yil uchun umumiy xarakteristika berish imkon beradi. Shundan so'ng ishlab chiqarish tahlil qilinadi. Bizni qiziqtirayotgan tovarning butun bozorlar bo'yicha umumiy ishlab chiqarish dinamikasi ko'rib chiqiladi. Bu tovarni ishlab chiqarish hajmi o'zgarishining asosiy sabablari (yangi quvvatlarning ishga tushirilishi, avtomatlashtirish darajasini oshirilishi va hokazolar) ko'rsatiladi.

Shuningdek, talab va iste'mol, tovar uning savdosi, narx-navo va boshqalar ham ko'rib chiqiladi. Konyunktura tahlilining pirovard vazifasi kelgusida yuzaga keluvchi

vaziyatni aniqlash, foydalanish lozim bo'lgan imkoniyatlarni hamda yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo'lgan hamda ehtiyot bo'lish lozim bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlashdir.

1.3. O'zbekiston Respublikasi korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi axborotlar tashqi foydalanuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki ularni xo'jalik yurituvchi subyektga o'z mablag'larini sarflash maqsadga muvofiqligini aniqlash o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini (xarajatini qoplay olishini) yaqqol ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish asosida uning rahbariyati hamda manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar uchun zarur ma'lumotlar to'plamini vujudga keltirishdan iboratdir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun zarur ma'lumotlar uning hisob yuritish siyosatida belgilangan ichki hisobot shakllari, boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqib o'rnatilgan boshqa hisobot shakllari, shuningdek, tezkor va statistik hisobot shakllari orqali uzatiladi.

Moliyaviy hisobotda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari umumiy qabul qilingan va qat'iy qabul qilingan qoidalar hamda tartiblar asosida tuziladi. Moliyaviy hisobot xalqaro talablar asosida tuzilganda umumiy qabul qilingan qoidalar va tartiblar qo'llaniladi. Har bir mamlakatda moliyaviy hisobotni tuzish tartib va qoidalari belgilanadi. Agar mamlakatda moliyaviy hisobotni tuzish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida amalga oshirilishi belgilansa, unda ushbu standartlar talablari va uning qoidalariga muvofiq tuziladi.

Turli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko'p qirraliligi hisobga olinadi, moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha axborot bilan ta'minlay olmaydi, shu sababli yillik moliyaviy

hisobotlarga qo'shimcha ravishda ma'muriyat tomonidan tuziladigan moliyaviy sharh kiritiladi, unda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyati va moliyaviy holatining asosiy belgilari tushuntirib beriladi va ular duch kelayotgan asosiy noaniqliklar bayon qilinadi.

Moliyaviy hisobotlar sharhida xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati natijalariga, faoliyatini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun investitsiya siyosatiga, jumladan joriy davrda, xususan kelgusi davrlarda dividendlar siyosatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ochib beriladi, ya'ni:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyalash manbalari va xatarlarni boshqarish.
2. Xo'jalik yurituvchi subyekt ishlab turgan tashqi muhitdagi o'zgarishlar va shu o'zgarishlar munosabati bilan ko'rilgan chora-tadbirlar hamda ularning subyekt faoliyatiga ta'siri.
3. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qaror qabul qilishi uchun boshqa muhim axborotlar.

Mamlakatimiz korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tashkil qilish "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yillik moliyaviy hisobot quyidagi hisobotlarning umumiy shakllaridan iborat bo'ladi:

1. Buxgalteriya balansi - 1-shakl;
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-shakl;
3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - 4-shakl;
4. O'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot - 5-shakl;
5. Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Davriy (uch oylik) hisobotlar tarkibi yillik hisobotdan hisobotlar shakli sonining kamligi bilan farq qilishi mumkin.

Qo'shimcha axborotni taqdim etish - tushuntirishlar, izohlar va hisob-kitoblar - xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan maxsus shaklda yoki erkin shaklda taqdim etiladi.

Hisobot shakllarining turkumlanishi⁶

№	Turkumlashish belgilari	Hisobot shakllari
1	Turlari bo'yicha	Moliyaviy. Buxgalteriya. Statistika
2	Ahamiyati bo'yicha	Asosiy. Qo'shimcha.
3	Qamrab olinadigan davri bo'yicha	Kunlik. Oylik. Choraklik. Yarim yillik. 9 oylik. Yillik.
4	Doimiy ravishda tuzilmaydigan hisobotlar	O'zbekiston Respublikasi tegishli organlari so'rovi bo'yicha
5	Qo'llanilayotgan aks ettirish usullarining xususiyatlari bo'yicha	Milliy standartlar bo'yicha hisobotlar. MHXS talablarini hisobga olgan holda tuzilgan hisobotlar

Moliyaviy natijani aniqlash muammosini o'rganishda korxonalar subyektlari buxgalteriya foydasi (zarari) ko'rsatkichlari muhimdir. Respublikamizda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun umumiy qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirigining 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'i ko'ra moliyaviy hisobotlar shakllari tarkibi tasdiqlangan. Moliyaviy natijalarni aniqlashda o'rganiladigan asosiy xujjat "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-shakl) hisoblanadi.

Ushbu hisobot nafaqat korxonalarning asosiy va boshqa faoliyatidan olingan buxgalteriya foydasining miqdorini, balki uning sof foydasi (zarari)ni ham aks ettiradi⁷.

Buning barobarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2439-7-son bilan 2019-yil 21-yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan "soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaror, shuningdek unga o'zgartirish va

⁶ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2002-yil 27-dekabrda "Moliyaviy hisobot shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i. Norma Hamkor me'yoriy hujjatlar to'plami. T. 2010.

qo‘shimchalarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida” qarorida keltirilganidek, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4086-son «O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar o‘z kuchini yo‘qotgan⁸. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2013-yil 4-martdagi 23, 2013-8-son «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439, 2013-yil 22-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 12 (I)-son, 162-modda).

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 14-maydagi 34, 2014-19-son «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-1, 2014-yil 13-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 24-son, 300-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2014-yil 31-dekabrdagi 93, 2015-1-son «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-2, 2015-yil 28-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 4 (I)-son, 49-modda).

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2016-yil 25-martdagi 19, 2016-13-son «Soliq hisobotining shakllariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-3, 2016 yil 21 aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 16-son, 171-modda).

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2017-yil 21-fevraldagi 16, 2017-07-son «Soliq hisobotining shakllariga o‘zgartirish

⁸ www.lex.uz

va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-4, 2017-yil 14-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 11-son, 178-modda).

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2017-yil 20-noyabrdagi 160, 2017-62-son «Yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari bo‘yicha soliq hisoboti shakllariga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-5, 2017-yil 29-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 48-son, 1189-modda).

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining 2018-yil 11-iyuldagi 106, 2018-49-son «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qarori (ro‘yxat raqami 2439-6, 2018-yil 20-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 y., 34-son, 702-modda).

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq moliyaviy hisobotda quyidagi axborotlar bo‘lishi lozim:

- investitsiya qarorlari va kreditlar berish to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda kerak bo‘ladigan axborot;

- subyektning bo‘lajak pul oqimlarini baholashda foydali axborot;

- subyektga berilgan resurslar, majburiyatlar va ulardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida axborot.

Yuqoridagi O‘zbekiston Respublikasi 1-BHMA «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ga asosan, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga pul mablag‘lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi zarur:

- korxonaning nazorati ostida bo‘lgan aktivlar haqida;

- korxonaning passivlari haqida;

- korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o‘tishdagi iqtisodiy imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o‘zgarishlar haqida;

-pul mablag'larining harakati haqida.

Ushbu ma'lumotlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati to'g'risida batafsilroq va to'la axborot olish imkonini beradi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari hisobot davri tugagandan keyingi sanaga shakllantiriladi va unga qo'shimcha ma'lumotlar, izohlar va tushuntirishlar berilishini talab qilinadi.

1.4. Korxona moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar va ularning manfaatlari

Korxonalar faoliyatining tahlili natijalari undan foydalanuvchilar uchun ma'lum ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

-ichki foydalanuvchilar;

-tashqi foydalanuvchilar.

Ichki foydalanuvchilarga, ma'muriyat, ya'ni boshqaruv xodimlari, menejerlar, rahbarlar va bo'linmalar mutaxassislari, hamda ta'sischi va mulkdorlar kiradi.

Boshqaruv apparati xodimlari va mutaxassislari buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan keng foydalanuvchilar qatoriga kiradi. Ularga beriladigan ma'lumotlar tarkibi, egallab turgan lavozimi va bajaradigan ishiga bevosita bog'liqdir.

Boshqaruv xodimlari va mutaxassislari bu asosida turli ishlab chiqarish va moliyaviy xarakterdagi qarorlarni qabul qiladi. Shuning uchun ham bunday qarorlarni qabul qilishda to'liq, aniq va o'z vaqtidagi ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega, aks holda korxona katta zararlar ko'rishi va tanazzulga uchrashgacha yetib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot bilan qiziquvchi tashqi foydalanuvchilar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: korxona faoliyati bilan bevosita manfaatdor bo'lganlar va bilvosita manfaatdor bo'lganlar.

Buxgalteriya ma'lumotlaridan bevosita manfaatdor bo'lgan tashqi foydalanuvchilarga mavjud yoki kelajakdagi investorlar, banklar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar kiradi. Ular asosan buxgalteriya hisobotlarida mavjud ma'lumotlardan foydalanadilar. Shu ma'lumotlar asosida ular korxonaning istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlari va barqaror rivojlanishi haqida xulosalar chiqaradilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 26.07.1998 yilda 17-07/86- son bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish" bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartiga asoslanadi.

Ushbu kontseptual asos O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan va foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish asosini tashkil etuvchi tushunchalarni belgilab beradi.

Ushbu konsepsiyaning maqsadi quyidagilarga yordam berishdan iborat:

1. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tartibga soluvchi davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga - buxgalteriya hisobi milliy standartlarini (keyingi o'rinlarda BHMS) rivojlantirish va ularni qayta ko'rib chiqishda;

2. Moliyaviy hisobotni tayyorlovchi shaxslarga - BHMS dan foydalanishda;

3. Auditorlarga - BHMS moliyaviy hisobotiga mos keladigan xulosalarni tayyorlashda;

4. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga - moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi hisoblanadi va BHMS bilan belgilanadi. Moliyaviy hisobot ana shu hisobotlarga asoslangan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan izohlar, mo'ljallar va tushuntirishlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday axborot sanoat va jug'rofiy hududlarning faoliyat turlari to'g'risidagi moliyaviy axborotni aks ettirishi va narxlar o'zgarishining moliyaviy natijalarga ta'sirini tushuntirib berishi kerak.

Haqiqiy va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qaroriga kiradi.

2-jadval

Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar va ularning manfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar⁹

№	Foydalanuvchilar	Foydalanuvchilarning manfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar
1	Aksionerlar	Korxonaning moliyaviy xolati va dividendlar foizi bo'yicha kelgusidagi dividend siyosati
2	Investorlar	Mablag'larni sarflashdan ko'riladigan iqtisodiy samaradorlik va tavakkalchilik darajasi
3	Moliyaviy muassasalar (tijorat banklari)	Korxonaning moliyaviy barqarorligi, ya'ni kreditorlarga hisoblangan foizlarni va olingan kreditlarni to'lash imkoniyati va hokazo.
4	Davlat soliq qo'mitasi	Aktivlar, daromad, xarajatlar va soliq to'lanishi bo'yicha ma'lumotlar
5	Boshqa davlat organlari	Milliy daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar, xarajatlar va boshqa statistik ma'lumotlar
6	Ishchi va xizmatchilar	Mexnat xaqini to'lash qobiliyati.

Korxona egalari uchun, shu bilan birga uning hissadorlari uchun bu ma'lumotlar bank mablag'larining qanday jalb qilinayotganligi, ulardan qay usulda foydalanilayotganligi, aktiv operatsiyalardan qanday moliyaviy natijalar kutilayotganligini bilish uchun juda muhimdir.

Amaldagi qonunchilik va BHMSlarida moliyaviy hisobotlarning turlari, alohida har bir hisobot turlarining mazmuni va ularning tarkibi, hamda tuzilish tamoyillari to'liq yoritib berilgan.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishda kontseptual asosga amal qilishlari kerak.

Moliyaviy hisobot axborotiga ehtiyoj quyidagilarda vujudga keladi:

1. Berilgan investitsiyalar bilan bog'liq xatarlar munosabati bilan investorlarda. Aksiyadorlar ham ular xo'jalik subyektining dividendlarni to'lash qobiliyatini

⁹ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

baholashga imkon beradigan va aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakmi yoki yoʻqligini belgilashga koʻmaklashadigan axborotdan manfaatdordirlar;

2. Oʻzlariga tegishli kreditlar va foizlar oʻz vaqtida toʻlanadimi yoki yoʻqmi ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor boʻlgan kreditorlarda;

3. Oʻzlariga tegishli summa oʻz vaqtida toʻlanadimi yoki yoʻqmi ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor boʻlgan mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa savdo kreditorlarida;

4. Xoʻjalik yurituvchi subyektning uzluksiz faoliyati toʻgʻrisidagi axborotdan manfaatdor boʻlgan xaridorlarda, ayniqsa ular uzoq muddatli bitimga ega boʻlsalar yoki mazkur xoʻjalik yurituvchi subyektga bogʻliq boʻlsalar;

5. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning faoliyati barqarorligi va rentabelligi toʻgʻrisidagi axborotdan manfaatdor boʻlgan xodimlarda. Ular ham xoʻjalik yurituvchi subyektning oʻz ish haqlarini, pensiyalarini va keyinchalik ham yollash boʻyicha ishlash imkoniyatlarini taʼminlash qobiliyatiga baho berish imkonini yaratadigan axborotdan manfaatdordirlar;

6. Resurslarning taqsimlanishi va binobarin, subyektlarning faoliyati toʻgʻrisidagi axborotdan manfaatdor boʻlgan davlat boshqaruvi organlarida. Ularga ham xoʻjalik yurituvchi subyektning faoliyatini tartib ga solib turish, soliqqa tortish siyosatini belgilash uchun va milliy daromadni hamda boshqa statistik maʼlumotlarni aniqlash uchun asos sifatida axborot kerak;

7. Jamoatchilikda ham, chunki xoʻjalik yurituvchi subyektlar mahalliy iqtisodiyotga koʻpgina usullar bilan, shu jumladan aholini ish bilan taʼminlash va mahalliy mahsulot yetkazib beruvchilarni qoʻllab-quvvatlash bilan katta hissa qoʻshishi mumkin. Moliyaviy hisobot jamoatchilikni taraqqiyot yoʻnalishlari va xoʻjalik yurituvchi subyektlarning farovonligini yaxshilashda erishilgan soʻnggi yutuqlar toʻgʻrisidagi axborot bilan taʼminlab, ularga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi xoʻjalik subyektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun

foydalanuvchilarga zarur bo'lgan butun axborotni o'z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa xo'jalik operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga guruhlaydi.

Qisqa xulosalar

Raqobat umumijtimoiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy jarayon qatnashchilari o'rtasida yaxshiroq yashash uchun bo'ladigan kurashni anglatadi. Raqobat kurashida samarali faoliyat yurg'izish, unda muvaffaqiyat qozonish raqobat strategiyasining qanchalik puxta, izchil, uzoqni ko'ra oladigan rejasini ishlab chiqishga uzviy bog'liqdir.

Mamlakatning raqobatbardoshligi darajasini uning milliy kompaniyalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, firmalar, tarmoqlar raqobatbardoshligi ta'minlab beradi. Shuning uchun dastlab mamlakat raqobatbardoshligini emas, balki milliy kompaniyalar raqobatbardoshligini tahlil etiladi.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishda bozorlarni o'rganish katta ahamiyatga ega.

Korxonalar faoliyatining tahlili natijalari undan foydalanuvchilar uchun ma'lum ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Boshqaruv xodimlari va mutaxassislari bu asosida turli ishlab chiqarish va moliyaiy xarakterdagi qarorlarni qabul qiladi. Shuning uchun ham bunday qarorlarni qabul qilishda to'liq, aniq va o'z vaqtidagi ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega, aks holda korxona katta zararlar ko'rishi va tanazzulga uchrashgacha yetib borishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Raqobat nima?
2. Korxonalarni raqobatbardoshligini tashkil etishning asosiy tamoyillarini sanab bering.

3. Moliyaviy tahlilning korxona faoliyatini rivojlantirishdagi oʻrnini ochib bering.
4. Moliyaviy hisobot takibini sanang.
5. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar kimlar?
6. Oʻzbekiston Respublikasi moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning meʼyoriy huquqiy asoslari nimadan iborat?

2-bob MOLIVAVIY TAHLIL VA KORXONANI BOSHQARISHDA UNING USULLARI

2.1. Korxonalar faoliyatini tahlil qilishning mohiyati va zaruriyati

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar - moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi.

Boshqaruv subyektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur buladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri, uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Tahliliy ishlarni muvafaqqiyatli, samarali o'tkazilishi, uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uning o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o'tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Asoslanishi lozim bo'lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxona faoliyatini tahlil qilish — boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir. Shunday qilib, bundan chiqadigan zarur tamoyil bu tahlil ishlarini bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash.

2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarini tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib, yuqori samaraga erishish.

3. Tahlil ishlarini tashkil qilishda yana bir tamoyil, uni o'tkazishni nazorat qilib borish.

Korxona iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruv va moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni, uning moddalarini tushunishni, shuningdek xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak.

Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagi tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tahlil ishlari tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan mavzularning ko'lami va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassislari hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin buladi.

Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning zaruriyati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada ortgan, chunki har bir faoliyatning korxona uchun manfaatlilik darajasini aniqlashdan, bu faoliyatning iqtisodiy nuqqai nazaridan to'g'ri tashkil etilganligiga baho berishdan iboratdir. Iqtisodiy tahlilni korxona miqyosida to'liq tashkil etishga bevosita javobgar bosh hisobchi yoki korxona boshqaruvchisi bulishi mumkin. Sherik korxonalarda esa bu masalaga bevosita korxona boshlig'i yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha korxona boshlig'ining muovini shug'ullanishi mumkin bo'ladi.

Korxonalarda tsex yoki brigada ma'lumotlari buyicha iqtisodiy tahlilni shu bo'lim boshliqlari tashkil etishlari kerak bo'ladi.

2.2. Xo'jalik faoliyatini tahlil etish tizimi va uslublari

Korxonalarda analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligi ga va rejalashtirishga bog'liqdir. Odatda, analitik ishlarda nafaqat korxonaning boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funksional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlilini tashkil etishda quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Tahlil o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi. Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish, tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektni aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

2. Tahlil uchun kerakli bulgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- tahlil manbalarini to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish.

3. To'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi. To'plangan manbaalarni to'g'riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlashdan iborat buladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

4. Bevosita xo‘jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi. Bu eng muhim bosqich bo‘lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko‘rsatkichlar hisoblanadi, o‘zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon lari ni aniqlash;
- ko‘rsatkichlarii hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

5. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi. Bu bosqichda o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma’lum bir o‘zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o‘zgarish sabablarini aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

6. Tahlil natijasida ilg‘or goya va tajribalarni amaliyotda qo‘llash shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi. Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo‘llash yo‘llari ko‘rsatib, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg‘or g‘oya va tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko‘rsatib beradi va kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Odatda, korxonalar faoliyatini tahlil qilish davrida ma’lumotlar manbai yig‘iladi. Ushbu ma’lumotlarning tug‘riligiga ishonch hosil qilish maqsadida ma’lumotlar to‘g‘riligi tekshiriladi. Tahlil uchun yig‘ilgan ma’lumotlarni tekshirish ikki usulda olib boriladi:

1. Yuzaki tekshirish.
2. Mazmun jihatidan tekshirish.

Yuzaki tekshirishda hisobotga barcha ma'lumotlarni kiritilganligi, ularning arifmetik yig'indisi, Moliya vazirligi hamda Statistika qo'mitasi tomonidan tasdiklangan hisobot shakllariga rioya qilinganligi, hisobot shakllarining bir-biri bilan bog'liqligi, hisobotni topshirish muddati, mansabdorlarning imzosi tekshiriladi.

Mazmun jihatidan tekshirish quyidagilarni uz ichiga oladi:

- inventarizatsiya natijalari hisobotda uz aksini topishi;

- korxona hisobot ma'lumotlaridagi budjetga tulovlar va budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish summasining moliya tashkiloti ma'lumotlariga mos kelishi;

- foyda va zararlar schyotiga o'tkazilgan ko'rsatkichlarni tekshirish (ustav kapitalining o'zgarishi, tabiiy ofatdan kurilgan zarar, asosiy vositalarning tugatilishi va hokazolar).

Korxonalar faoliyatini tahlil qilish davomida kuplab manbaalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Tahlilda qo'llaniladigan manbalarni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin buladi:

1. Reja ma'lumotlari manbalari.
2. Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalari.
3. Qo'shimcha ma'lumotlar manbai.

Reja ma'lumotlari manbalari tarkibiga biznes reja ko'rsatkichlari, belgilangan limitlar, belgilangan norma va normativlar, shartnoma ko'rsatkichlari kiradi.

Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalariga buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiradi. Tahlilning asosiy ma'lumotlar manbai bu buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari bo'lib, ular korxona xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlarini uz ichiga oladi. Bunda mablag'lar harakati, ularning manbalari, xo'jalik aloqalari aks etadi.

Buxgalteriya balansida mablag'lar, manbalarining joylashishi va hosil bo'lishiga qarab ifodalanadi.

Statistik hisob va hisobot ma'lumotlari tahlil uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bu hisobotda hodisa va jarayonlarning jami ko'rsatiladi, ularni miqdor jihatdan xarakterlaydigan muayyan iqtisodiy qonunlarni aniqlaydigan tarzda aks ettiriladi.

Operativ hisob va hisobot ma'lumotlari buxgalteriya hisobi va statistik hisobot ma'lumotlariga nisbatan zarur informatsiyani birmuncha tezroq olishga imkon beradi.

Iqtisodiy tahlilni yanada chukkurroq amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga taalluqli bo'lmagan, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish lozim buladi. Bunday ma'lumotlar tarkibiga bank, moliya, soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma, inspektorlarning taqdim etgan ma'lumotlari, auditor xulosalari, radio va televidenie ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari, ishchi va xizmatchilar bilan bo'lgan muloqot natijalari kiradi.

2.3. Moliyaviy tahlilning asosiy usullari

Iqtisodiy tahlil qilishda, ma'lumotlarni qayta ishlashda turli-tuman uslublar qo'llaniladi. Bu uslublarni qo'llash jarayonida tahlil metodining asosiy xususiyatlari kompleks va tizimlashganligi yaqqol ko'rinadi. Xo'jalik jarayonlari ning umumiy birligi, ketma-ketligi va ayrim elementlardan iboratligi tahlil qilishda asosiy e'tiborda turadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat, yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarida shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatishmoqda. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhi.
2. Iqtisodiy-matematik usullar guruhi.

Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutlok va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, indeks, foizlar va boshqa usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy axborotlarni elektron hisoblash mashinalarda hisoblash va qayta ishlash, bu ma'lumotlarni tez muddatda boshqaruv xodimlariga uzatish ishlari boshlanganda qo'llaniladi. Iqtisodiy-matematik usullar guruhiga odatda, korrelyatsion va regratsion tahlil, nazariy o'yin (nazariy xizmat kursatish), iqtisodiy tashxis qo'yish, integral, funksional qiymatli tahlil, chiziqli programmalashtirish, grafikli, evrestik tahlil va hokazo usullarni kiritishimiz mumkin buladi. Iqtisodiy matematik usullarni bugungi kundagi ayrim iqtisodiy adabiyotlarda omilli tahlil usullari ham deb nomlanmoqda. Chunki, mazkur usullar orqali ma'lum bir iqtisodiy hodisa va jarayonga ta'sir etuvchi bir nechta omillarning ta'sirini aniq miqdorlarda aniqlash imkoniyati mavjudligidadir.

Xo'jalik jarayonlarini o'rganish, tahlil etishda yangi usul va vositalardan foydalanish iqtisodiy tahlil ni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda tahlilda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarni ham ushbu qatorga kiritish mumkin.

Tahlilda ko‘llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va ularni qo‘llash o‘rni¹⁰

№	Usullarning nomi	Mazmuni
1	Korrelyatsion-regratsion tahlil usuli	O‘zgaruvchi birlikka ta’sir etuvchi, o‘zaro aloqadorlik va bog‘lanishdagi alohida belgining boshqa belgilar ta’sirida o‘zgarishlarini aniqlash
2	Logorifmlar usuli	Natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi ko‘plab omillarning ta’sirini aniqlashning matematik ifodaga solinishi
3	Determinantlar usuli	Yakuniy ifodaga ta’sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni tug‘diruvchi va ularning alohida tarkiblanishi
4	Matritsalar usuli	Yakuniy ifoda va natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni juftlik, birlik va ko‘plik koefitsientlarda aniqlash
5	Chiziqli programmalashtirish usuli	Xo‘jalik jarayonlarini funktsiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmalashtirish va ularni boshqarish bo‘yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantini aniqlash
6	Nazariy o‘yin usuli	Ijtimoiy, ekologik, texnologik shartlarni hisobga olgan holda boshqarishni bir xil darajada saqlashning shartlarini belgilash

Iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llash asosida:

- tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o‘zgarishlar va ularning ta’sirini aniq hisoblash mumkin;
- oddiy-an’anaviy usullar bilan hisoblab bo‘lmaydigan murakkab omillar va kup omilli ko‘rsatkichlarni to‘liq urganish imkoni tug‘iladi;
- har bir ta’sir etuvchi omilning miqdor va sifat jihatlarini aniq ko‘rsatib berish imkoniyati tug‘iladi;
- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va boshqalar.

¹⁰ Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2.4. Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy faoliyati natijalarini moliyaviy koeffitsientlar yordamida tahlil etish

Korxonalar moliyaviy holatini baholovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud. Bular jumlasiga korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi, korxona aktivlarning likvidlilik darajasi va boshqa qator ko'rsatkichlar kiradi¹¹.

Ma'lumki, moliyaviy holatni xususiyatlashda absolyut ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi.


Korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) aniqlanadi, keyin mazkur hisobot natijasida moliyaviy holat tahlili amalga oshiriladi va uning natijalarini umumlashtirish orqali moliyaviy barqarorlik imkoniyatlari o'rganiladi. Demak, moliyaviy tahlil mazkur ketma-ketlikda oddiylikdan murakkablik tomon boradi, bu bilan birgalikda tahlil obyekti va davriyligi ham kengayib boradi.

Moliyaviy tahlil korxonalarning rasmiy hisobot ma'lumotlari asosida an'anaviy bo'lgan rentabellik, ish faolligi ko'rsatkichlari, likvidlilik darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar, to'lov qobiliyati va korxona kapitali tuzilmasining kabi tahlillarni o'z ichiga oladi.

Barqaror talabga ega bo'lgan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, moddiy aylanma mablag'lar - xaridorgir va tez pulga aylantiriladigan aktivlar likvidli vositalar sifatida yuritiladi. Likvidlilik qobiliyati qoniqarli bo'lishi uchun, o'z hamkorlari oldida ishonch qozonish uchun hamda korxonaning zarar ko'rmay ishlashi uchun uning faoliyatida mablag'lar aylanishining bir me'yorda bo'lishiga erishish kerak. Buning uchun esa korxona menejerlari o'z balansini muntazam ravishda chuqur va atroflicha tahlil qilib borishlari lozim.

Umuman olganda, korxonalar moliyaviy holati ko'rsatkichlarini ikkita yirik guruhga, ya'ni absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'lib o'rganish mumkin va uni quyidagicha ifodalash mumkin.

¹¹ Бланк И.А. Артюшин В.В. Финансовый анализ. Инструментарий практика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – с.120



3-rasm. Korxona moliyaviy holatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar¹²

Korxonalar moliyaviy holati tahlil qilinar ekan, asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishini lozim:

- korxonalar moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;

- mablag'lar manbalari va joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'naltirilganligini aniqlash;

- to'lov majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilganligi, debitor va kreditor qarzar tarkibini o'rganish;

¹² Гридчина М.В. Финансовый менеджмент. К.: МАУП, 2004. –с.74.

- korxonaning o'z mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtasida nisbatni va aylanma mablag'larning manbasining mavjudligini tekshirish, moliyaviy intizomga qanchalik amal qilinishini aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;


-korxona mol-mulki va uning tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;

-aylanma mablag'lardan foydalanish darajasiga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar berish va boshqalar.

Korxona moliyaviy holatini xususiyatlovchi nisbiy ko'rsatkichlarning eng asosiylariga to'xtalib o'tamiz. Iqtisodiy tushuncha sifatida likvidlilik tushunchasi korxonaning o'z majburiyatlarini vaqtida bajara olish imkoniyatini bildiradi.

Likvidlilik haqida so'z borar ekan, bunda balans likvidliliigi va aktivlar likvidliliigi tushunchalarini farqlash zarurligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Likvidlik ko'rsatkichlari asosan, korxonaning qisqa muddatli qarzlarini to'lashga bo'lgan qobiliyatini tavsiflaydi va o'z ichiga joriy, muddatli va absolyut likvidlilik hamda sof aylanma mablag'lar hajmi ko'rsatkichlarini oladi.



4-rasm. Likvidlik ko'rsatkichlari¹³

Balans likvidliliigi tahlilining mohiyati shundaki, bunda likvidlilik darajasi bo'yicha guruhlangan va kamayib borish tartibida joylashtirilgan aktiv vositalar, to'lash muddati bo'yicha guruhlangan va to'lash muddati oshib borish tartibida joylashtirilgan passiv bo'yicha majburiyatlar bilan taqqoslanadi. Likvidlilik ko'rsatkichlari korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini to'lashga qodirligini

¹³ Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

tavsiflaydi. Likvidlilik darajasi bo'yicha korxona aktivlari quyidagi guruhlariga bo'linadi¹⁴:

a) likvidligi yuqori bo'lgan aktivlar (A1). Ular tarkibiga – kichik korxonaning barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalari (qimmatli qog'ozlari) kiradi;

b) tez sotiladigan aktivlar (A2). - debitorlik qarzlari va boshqa aktivlar kiradi;

v) sekin sotiladigan aktivlar (A3). - balans aktivining II bo'limidagi "Kelgusi davr harajatlari"dan tashqari barcha zahiralar va xarajatlar moddalari, shuningdek, "Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar", "Ta'sischilar bilan hisob-kitoblar" dan iborat;

g) qiyin sotiladigan aktivlar turkumiga (A4) - balans aktivining I bo'limidagi "Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar", "Ta'sischilar bilan hisob-kitoblar" dan tashqari barcha moddalari kiradi.

Balans passivlari esa to'lash muddati darajasi bo'yicha quyidagicha guruhlanadi¹⁵:

1. Muddati juda tez bo'lgan qisqa majburiyatlar - kreditorlik qarzlari va boshqa passivlar (P1).

2. Qisqa muddatli passivlar - qisqa muddatli kredit va qarz mablag'lari (P2).

3. Uzoq muddatli passivlar - uzoq muddatli kredit va qarz mablag'lari kiradi (P3).

4. Doimiy passivlar (P4). Bu ko'rsatkich balans passivining I bo'limidagi "O'z mablag'lari manbai"dan iborat.

Balans likvidligini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan jadvallar asosida guruhlar taqqoslanadi. Agar ular quyidagi o'zaro nisbatda bo'lsa, u holda balans absolyut likvidli deb hisoblanadi¹⁶:

$A1 \geq P1$	$A2 \geq P2$	$A3 \geq P3$	$A4 \leq P4$
--------------	--------------	--------------	--------------

¹⁴Грачев А.В. Учет внутренней структуры капитала // Финансовый менеджмент». М, 2004 №1. С.27.

¹⁵Грачев А.В. Учет внутренней структуры капитала // Финансовый менеджмент». М, 2004 №1. С.27.

¹⁶ Грачев А.В. Учет внутренней структуры капитала // Финансовый менеджмент». М, 2004 №1. С.27.

Korxonalar moliyaviy tahlilining keyingi ko'rsatkichlari sifatida likvidlilik ko'effitsientlari maydonga chiqadi. Bu ko'rsatkichlar korxonaning likvidli aktivlarni jalb qilish orqali qisqa muddatli qarzдорligini qaytara olish qobiliyatidir. Ular qarzдорlikning muddatiga qarab hisoblanadi. Likvidlilik ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

1. Joriy likvidlilik yoki qoplash ko'rsatkichlari:

$$JL = \frac{PM + ЖМИ + ДК + ТМК}{ЖП} \quad (1)$$

bu erda: JL - joriy likvidlilik; PM - pul mablag'lari; JMI – joriy moliyaviy investitsiyalar; DQ - debitor qarzlar; TMQ - tovar moddiy qiymatliklar; JP -joriy passivlar.

Umumiy qabul qilingan andozalarga muvofiq joriy likvidlilik 1 dan yuqori bo'lishi kerak. Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan kichik korxonaning 2006-2010 yillardagi joriy likvidlilik ko'rsatkichi 1 dan yuqoriroqdir.

2. Tezkor likvidlilik ko'rsatkichi:

$$TL = \frac{PM + ЖМИ + ДК}{ЖП} \quad (2)$$

Tadqiq qilinayotgan kichik korxonalar ichidan “Aravana” kichik korxonasining muddatli likvidlilik ko'rsatkichini tahlil qilganimizda, 2006-yilda 0,92 [(49,7+0+1488,5):1663,9] ni 2010 yilda esa 0,9 [(192,4+0+2081,2):2520,0] ni tashkil qilgan. Demak, 2010-yilda muddatli likvidlilik 0,02 ga kamaygan va bunga qisqa muddatli majburiyatlarning ortishi sabab bo'lgan.

3. Absolyut likvidlilik ko'rsatkichi:

$$AL = \frac{PM + ЖМИ}{ЖП} \quad (3)$$

bu erda: AL – absolyut likvidlilik; PM - pul mablag'lari; JMI – joriy moliyaviy investitsiyalar; JP - joriy passivlar.

Korxona kapitali tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosan korxonaning uzoq muddatli qarzlarini to'lashga bo'lgan qobiliyatini tavsiflaydi va o'z ichiga

moliyaviy bog‘liqlik, mulkiy mustaqillik va kreditorlarning himoyalanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini oladi.



5-rasm. Kapital tuzilishi ko‘rsatkichlari¹⁷

Kapital tuzilishi ko‘rsatkichlari korxonaning uzoq muddatli qarzini qaytarish yoki uzish qobiliyatini aks ettiradi. Kapital tuzilishi ko‘rsatkichlari korxonani o‘zining va qarzga olgan mablag‘ining holatiga baho berishda qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, moliyaviy bog‘liqlik (MB) koeffitsienti bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich moliyaviy bozorlar talabiga ko‘ra 1 dan oshmasligi kerak va quyidagicha hisoblanadi:

$$MB = \frac{QK}{OK} \quad (4)$$

bu yerda: QK - qarzga olingan kapital; OK - o‘z kapitali.

Mulkiy mustaqillik koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$MM = \frac{OK}{AK} \quad (5)$$

bu yerda: MM - mulkiy mustaqillik koeffitsienti; OK - o‘z kapitali; AK - aktivlarning yillik o‘rtacha qiymati.

Kreditorlarning himoyalanganligi ko‘rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblanadi:


$$KXK = \frac{C\Phi}{\Phi X} \quad (6)$$

¹⁷ Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

bu yerda, KXK - kreditorlarning himoyalanganligi koeffitsienti; SF - soliqlar va kreditlar bo'yicha foizlarni to'lagungacha bo'lgan sof foyda; FX - davr uchun foizlarni to'lash bo'yicha harajatlar.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxona faoliyati u yoki bu sohasining qanchalik foydaliligini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar olingan sof foydaning foydalaniladigan aktivlarga yoki sotilgan mahsulot hajmiga, yohud o'z kapitaliga nisbati sifatida hisoblab chiqariladi.

Quyida keltirilgan rasmda rentabellikning eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlari keltirilgan.



6-rasm. Korxonalar rentabellik ko'rsatkichlari¹⁸

Rentabellik ko'rsatkichlaridan biri korxona aktivlari rentabelligidir. Korxona barcha aktivlarining rentabelligi sof foydani korxona aktivlarining yillik o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali topiladi. Bu ko'rsatkich korxona foydalanilgan aktivlarining har bir birlik qiymatiga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalab beradi hamda quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$AR = \frac{C\Phi}{AK} \quad (7)$$

bu yerda: AR – korxona aktivlarining rentabellik darajasi; SF - sof foyda; AQ - mavjud aktivlarining o'rtacha yillik qiymati.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hisoblab chiqilgan mazkur ko'rsatkichlar har qanday korxonaning moliyaviy holatiga absolyut baho berish uchun mezon bo'lib

¹⁸ Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan

hisoblana olmaydi. Ulardan me'yoriy daraja bilan taqqoslash uchun foydalanish mumkin.

Rentabellikning keyingi ko'rsatkichi bo'lib, mahsulot sotish rentabelligi hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich sof foydani mahsulot sotishdan tushgan tushum hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi. Bunda mahsulot sotish rentabelligi har bir pul birligiga sotilgan mahsulot qancha sof foyda keltirganligini ifodalaydi:

$$SR = \frac{C\Phi}{CT} \quad (8)$$

bu yerda: SR – mahsulot sotish rentabelligi; SF - sof foyda; ST - mahsulot sotishdan tushgan tushum.

Rentabellikning keyingi ko'rsatkichi sifatida o'z kapitali rentabelligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxona kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu ko'rsatkich korxona investorlari sarflagan har bir birlik pulning qanchadan sof foyda keltirayotganligini ifodalaydi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$UKR = \frac{C\Phi}{YKC} \quad (9)$$

bu erda: OKR - o'z kapitali rentabelligi; SF - sof foyda; OKS - o'z kapitalining o'rtacha yillik summasi.

Korxona moliyaviy tahlilini amalga oshirishning keyingi ko'rsatkichi sifatida ish faolligi (yoki aylanish) ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar korxona aktivlardan foydalanishdagi samaradorlikni ifodalab beradi.

Shu bilan birga ular korxonaning moliyaviy holatini baholashda korxona mablag'lari va ular alohida elementlarining ma'lum davrlardagi aylanish tezligi to'lov qobiliyatiga bevosita ta'siri muhim omildir.

Korxona ish faolligi ko'rsatkichlarini quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.



7-rasm. Ish faolligi ko'rsatkichlari¹⁹

Ish faolligi ko'rsatkichlarining dastlabkisi sifatida aylanma aktivlarning aylanuvchanligi bo'lib hisoblanadi. Bu ko'rsatkich ma'lum bir davrda ishlab chiqarish va muomala aylanishining mahsulotni sotishdan olingan sof tushumni necha marta amalga oshirilganligini bildiradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$AA = \frac{CT}{A.y.k} \quad (10)$$

bu yerda: AA – aylanma aktivlarning aylanuvchanligi; ST - sof tushum; $A.o'.q.$ - aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

Moddiy ishlab chiqarish qiymatliklari zahiralarining aylanuvchanlik ko'rsatkichi ham aylanish davri ko'rinishida ifodalanadi va u asosan kunlarda hisobga olinadi. Bu ko'rsatkich yordamida moddiy ishlab chiqarish zahiralarini sarflash va sotish uchun qancha muddat sarflanishi aniqlanadi hamda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$ZA = \frac{CMT}{3.y.k} \quad (11)$$

bu yerda: ZA - moddiy qiymatliklar zahiralarining aylanuvchanligi; SMT – sotilgan mahsulotning tannarxi; $Z o'.q.$ – zahiralarining o'rtacha yillik qiymati.

Ish faolligi ko'rsatkichlarining keyingi turi bo'lib, debitorlik qarzlarning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich hisobot davri davomida debitorlik qarzlarning o'rtacha necha marta pul mablag'lariga aylanganligini aks ettiradi, ya'ni:

¹⁹ Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

$$DKA = \frac{CT}{C\Delta K_{y.k}} \quad (12)$$

bu yerda: DQA - debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi; CT - sof tushum; SDQ o'q. – o'rtacha yillik sof debitorlik qarzlari.

Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini ham qanday holda ekanligini o'rganib chiqish va baholash muhim ahamiyatiga ega. Odatda, bu ko'rsatkich ham aylanish davomiyligi ko'rinishida hisoblanadi:

$$KKA = \frac{CT}{CKK_{y.ü}} \quad (13)$$

bu yerda: KQA - kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi; ST - mahsulot sotish tannarxi; SKQ – o'rtacha yillik sof kreditorlik qarzdorlik.

Moddiy ishlab chiqarish zahiralarining sarflanishi va ular sotilish tezligini aks ettiradigan “zahiralarining aylanuvchanligi” ko'rsatkichi ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Korxonaning kreditorlik qarzlari yuqori darajada bo'lganda aylanuvchanlikni oshirish va moddiy ishlab chiqarish zahiralarini kamaytirish, ayniqsa, dolzarb vazifa hisoblanadi.

Korxonalar uchun yuqorida aytib o'tilgan moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari ma'lum bir davr (yil, chorak yoki oy) uchun tayyorlanadi va ular oraliq davr ma'lumotlarini ifodalab beradi. Bu ma'lumotlarni davrlar bo'yicha tahlil qilish orqali mazkur korxonalarning faoliyati baholansa va xulosa qilinsa ham, ular korxonaning yakuniy moliyaviy natijasini ifodalab bermaydi. Shuning uchun ham bu tahlil yakuniy moliyaviy natijalarni tayyorlashda qo'shimcha ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. An'anaviy tahlil natijalari ma'lum davrlarda yakuniy moliyaviy natijalarga erishish uchun xizmat qiladi.

Qisqa xulosalar

Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir. Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri, uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Tahliliy ishlarni muvafaqqiyatli, samarali o'tkazilishi, uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uning o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o'tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim. Iqtisodiy tahlilni yanada chukurroq amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga taallukdi bo'lmagan, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish lozim buladi. Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi. Korxonalar moliyaviy holatini baholovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud. Bular jumlasiga korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi, korxona aktivlarning likvidlilik darajasi va boshqa qator ko'rsatkichlar kiradi. Korxonalar uchun yuqorida aytib o'tilgan moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari ma'lum bir davr (yil, chorak yoki oy) uchun tayyorlanadi va ular oraliq davr ma'lumotlarini ifodalab beradi.

Nazorat savollari

1. Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishda nimalarga asosiy e'tibor qaratiladi?
2. Moliyaviy tahlil usullarini sanab bering.
3. Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlash usullari nima?
4. Iqtisodiy matematik tahlil usullaridan qanday foydalaniladi?
5. Korxonaning kredit layoqatliligini aniqlash usulini bayon eting?

3-bob KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISH

3.1. Korxona aktivlarining iqtisodiy mohiyati va turkumlanishi

Korxona ixtiyoridagi iqtisodiy resurslar korxonaning aktivlari deb ataladi. Aktivlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular joriy davrda va kelajakda korxonaga iqtisodiy naf keltiradi. O'z navbatida bu iqtisodiy naf korxona aktivlarining ko'payishida yoki iqtisodiy majburiyatlarning kamayishida ifodalanadi.

Korxonaning joriy davrda iqtisodiy naf keltiruvchi aktivlari joriy (qisqa muddatli) aktivlarni tashkil etadi. Joriy davrdan tashqarida naf keltiruvchi aktivlar esa, uzoq muddatli aktivlar deb yuritiladi. Korxona kapitalining uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishni moliyalash uchun xizmat qilayotgan qismi asosiy kapitalni tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar, kapital qo'yilmalar va uzoq muddatli debitorlik qarzlari kiritiladi.

Xo'jalik amaliyotida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga bir yildan ko'proq muddat xizmat qiladigan, ishlab chiqarish, tijorat yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan, qayta sotish uchun mo'ljallanmagan aktivlar kiritiladi.

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifasi asosiy mablag'lar tahlil ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasiga asoslangan holda ularni moliyalashtirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlashdir.

Korxonalarda joriy aktivlarni boshqarish aktivlarni boshqarish tizimining muhim bug'inlaridan biri sanaladi. Joriy aktivlar ko'p xollarda aylanma mablag'lar yoki aylanma kapital deb ham yuritiladi.

Umuman olganda korxonalarining aylanma mablag'lari - bu uning joriy aktivlariga qo'yilgan kapitallarning qismi hisoblanadi²⁰.

²⁰ Yuldashev A. Sirojiddinov I. Xusainov M. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma. –T. Voris-nashriyot, 2016.-285 b.

Har qanday mulkchilik shaklidagi firma va kompaniyalar o'zlarining xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatlarini, ma'lum bir turdagi yoki miqdordagi aktivlarga ega bo'lmagan turib amalga oshirishlari mumkin emas. Kompaniyalarning aktivlari ular balansining aktiv qismida aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan, aktivlar – bu xo'jalik subyekti tomonidan nazorat qilinuvchi, avvalgi davrlarda qandaydir hodisa yoki jarayon natijasida paydo bo'lgan va bulardan kelajakda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan iqtisodiy manfaat olishni ko'zlaydigan resurslar tushuniladi.

Keltirilgan tarifdan kelib chiqqan holda kompaniyalarning aktivlari deyilganda, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini uzluksizligini ta'minlash, ularning bozor qiymatini oshirish va egalarining talablarini qondirish maqsadida xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan korxona aktivlari ikki qismdan iborat bo'lib, ular: uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar. «Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summaları oshkor qilinishi kerak.

«Joriy aktivlar» bo'limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar summaları oshkor qilinishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona, firma va kompaniyalar aktivlarini ma'lum bir xususiyatlari bo'yicha tasniflash yoki tarkibiy joylashtirib chiqish mumkin bo'ladi. Korxona aktivlarini quyidagi xususiyatlari bo'yicha tasniflash mumkin:

I. Bajaradigan vazifalari va shakliga ko'ra:

1. Moddiy, ya'ni moddiy xususiyatga ega bo'lgan aktivlar:

- asosiy vositalar;

- tugallanmagan ishlab chiqarish;

- xomashyo, material va boshqa ishlab chiqarish zaxiralari;
- tayyor mahsulot va tovarlar;
- boshqa moddiy aktivlar.

2. Nomoddiy, ya'ni nomoddiy xususiyatga ega bo'lmagan aktivlar:

- yerosti va tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi;
- sanoat nusxalari va modellaridan foydalanish huquqi;
- «nou-xau», patentlar, mahsulot belgilari va markalari;
- «gudvil» va korxonaning boshqa mulkiy huquqlari va qiymatliklari.

3. Moliyaviy aktivlar, barcha moliyaviy dastaklarni (instrument)larni tavsiflovchi aktivlar:

- milliy va xorijiy valutadagi pul aktivlari;
- debitorlik qarzlari;
- qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

II. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish tavsifiga ko'ra:

1. Uzoq muddatli aktivlar, ya'ni ko'p marotaba xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan va o'zining qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazib boradigan aktivlar.

2. Joriy aktivlar, bir ishlab chiqarish yoki tijorat sikli jarayonida to'liq ishlatiladigan aktivlar.

III. Korxona faoliyatini turiga xizmat ko'rsatish bo'yicha:

1. Operatsion aktivlar, foydani shakllantirish maqsadida joriy faoliyatni amalga oshirishda ishlatiladigan aktivlar.

2. Investitsion aktivlar, korxonaning investitsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan aktivlar.

IV. Aktivlarning likvidlilik darajalariga qarab:

1. Absolyut likvid aktivlar;
2. Yuqori likvidli aktivlar;
3. Past likvidli aktivlar;
4. Nolikvid aktivlar.

V. Mulkiy egaligini tavsiflovchi aktivlar:

1. Ijaraga olingan aktivlar;

2. O'ziga tegishli (xususiy) aktivlar

VI. Aktivlar vujudga kelishining moliyaviy manbaiga ko'ra:

1. Yalpi aktivlar, ya'ni o'z va jalb qilingan (qarz) mablag'lar hisobiga hosil bo'lgan aktivlar.

2. Sof aktivlar, faqat o'z mablag'lari hisobiga shakllangan aktivlar.

Korxonalarda aktivlarni tashkil qilishdan asosiy maqsad, joriy faoliyatni uzluksizligini ta'minlashda ularga bo'lgan talabni qondirish, hamda korxonalar xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ularning tarkibini optimallashtirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, korxonalarda aktivlarni tashkil qilish va ularni boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim:

1) joriy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari va uni diversifikatsiya qilishning yo'nalishlari; bunda korxonalar joriy faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini belgilash, joriy faoliyatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda strategiyasini ham ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish hamda istiqbolda korxonaning xo'jalik faoliyat turini diversifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari inobatga olinishi nazarda tutiladi. Ayniqsa, ushbu tamoyilni oqilona qo'llanilishi korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvni tashkil qilish jarayonida dolzarb hisoblanadi.

2) korxonalarda aktivlarni tashkil qilishda ularning hajmi va tuzilishi bilan, mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmi va tuzilishini o'zaro mosligiga amal qilish; ushbu tamoyilda korxonalarda ishlab chiqariladigan bir birlik mahsulot uchun kerakli xomashyo va materiallar, boshqa turdagi aktivlarni o'zaro mutanosibligini ta'minlash, hamda ishlab chiqariladigan mahsulot turiga undagi mavjud aktivlarning tuzilishini mosligi ham inobatga olinadi.

3) korxona xo'jalik-moliyaviy faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida aktivlar tarkibini optimallashtirish;

4) aktivlardan foydalanish jarayonida ularni aylanuvchanligini oshirish uchun zaruriy sharoitlar yaratish;

5) korxonalarning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida aktivlarni yuqori texnologik turlarini tashkil qilish; bunda, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish

yoki xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan asosiy vositalarning zamonaviy, tejamkor va yuqori rentabellikka ega bo'lgan turlaridan keng foydalanish, buning hisobiga mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish kabi ijobiy natijalarga erishish, pirovardida esa korxonada qo'shimcha moliyaviy resurslar darajasini oshishiga olib keladi.

3.2. Korxona aktivlarini shakllanish tamoyillari va ularning tarkibini optimallashtirish

Korxona aktivlari pulga aylanish qobiliyatiga qarab asta realizatsiyalanuvchi (tayyor mahsulot, xomashyo va materiallarning zaxiralari) va tez realizatsiyalanuvchi (debitorlik qarzdorlik, depozitdagi mablag'lar) hamda eng likvidli (pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar) aktivlarga bo'linadi.

«Aylanma vositalar» tushunchasi, odatda aylanma aktivlarning pul qiymatini anglatadi. Aylanma aktivlarning o'zi esa tasniflanishda natural shaklga ega bo'ladi.

Korxonaning aktivlarini boshqarish siyosati quyidagi asosiy bosqichlar bo'yicha ishlab chiqiladi²¹:

1. Korxona aylanma aktivlarining o'tgan davrdagi tahlili.

Tahlil bir necha bosqichdan iborat bo'lib, unda korxona foydalanadigan aylanma aktivlar umumiy hajmining dinamikasi ko'rib chiqiladi. Korxona aylanma aktivlarining asosiy turlari nuqtai nazaridan tarkibining: xomashyo, materiallar va yarim fabrikatlar zaxiralari; tayyor mahsulot zaxiralari; debitorlik qarzdorlik; pul aktivlarining qoldiqlari dinamikasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, aktivlarning rentabelligi aniqlanadi, uni belgilovchi omillar tadqiq qilinadi, buning barobarida aktivlarni moliyalashtirishning asosiy manbalari tarkibi, ular summasi va moliyaviy vositalardagi solishtirma ulushi dinamikasi ko'rib chiqiladi; aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalari tarkibi bilan belgilanuvchi, moliyaviy risk darajasi aniqlanadi.

2. Korxona aktivlarini shakllantirishning prinsipial yondoshuvlarini aniqlash. Bu tamoyillar korxona moliyaviy boshqaruvining umumiy mafkurasini aks ettiruvchi,

²¹ B.To'xliiev. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma. –T. TDIU, 2006. -195 b.

moliyaviy faoliyatning daromadlilik va risk darajalari o'rtasidagi maqbul nisbatni aks ettiradi.

Moliyaviy menejment nazariyasi korxona aylanma aktivlarini shakllantirishda uchta prinsipial yondoshishni e'tirof etadi: konservativ, o'rtamiyona va agressiv.

3. Aktivlar hajmini optimallashtirish.

Bunday optimallashtirish, aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligi va risk o'rtasidagi nisbatning belgilangan darajasini ta'minlagan holda, ularni shakllantirishning maqbul siyosatidan kelib chiqishi kerak.

4. Aktivlarning doimiy va o'zgaruvchan qismlari nisbatini optimallashtirish.

5. Aktivlarning zaruriy likvidligini ta'minlash.

Modomiki, aylanma aktivlarning barcha turlari likvidli ekan (kelgusi davr xarajatlari va ishonchsiz debitorlik qarzidan tashqari), ular tezkor likvidligining umumiy darajasi korxona to'lov qobiliyatining zaruriy darajasini joriy moliyaviy majburiyatlar bo'yicha ta'minlashi lozim. Shu maqsadda kelgusi to'lov aylanmasi hajmi va grafigini hisobga olgan holda, aylanma aktivlarning ulushi pul shaklida aniqlanishi kerak.

6. Aktivlarning rentabelligini oshirish.

Korxona faoliyatida aktivlardan samarali foydalanish natijasida muayyan foydaga erishish lozim. Aylanma aktivlarning ayrim turlari korxonaga to'g'ridan-to'g'ri foiz va dividendlar ko'rinishida daromad keltirishga mo'ljallangan (*qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar*). Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar portfelini shakllantirish uchun ishlab chiqilayotgan siyosatning tarkibiy qismini vaqtincha bo'sh turgan pul qoldiqlari aktivlaridan majburiy foydalanish tashkil etadi.

7. Aktivlardan foydalanish jarayonlarida ularni yo'qotish xatarlarini kamaytirishni ta'minlash.

Aylanma aktivlarning barcha turlari yo'qotishlar xavfiga mahkum. Pul aktivlari sezilarli darajada inflyatsion yo'qotish riskiga uchrash ehtimoli mavjud; qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar – moliyaviy bozor konyunkturasi noqulay bo'lganligi sababli daromadning bir qismini yo'qotish xatariga, shuningdek inflyatsiyadan zarar ko'rish xatariga duchor bo'ladi; debitor qarzdorlik –

qaytarilmaslik yoki vaqtida qaytarmaslik xatariga, shuningdek inflyatsiyadan zarar ko'rish xatariga duchor bo'ladi; tovar-moddiy boyliklar zaxiralari – tabiiy kamayishdan zarar ko'rish xatari va h.k.larga duchor bo'ladi. Shuning uchun aylanma aktivlarni boshqarish siyosati, ayniqsa, inflyatsion omillarning ta'sir etish sharoitida, ularni yuqotishni kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

8. Aktivlarning ayrim turlarini moliyalashtirish tamoyillarini shakllantirish.

Aktivlarni moliyalashtirishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda, apital qiymati va tarkibiy tuzilishini belgilovchi, aylanma aktivlarning ayrim turlari va tarkibiy qismlarini moliyalashtirish tamoyillarini aniqlab olish lozim. Menejerlarning moliyaviy mentalitetiga bog'liq ravishda, shakllangan tamoyillar aylanma aktivlarni moliyalashtirishning keng diapazonli – o'ta konservativdan tortib, to o'ta tajovuzkorgacha bo'lgan yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

9. Aktivlarni moliyalashtirish manbalarining optimal tarkibini shakllantirish.

Aylanma aktivlarni moliyalashtirishning tanlangan tamoyiliga mos ravishda, kapital qiymatini baholashni hisobga olgan holda, moliyalashtirish manbalarining aniq tarkibiy tuzilishini tanlashga yondoshishlar shakllantiriladi.

Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati korxonada ishlab chiqilgan moliyaviy me'yorlarda o'z ifodasini topadi. Asosiy me'yorlar quyidagilar:

- korxonaning xususiy aylanma aktivlari me'yori;
- aylanma aktivlar asosiy turlarining aylanuvchanligi va operatsion siklning davomiyligi me'yorlari tizimi;
- aylanma aktivlarning likvidlik koeffitsientlari tizimi;
- aylanma aktivlarni moliyalashtirishning ayrim manbalari nisbatining me'yorlari.

Aylanma aktivlarning ayrim turlaridan foydalanishning maqsadi va xarakteri farqlidir, shuning uchun katta hajmdagi aylanma aktivlarga ega bo'lgan korxonalarda ularning alohida turlarini boshqarishning mustaqil siyosati ishlab chiqiladi, masalan: tovar-moddiy boyliklar zaxirasini boshqarish; debitor qarzdorlikni boshqarish; pul aktivlarini boshqarish.

Aylanma aktivlarning bu guruhlar uchun boshqaruv siyosati aniqlashtirilib, u korxona aylanma aktivlarini boshqarishning umumiy siyosatiga bo'ysunadi.

3.3. Aktivlarga bo'lgan talabni aniqlash va rejalashtirish

Tovar-moddiy qiymatliklari zaxirasini shakllantirish uchun moliyaviy mablag'larning zaruriy hajmi va ularga bo'lgan ehtiyojni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi, buning uchun ularni oldindan quyidagicha: ishlab chiqarish zaxiralari (xomashyo va materiallar zaxiralari) va tayyor mahsulot zaxiralariga guruhlaydilar.

Har bir turning ehtiyoji zaxira sifatida alohida aniqlanadi:

- joriy saqlash (*ishlab chiqarishda bir tekis iste'mol qilinadigan, doimo to'ldirib turiladigan zaxira qismi*);

- mavsumiy saqlash (*ishlab chiqarish va xomashyo sotib olish, shuningdek tayyor mahsulot iste'mol qilishning mavsumiy xususiyatlari munosabati bilan*);

- aniq maqsadga mo'ljallangan (*korxona faoliyatining ixtisosli maqsadlari bilan belgilanadi*).

Asosiy e'tibor joriy saqlash zaxiralariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga qaratiladi, chunki ko'pchilik korxonalarda ular tovar-moddiy boyliklar zaxirasining yagona turini ifodalaydi. Tovar-moddiy boyliklar zaxiralarini shakllantirishga avans sifatida ajratiladigan moliyaviy mablag'larning zaruriy hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:²²

$$MM_z = O'X \times M_z - KQ, \quad (13)$$

bu yerda, MV_z - zaxiraga avans sifatida ajratiladigan moliyaviy mablag'lar hajmi;

$O'X$ - zaxiralarning o'rtacha kunlik xarajati;

M_z - zaxiralarni saqlash me'yori kunlarda (*me'yorlar bo'lmaganda zaxiralarning kunlardagi o'rtacha aylanmasining ko'rsatkichi qo'llanishi mumkin*);

KQ - sotib olingan tovar-moddiy boyliklar uchun kreditor qarzning o'rtacha summasi (*faqat ishlab chiqarish zaxiralarini hisoblashda kiritiladi; mahsulot realizatsiya qilinganda faqat oldindan to'lash sharoitida kiritiladi*).

²² Финансовый менеджмент: Учебное пособие. /Под ред. проф. Е.И. Шохина. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004. С.242-243.

Hisoblashlar zaxiralarning har bir turi bo'yicha amalga oshiriladi. Hisob natijalarini qo'shish, zaxiralarni shakllantirishga avans sifatida ajratiladigan, moliyaviy resurslarga bo'lgan umumiy ehtiyoj ko'rsatkichini topish, ya'ni ishlab chiqarish –tijorat siklining bu bosqichiga xizmat ko'rsatayotgan aylanma aktivlarning miqdorini aniqlash imkonini beradi. Zaxiralarga xizmat ko'rsatish bo'yicha joriy xarajatlarni kamaytirish, ularni me'yorlashtirish jarayonida hal etiladigan optimizatsiyalash vazifasini ifodalaydi. Ishlab chiqarish zaxiralari uchun bu vazifa keltirilayotgan xomashyo va materiallar partiyasining optimal miqdorini aniqlashdan iborat. Partiya miqdori qanchalik katta bo'lsa, buyurtmalarni joylashtirish, tovarni keltirish va qabul qilish bo'yicha joriy xarajatlar miqdori shunchalik kam bo'ladi.

Biroq, yetkazib berish partiyasining katta miqdori zaxira o'rtacha miqdorining yuqoriligini belgilaydi: xomashyo ikki oyda bir marta sotib olinsa, u holda zaxiraning o'rtacha miqdori 30 kunni tashkil etadi, partiya miqdori ikki marta qisqartirilsa, ya'ni xom-ashyo bir oyda bir marta sotib olinsa, u holda zaxiraning o'rtacha miqdori 15 kunni tashkil etadi. Bunday sharoitda zaxiralarni saqlash bo'yicha joriy xarajatlar miqdori kamayadi.

3.4. Aylanma aktivlarning operatsion davrda aylanish xususiyatlari va bosqichlari

Korxona joriy aktivlarini boshqarishni o'z navbatida korxonaning aylanma mablag'larini boshqarish deb aytib o'tsak ham bo'ladi. Aylanma mablag'larni (aktivlarni) boshqarish. Korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga, uning mulkchilik shakli, xo'jalik-moliyaviy faoliyatining turi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qancha elementlar kiritiladi.

Korxona aylanma aktivlarini quyidagi xususiyatlariga ko'ra tasniflashimiz mumkin:

1. Aylanma mablag'larning turlarga ajratilishiga ko'ra:
 - xomashyo, material va yarim tayyor mahsulot zaxiralari;
 - tayyor mahsulot;
 - debitorlik qarzlari;

- pul mablagʻlari;
- boshqa turdagi aylanma mablagʻlar.

2. Joriy faoliyatda yoki ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga koʻra:

- ishlab chiqarish sikli jarayonida qatnashuvchi aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zaxiralari va boshqalar);
- korxonalarning moliyaviy siklida qatnashuvchi aylanma aktivlar (debitorlik qarzlari, pul mablagʻlari va boshqalar).

3. Aylanma mablagʻlarning tarkibida ishtirok etish (funksionirovaniya) muddatiga koʻra:

- aylanma aktivlarning oʻzgaruvchan tarkibi, yaʼni buning tarkibiga mavsumiy xarakterga ega boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi aktivlar tushuniladi, ushbu turdagi aylanma aktivlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining oʻzgarishiga mos ravishda oʻzgarib boradi;
- aylanma aktivlarning doimiy tarkibi, yaʼni ishlab chiqarish hajmining oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarga bogʻliq boʻlmagan, aktivlarning bir qismi.

4. Aylanma aktivlarning shakllanish manbalariga koʻra:

- yalpi aylanma aktivlar;
- sof aylanma aktivlar;
- oʻz aylanma aktivlari.

Aylanma aktivlarni boshqarishning eʼtiborli jihatida shundaki, ushbu jarayonda moliyaviy menejer kompaniyalarning ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikl xususiyatlari, ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklarni toʻgʻri va mukammal mushohada qilishidir. Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, firma va kompaniyalarning aylanma aktivlarning doiraviy aylanishi yoki yuqoridagi turli bosqich sikllari, kompaniyalarning dastlabki xomashyo mahsulotini sotib olgan davrdan toʻ tayyor mahsulotning realizatsiyasidan pul mablagʻlarini kelib tushishigacha boʻlgan barcha oraliq davriy jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish deyilganda, aylanma aktivlarni doiraviy aylanishining barcha bosqichlari yoki sikllaridagi jarayonlarni boshqarishni

tushunish mumkin. Aylanma aktivlarni boshqarish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikllarning mohiyati, ularning aylanma aktivlarni doiraviy aylanish jarayonida aynan qaysi bosqichida ishtirok etishi, ularning o'zaro bog'liqliklari kabi savollarga oydinlik kiritib olish lozim.

Korxonalarning ishlab chiqarish sikli, mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yoki bevosita ushbu jarayonda foydalaniladigan aylanma aktivlarning to'liq aylanishini, xomashyo, material va yarim tayyor mahsulotlarni korxonaga kelib tushgan davrdan boshlab, ularni tayyor mahsulot holatiga keltirishgacha bo'lgan davrni ifodalaydi. Korxonada ishlab chiqarish siklining davomiyligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$ITs = AD (xz) + AD (tich) + AD (tm) \quad (14)$$

bu yerda:

ITs – korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi (prodoljitelnost), kun hisobida; AD(xz) – xomashyo va material zaxiralarining aylanish davri, kun hisobida; AD(tich) – tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanish davri, kun hisobida; AD (tm) – tayyor mahsulotlarning aylanish davri, kun hisobida.

Moliyaviy sikl – bunda mahsulot yetkazib beruvchilarga olingan xomashyo, materiallar va boshqa turdagi aktivlar uchun to'lovlar amalga oshirilgan davrdan boshlab, realizatsiya qilingan yoki yuklab jo'natilgan tovar, mahsulotlar uchun pul mablag'larini kelib tushishgacha bo'lgan davr tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda moliyaviy sikl, korxonalarning pul mablag'larini to'liq aylanish davrini xarakterlaydi, bu jarayon korxonalar tomonidan kreditorlik qarzlarni to'lash davridan boshlab debitorlik qarzlarini undirib olingan davrni o'z ichiga oladi hamda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$MTs = ITs + AD (dq) - AD (kq) \quad (15)$$

bu yerda:

MTs – korxonalarda moliyaviy siklning (pulni aylanish sikli) davomiyligi, kun hisobida, ITs – korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kun hisobida; AD(dq) – debitorlik qarzlarini o'rtacha aylanish davri, kun hisobida;

AD (kq) – kreditorlik qarzlarini o‘rtacha aylanish davri, kun hisobida.

Operatsion sikl – korxonalarda aylanma aktivlarning umumiy summasini to‘liq aylanish davrini tavsiflaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$OTs = ITs + AD (dq) \quad (16)$$

bu yerda:

OTs – korxonalarda operatsion siklning davomiyligi, kun hisobida; AD(dq) – debitorlik qarzlarini aylanish davomiyligi, kun hisobida.

Korxonalarda operatsion sikl bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun unga zaruriy xomashyo, material va boshqa turdagi foydalaniladigan aktivlarni sotib olingan kundan boshlab uni realizatsiyasidan pul mablag‘larni real kelib tushish oralig‘idagi davrni va jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi keltirilgan formulalardan shu narsani aytish mumkinki, korxonalarda moliyaviy va operatsion sikllarning qisqartirilishi, moliyaviy resurslarni boshqarishning ijobiy tendensiyalar bilan rivojlanishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri sanaladi hamda ushbu natijalarga erishishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, (bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish);

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni omborlarda uzoq saqlanib qolishini oldini olish, marketing siyosatini to‘g‘ri tashkil qilgan holda mahsulotlarni iste‘molchilarga sifatli va o‘z vaqtida yetib borishini ta‘minlash;

- debitorlik qarzlarini aylanish davrini tezlashtirish, ya‘ni realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlar uchun pul mablag‘larini o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta‘minlash va buning hisobiga ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirish;

- kreditorlik qarzlarini aylanishini sekinlashtirish, moliyaviy menejer tomonidan bu turdagi ishlarni amalga oshirishda yanada ko‘proq mas‘uliyat bilan harakat qilishni talab qiladi, chunki kreditorlik qarzlar ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lib ketishi korxonaning moliyaviy natijalariga va barqarorlik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati korxonalar moliyaviy strategiyasining muhim qismi sanalib, bu siyosatning asosiy maqsadi korxonalarda yyetarli miqdorda aylanma aktivlarni hajmi va tarkibini shakllantirish, hamda ularni moliyalashtirish manbalari tizimini optimallashtirishdan iborat.

Korxonalarda aylanma aktivlarni boshqarish siyosati quyidagi tartibda (ketma-ketlikda) amalga oshiriladi.

1. Korxona aylanma aktivlarining tahlili. Bu jarayonda aylanma aktivlarning barcha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning avvalgi yillarga nisbatan o'sish darajalari, tarkibiy o'zgarishlari, rentabellik ko'rsatkichlari va shu kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

2. Aylanma aktivlarni tashkil qilish yoki shakllantirishni eng maqbul turini tanlash. Korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishni uch xil yondashuvi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- konservativ yondashuv, korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishning bu turdagi yondashuvida, korxonalar joriy faoliyatini normal amalga oshirilishini ta'minlovchi aylanma aktivlarning miqdori belgilanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun ko'p miqdorda zaxiralar tashkil qilinadi;

- o'rtamiyona yondashuv, bunda, korxonalarning joriy faoliyatida aylanma aktivlarga bo'lgan talabi ta'minlanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun normal miqdorda zaxiralar tashkil qilinadi.

- agressiv yondashuv, bunda, korxonalarning joriy faoliyatni to'xtovsiz amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirib borish uchun, aylanma aktivlarning yyetarli miqdori belgilanadi va ko'zda tutilmagan holatlar uchun minimal darajada zaxiralar tashkil qilinadi.

3. Aylanma aktivlarning miqdorini optimallashtirish.

4. Korxonalar moliyaviy barqarorligini takomillashtirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash maqsadida, aylanma aktivlarning likvidlilik darajalarini shunga mos holda oshirib borishni ta'minlash.

5. Korxonalarda belgilangan rivojlantirish dasturlarning ijrosini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan miqdorda, aktivlardan foydalanishning rentabellik darajasini ta'minlash.

6. Aylanma aktivlardan foydalanish jarayonida ularning yo'qotilishi yoki shikast yetishi kabi holatlar yuz berishini minimallashtirish va oldini olish uchun sharoitlar yaratish.

7. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalarini optimal tizimini shakllantirish.

Kompaniyalarda ayrim turdagi aylanma aktivlardan foydalanish, ma'lum bir xususiyatlarga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda kompaniyalar ushbu turdagi asosiy aylanma aktivlardan foydalanishda aniq bir chora-tadbirlar dasturi yoki tegishli tarzda aylanma aktivlardan foydalanish siyosatini ishlab chiqadilar, ushbu turdagi aylanma aktivlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- a) tovar moddiy zaxiralari;
- b) debitorlik qarzlari;
- v) pul mablag'lari.

3.5. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari aktivlarning doiraviy aylanishi xususiyatlari va bosqichlari

Korxonaning asosiy vositalari deb, ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, o'zining qiymatini mahsulot qiymatiga o'tkazib boruvchi aktivlarga aytiladi. Asosiy vositalarning miqdorini pulda ifodalash uchun asosiy fondlar atamasidan ham foydalaniladi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qiladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxona asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxona balansida turuvchi

turar joy, oshxona, qozonxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yasilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Asosiy vositalarni sotib olish, qurish, ishlab chiqarish yoki holatini yaxshilash to'g'ridan to'g'ri xarajatlarni, jumladan, undan maqsadli foydalanish uchun zarur bo'lgan o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati - bu asosiy vositalarni yaratish (qurish va qayta qurish) yoki sotib olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymati bo'lib, jumladan to'langan va qayta qoplanmaydigan soliqlar va yig'imlar, shunindek tashib keltirish va montaj qilish, o'rnatish va foydalanishga topshirish bo'yicha xarajatlarni va aktivni tayyor holga keltirish bo'yicha boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati davriy ravishda qayta baholanadi.

Qayta baholash natijasidan keyingi asosiy vositalar qiymati tiklash qiymati deb ataladi. Ma'lum sanada amal qilaetgan bozor baholari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati joriy qiymat deb ataladi. Qoldiq qiymat - asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati yoki joriy qiymatidan to'plangan amortizatsiya summasini ayirib aniqlangan qiymatdir. Tugatish qiymati - bu asosiy vositalarni tugatishda paydo bo'ladigan daromaddan tutish (ekspluatatsiya) xarajatlarini ayirgandan keyingi qiymatdir.

Asosiy vositalarning eskirishi va eskirgan qiymatning xarajatlar tarkibiga kiritilishi asosiy vositalarning amortizatsiyasida ifodalanadi.

Asosiy vositalarning dastlabki qiymati inflyatsiyani va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda vaqti-vaqti bilan qayta baholanishi mumkin. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi borasidagi qonunchiligiga binoan asosiy vositalar har yili qayta baholab boriladi.

Asosiy fondlarni qayta baholashda Adliya vazirligida 2002-yil 4-dekabrda 1192-son bilan ro'yxatdan o'tgan «1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» gi Nizomga amal qilinadi.

1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholash oldingi qayta baholash natijasida olingan obyektlarning dastlabki (tiklash) qiymatidan, yil davomida kelib tushgan asosiy fondlar bo'yicha esa xarid qilish qiymatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

2002-yildan boshlab mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar 1-yanvar holatiga o'zlarining asosiy vositalarini yillik qayta baholashga majburlar. Mazkur qoida Vazirlar Maxkamasining 2001-yil 31-dekabrda 2002-yilgi «O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida» 490-son qarori bilan qonunlashtirilgan.

«1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizom asosiy vositalar qiymatini qayta hisoblashning ikkita usulini nazarda tutadi:

- 1-yanvarga shakllangan, baholanayotganlariga aynan o'xshash bo'lgan, yangi obyektlarga hujjatlar asosida tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha obyektlar qiymatini bevosita qayta baholash;

- asosiy fondlar turlari bo'yicha va ularning xarid qilish davrlariga bog'liqlikda tabaqalangan asosiy fondlar qiymatini o'zgartirish indekslarini qo'llagan holda ayrim obyektlarning dastlabki (tiklanish) qiymatini indekslash.

Xo'jalik qonunchiligida nomoddiy aktivlar deb yuridik huquqlar, shu jumladan mulk huquqi bilan bog'liq bo'lgan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan xo'jalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish uchun foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek uzoq vaqt (bir yildan ko'p) ishlatish uchun mo'ljallangan mol-mulk obyektlari tan olinadi.

Shunga ko'ra quyidagi sifatlarga ega bo'lgan aktivlar nomoddiy aktiv deb ataladi:

- moddiy-ashyoviy ko'rinishga ega bo'lmasiligi;

-nomoddiy aktivning kelajakda korxonaga iqtisodiy naf (daromad) keltirishga qodirligi;

- uzoq vaqt, 12 oydan ko'p ishlatilishi. (korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida foydalanish muddati 12 oydan kam bo'lgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilishi mumkin emas);

- korxona ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni rejalashtirmaydi;

- mahsulot ishlab chiqarishda yoki korxonaning boshqaruv ehtiyojida foydalanish. Nomoddiy aktivlardan mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish jaraenida foydalanish isboti bo'lib texnologik hujjatlar, smetalar, ushbu nomoddiy aktivlar bilan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirilganligini qayd etadigan boshqa hisob hujjatlari xizmat qilishi mumkin;

- korxonaning boshqa mulkidan identifikatsiya (ajratish, bulish) qilish mumkinligi. Bir hisob obyektining boshqasidan identifikatsiya qilinishining asosiy belgisi uning mahsulot ishlab chiqarishda, ish bajarishda yoki korxonaning boshqaruv ehtiyojlari uchun mustaqil vazifalarni bajarishda ifodalanadi;

-aktivning o'zining mavjudligini tasdiqlovchi rasmiylashtirilgan hujjatlar va korxonada intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqning (patentlar, litsenziyalar, guvohnomalar, boshqa himoyalov hujjatlari) mavjudligi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida nomoddiy aktivlarning turli xillari mavjud bo'ladi. Ko'pincha ularning ikki guruhini farqlaydilar:

- intellektual mulk obyektlari;

- boshqa nomoddiy aktivlar.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi. Masalan, mashina va

asbob-uskunalar ni kapital ta'mirlashda ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi.

Uskunalar ni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat ta'mirlash sikli deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

O'rtacha ta'mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra, kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta'mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalar ni foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Qisqacha xulosalar

Korxona aktivlari - asosiy aktivlarga (o'zgarmas, doimiy – er, binolar, inshootlar, qurilmalar, nomoddiy aktivlar, boshqa asosiy vositalar va xarajatlar) va aylanma aktivlarga (joriy, ya'ni balansning qolgan barcha aktivlariga) bo'linadi. Tez-tez uchrab turadigan «aylanma vositalar» tushunchasi, odatda aylanma aktivlarning pul qiymatini anglatadi. Aylanma aktivlarning o'zi esa tasniflanishda natural shaklga ega buladi. Korxonaning aylanma aktivlarini boshqarish siyosati asosiy bosqichlar bo'yicha ishlab chiqiladi. Tovar-moddiy qiymatliklari zaxirasini shakllantirish uchun moliyaviy mablag'larning zaruriy hajmi va ularga bo'lgan ehtiyojni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Debitor qarzdorlik deganda mijozlarning (*debitorlarning*) korxonaga tovar va xizmatlar uchun pul to'lash majburiyati tushuniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxona aktivlari qanday aktivlarga bo'linadi?
2. Aylanma vositalarga nimalar kiradi?
3. Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati qanday bosqichlardan tashkil topadi?
4. Tovar-moddiy qiymatliklari zaxirasi qanday guruhlar ga bo'linadi?

5. Debitor qarzdorlik nima?
6. Debitor qarzdorlik darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Pul aktivlariga bo'lgan eng kam darajadagi zaruriy ehtiyoj qanday aniqlanadi?
8. Pul aktivlari aylanmasining tezlashishi nimalar hisobiga amalga oshiriladi?

4-bob.

KORXONA KAPITALINI BOSHQARISH

4.1. Korxonaning kapitali tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy xolatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Negaki, uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baxo beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Xususiy kapital tushunchasi O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos (ro'yxat raqami 475, 1998-yil 14-avgust) va O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) «Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar» (ro'yxat raqami 474-son, 1998-yil 14-avgust) da keltirilgan.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning manzilli qismida hisobot sanasi, xo'jalik yurituvchi subyektning nomi, tarmog'i, mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy shakli va to'liq yuridik manzili, xo'jalik yurituvchi subyekt uning egaligida bo'lgan organning nomi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tayyorlash vaqtida foydalanilgan o'lchov birligi ko'rsatilishi lozim.

Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to'g'risida, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan xususiy aksiyalar va boshqa xususiy kapital elementlari to'g'risidagi axborot yoritib berilishi lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot xususiy kapital to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan tegishli axborotni yoritib berishi kerak. Hisobotda

hisobot davridagi xususiy kapital tarkibida bo'lgan o'zgarishlar haqidagi axborot yoritib berilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar to'g'risidagi axborotlarni yoritib berish kerak: qimmatli qog'ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirishdagi valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko'rinishida to'lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda quyidagilar to'g'risidagi axborot ham yoritib berilishi kerak: chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni. Ikki hisobot davri o'rtasida xususiy kapital tarkibidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobotlarda qabul qilingan va yoritib beriladigan baholashning aniq prinsipidan kelib chiqqan holda hisobot davri davomidagi sof aktivlarning ko'payishi yoki kamayishini aks ettiradi.

Mazkur standartda sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo'lgan mol-mulk qiymati tushuniladi.

Korxona, tashkilot va firmalarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'z mablag'lar manbai;
- qarz mablag'lari.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz korxonalarni mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib kelmoqda.

Korxona, tashkilot yoki firma ochilish davrida uz mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni qaysi manbaa hisobiga qoplash kerakligi ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lsa o'z mablag'lar manbai hisobiga, aks xolda esa, qarz mablag'lari hisobiga qoplaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xar bir korxona o'z moliyaviy ehtiyojlarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmatbaxo qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay

va boshqa to'lovlari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari hamda qonundan tashqari bo'lmagan xolda kiritilgan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxona tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Xususiy kapital hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudratini qay darajada ekanligini bildiradi.

Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bulgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokazolar kiradi.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbai bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv l-bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda, tahlil ishlari olib boriladi.

4.2. Xususiy kapital tarkibi

Xususiy kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;
- xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischi tomonidan kuyilgan pay to'lovlarini, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi.

Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischi tomonidan yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda ko‘llanilayotgan qonunlarga ko‘ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko‘rsatilgan tartibda mablag‘ chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

1. Ko‘rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo‘lsa imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to‘lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda — bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko‘rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi.

Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsientlar usuli eng ilg‘or metodlardan hisoblanib, bizning o‘rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsientlar o‘rganiladi va ularni shartli ravishda to‘rtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsientlari.
2. Likvidlik koeffitsientlari.
3. To‘lov qobiliyati koeffitsientlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko‘rsatkichlar ham uz tarkibiga bir qancha koeffitsientlarni oladi. Demak, birinchi ko‘rsatkich tarkibiga:

- xususiy kapital rentabelligi;
- korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi;
- leveridj;
- sotish rentabelligi.

Likvidlilik koeffitsientlariga:

- a) tez likvidlanadigan koeffitsientlar;
- b) debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti;

v) ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi koeffitsienti;

g) qiyin likvidlanish koeffitsienti.

To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsientlarga quyidagilar kiradi:

— qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsienti;

— xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsienti;

— qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summolari o'rganiladi.

Bu koeffitsientlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsientlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapital hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda kiymati o'rganiladi. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarining yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaniladi.

Leveradj xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsienti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsienti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxona xususiy kapitalining shunchalik o'sganligini bildiradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsienti. Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbaiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi. Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsient yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A_1 > A_2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsienti Xususiy kapital qiymatini Jami mablag'larga nisbati formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsient qanchalik birga yaqinlashib borsa, korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi.

4.3.

Kapital qiymati va uni baholash tamoyillari

Kapital - tabiiy va mehnat resurslari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning muhim omillaridan hisoblanadi. Kapital – ishlab chiqarishdan foyda olish maqsadida kiritilgan avanslashgan qiymat.

Korxona kapitali uzoq va qisqa muddatli xarakterdagi moliyalashtirish manbalari hisobidan shakllanadi. Bu manbalarni jalb etish korxona uchun muayyan xarajatlarni talab etadi. Korxona kapitali hajmiga nisbatan foizlarda aks etgan bunday xarajatlar majmuasi *korxona kapitali qiymati (bahosi)*ni oʻzida mujassamlashtiradi.

Kapital qiymati konsepsiyasi moliyaviy menejmentning asosiy nazariyalaridan biri hisoblanadi. Kapital qiymati - korxonani yuqori bozor qiymatini taʼminlashda zarur boʻlgan investitsiyalangan kapitalning rentabellik darajasini ifodalaydi. Korxona bozor qiymatini maksimallashtirish aktivlarni shakllantirishda foydalaniladigan manbalar qiymatini minimallashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Korxonaning kapital qiymati koʻrsatkichi korxona investitsion loyihalari samaradorligini va investitsion portfelini baholash jarayonida foydalaniladi.

Moliyaviy menejmentda qabul qilingan koʻpgina qarorlar (aylanma aktivlarni moliyalashtirish siyosatini shakllantirish, lizingdan foydalanish boʻyicha qarorlar qabul qilish, foydani rejalashtirish va boshqalar) korxona kapitali qiymatining tahlillariga tayanadi.

Korxona kapitali bahosi koʻpgina *omillar* taʼsiri ostida shakllanadi. Ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy muhitning umumiy holati, shu jumladan, moliyaviy bozor;
- tovarlar bozori konʼyunkturasi;
- ssuda foizlarinig oʻrtacha stavkasi;
- muayyan korxona uchun turli xildagi moliyalashtirish manbalarining maqbulligi;
- korxona tezkor faoliyatining rentabelligi;
 - tezkor leveridj darajasi;
 - oʻz kapitalining kontsentratsiya darajasi;

- tezkor va investitsion faoliyat hajmlarining nisbati;
- amalga oshirilayotgan faoliyatlarning riskli darajasi;
- korxona faoliyatining tarmoq xususiyatlari, shu jumladan, ishlab chiqarish va tezkor sikllarning muddatlari.

Korxona kapitali qiymatini aniqlash bir necha *bosqichlarda* amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich, korxona kapitali shakllanishining manbalari hisoblangan asosiy komponentlarni identifikatsiyalashni amalga oshirish.

Ikkinchi bosqichda, alohida har bir manba bahosi hisob-kitob qilinadi.

Uchinchi bosqichda, investitsiyalangan kapitalning umumiy summasidagi har bir komponentning salmog'iga asosan kapitalning o'rtacha bahosi aniqlanadi.

To'rtinchi bosqichda, kapitalning tarkibiy tuzilishi va uning maqsadli shakllanishi bo'yicha optimal tadbirlar ishlab chiqiladi.

Moliyalashtirish manbalarini tavsiflovchi balans passiv qismining tarkibiy tuzilishi tahlili quyidagilar hisoblanadi:

- o'z moliyalashtirish manbalari – nizom kapitali, o'z mablag'lari fondi, taqsimlanmagan foyda;
- qarz mablag'lari – bank ssudalari (uzoq va qisqa muddatli), obligatsiya zayomlari;
- vaqtincha jalb qilingan mablag'lar – kreditor qarzarlar.

Kapital tarkibi uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan xususiy va zayom vositalarining nisbatini anglatadi. Kapital tarkibi korxona faoliyatining ko'pgina jihatlarini belgilaydi va uning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kapital tarkibini boshqarish moliyaviy menejmentning eng muhim va murkkab vazifalaridan biri hisoblanadi. U xususiy va zayom manbalarining shunday optimal nisbatini aks ettiruvchi, kapitalning aralash tarkibini tuzishdan iboratki, unda umumiy kapital xarajatlar minimallashtirilib, korxonaning bozor qiymati maksimallashtiriladi.

4.4. Kapital tarkibi va korxonaning bozor bahosi

Kapital tarkibi korxonaning bozor bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harakatdagi korxonaning bozor bahosi uning kelgusidagi pul oqimlarini baholash bilan aniqlanadi. Hisoblash daromadlilik darajasiga asoslangan diskontlash stavkasini tanlash va kutilayotgan riskni baholash bilan bog'liq.

Korxonaning bozor bahosini aniqlash bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda kompaniyaning uzoq muddatga joriy daromadining kutilayotgan qiymati bashoratlanadi. Korxonaning joriy daromadi- foizlar to'languniga qadar, lekin soliqlar to'langanidan keyingi daromad. Bu bilan pul oqimlarining korxona joriy faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibiga bog'liq bo'lmasligiga erishiladi. So'ng joriy daromad hisobdan chiqarilgan asosiy kapital va nomoddiy aktivlarning yedirilish qiymati va qoldirilgan soliqlar summasiga ko'paytiriladi, shuningdek pul oqimlarida aks ettirilmagan boshqa elementlar hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash va korxona daromadining joriy darajasini ushlab turish uchun zarur bo'lgan kelgusidagi kapital xarajatlarning umumiy qiymati aniqlanadi. Ularga mashina va uskunalar sotib olish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, aylanma kapitalni oshirish xarajatlari kiradi. Natijada korxonaning bozor bahosini baholashda qo'llanadigan, korxona sof pul oqimlari olinadi.

Sof pul oqimlari korxona ixtiyorida bo'lgan va korxona investorlar oldida o'z majburiyatlarini bajarishda (foizlar, dividendlarni to'lashga, qarzni to'lash va o'z aksiyalarini sotib olishga) ishlata oladigan kapitalni ifodalaydi.

Kompaniyaning bozor bahosi (V) bo'yicha sof pul oqimlari summasini daromadlilikning ma'qul stavkasi bo'yicha diskontlash natijasida olingan sof joriy narxga teng:

$$V = \sum_{t=1}^n D_t : (1 + r)^t \quad (17)$$

bu erda, D - yillik sof pul oqimlari;

r - daromadlilik stavkasi;

t - yillar soni.

Agar korxona daromadlari bir necha yil davomida taxminan bir xil, faoliyat muddati esa ma'lum yillar soni bilan cheklanmagan, deb tasavvur qilsak, u holda formula soddalashadi:

$$V = D : r . \quad (18)$$

Bu yerda daromad sifatida foizlar to'languniga qadar bo'lgan, daromad solig'i va boshqa daromaddan majburiy to'lovlar qiymatiga kamaytirilgan foyda ko'rsatkichi ishtirok etadi.

Daromadlilikning ma'qul stavkasi sifatida kapitalning o'rtacha chamalangan qiymati (W) ishlatiladi. Bu korxona har yil, aksionerlarga dividend to'lovlari va kreditorlarga foizlar kiradigan, kapitalning shakllanish manbalariga xizmat ko'rsatishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladigan, bir xil darajadagi daromad oladi degani. Shunday qilib, korxonaning joriy bozor bahosi (V) quyidagi formula bo'yicha topilishi mumkin:

$$V = EBIT(1 - T) : W , \quad (19)$$

bu yerda, $EBIT(1 - T)$ - korxonaning soliq to'langandan keyin, lekin foizlar to'lanishidan oldingi sof daromadi; W - kapitalning o'rtacha chamalangan bahosi.

Sof daromad xususiy va zayom kapitalga xizmat ko'rsatishga sarflangan vositalarning umumiy summasini ifodalaydi. Bu xarajatlarning manbai foiz va soliqlarni to'lashdan oldingi korxona daromadining daromad solig'i va daromaddan olinadigan boshqa majburiy to'lovlar summasiga kamaytirilgan qiymati.

Korxona daromadi avval zayom vositalardan foydalangani uchun foizlarni to'lashga, keyin esa - korxona aksiyalari egalariga dividendlar to'lashga qaratiladi. Taqsimlanmagan daromadning qolgan qismi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga, ya'ni reinvestitsiyalashga sarflanadi.

Bundan korxonaning bozor bahosi ikkita omilning ta'siriga: sof daromad qiymati va kapitalning o'rtacha chamalangan bahosiga bog'liqligi kelib chiqadi. Shunday qilib, korxonaning bozor bahosi maksimal bo'lishi uchun sof daromad

qiymati eng katta, kapitalning oʻrtacha chamalangan bahosi esa eng kichik boʻlishi lozim.

Kapitalning oʻrtacha chamalangan bahosini minimallashtirishga turli modelarni, shu jumladan Modilyani-Miller va kompromiss modellarni qoʻllash negizida, uni shakllantirish manbalari tarkibini optimallashtirish yoʻli bilan erishiladi. Bunda, korxona uchun moliyaviy xatar chegarasini belgilovchi, moliyaviy richag samarasi hisobga olinadi.

Korxona vositalari manbalarining ratsional tarkibini shakllantirishning asosiy maqsadi xususiy va zayom vositalar oʻrtasida korxona aksiyasining eng katta nisbatdagi bahosini oʻrnatish. Bunga moliyaviy richag darajasi yetarlicha yuqori boʻlganda erishish mumkin. Bunda qarzdorlik qiymati korxonaning aksionerlari va potentsial investorlari uchun uning barqarorligini ifodalaydi. Agar kapital tarkibida zayom vositalarning nisbiy vazni katta boʻlsa, u holda moliyaviy xatar darajasi ham ortadi. Agar korxona faqat xususiy vositalardan foydalansa, ularning rentabellik darajasi aksionerlarga katta dividendlar toʻlashga imkon bermaydi, bu esa aksiya bahosini va korxonaning bozor bahosini pasaytiradi.

Qisqacha xulosalar

Kapital - tabiiy va mehnat resurslari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning muhim omillaridan hisoblanadi. Kapital–ishlab chiqarishdan foyda olish maqsadida kiritilgan avanslashgan qiymat. Korxona kapitali uzoq va qisqa muddatli xarakterdagi moliyalashtirish manbalari hisobidan shakllanadi. Bu manbalarni jalb etish korxona uchun muayyan xarajatlarni talab etadi. Korxona kapitali hajmiga nisbatan foizlarda aks etgan bunday xarajatlar majmuasi *korxona kapitali qiymati* (bahosi)ni oʻzida mujassamlashtiradi. Biroq, kapitalning oʻrtacha bahosini hisoblashning asosiy maqsadi faqat yuzaga kelgan holatni baholashdan iborat emas, balki endi jalb qilinayotgan pul birligining qiymatini aniqlash va bu qiymatni kapital mablagʻlari budjetini tuzishda diskontlash koeffitsienti sifatida qoʻllashdan ham iborat. Kapital tarkibi uzoq muddatli xarakterga ega boʻlgan xususiy va zayom vositalarining nisbatini anglatadi. Kapital tarkibini boshqarish moliyaviy menejmentning eng

muhim va murakkab vazifalaridan biri hisoblanadi. U xususiy va zayom manbalarining shunday optimal nisbatini aks ettiruvchi, kapitalning aralash tarkibini tuzishdan iboratki, unda umumiy kapital xarajatlar minimallashtirilib, korxonaning bozor qiymati maksimallashtiriladi. Kapital tarkibi korxonaning bozor bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harakatdagi korxonaning bozor bahosi uning kelgusidagi pul oqimlarini baholash bilan aniqlanadi. Hisoblash daromadlilik darajasiga asoslangan diskontlash stavkasini tanlash va kutilayotgan riskni baholash bilan bog'liq.

Nazorat savollari

1. Korxona kapitali bahosi deganda nimani tushunasiz?
2. Korxona kapitali bahosi qanday omillar ta'siri ostida shakllanadi?
3. Korxona kapitali qiymatini aniqlash qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
4. Kapital bahosini aniqlash uchun qanday manbalar muhim hisoblanadi?
5. Aksionerlik kapitalining bahosini aniqlashning uchta usuli mavjud va ular qaysilar?
6. Kapital tarkibi qanday tushunchani anglatadi?

5-bob. KORXONA INVESTITSİYALARINI BOSHQARISH

5.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va turlari

Korxonalarining investitsiya faoliyatini tavsiflovchi asosiy tushunchalarni aniqlab olamiz. «Investitsiyalar» atamasi lotin tilidagi «invest» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, pul sarf qilmoq, qoʻymoq maʼnosini anglatadi. Kengroq talqinda u yanada oʻstirish maqsadida kapital kiritishni anglatadi. Investitsiyalash natijasida olingan kapitalning oʻsishi investorning mavjud mablagʻlardan joriy davrda foydalanishdan voz kechishining oʻrnini qoplash, uni risk uchun mukofotlash va kelajakda inflyatsiya yoʻqotishlarini kompensatsiyalash uchun yetarli boʻlishi lozim.

Investitsiyalar tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yoʻnaltiriladigan, natijada foyda (daromad) shakllanadigan yoki boshqacha foydali samara olinadigan barcha mulkiy va intellektual qimmatliklar turlarini ifodalaydi.

Iqtisodiy toifa sifatida investitsiyalar quyidagilarni tavsiflaydi:

- Birlamchi boʻnak qiymatini oʻstirish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obektlariga kapital kiritish;
- Investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida investitsion faoliyat qatnashchilari (quruvchilar, pudratchilar, banklar, davlat va hokazolar) oʻrtasida vujudga keluvchi pul munosabatlari.

Korxonalar aktivlariga kiritiluvchi investitsiyalar buxgalteriya balansining chap tomonida, ularni moliyalashtirish manbalari esa oʻng tomonda (balans passivida) aks ettiriladi. Ular kapital, nomoddiy, aylanma va moliya aktivlariga yoʻnaltiriladi. Bulardan oxirgisi uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar shaklida namoyon boʻladi.

Asosiy kapitalga (asosiy vositalarga) investitsiyalar kapital qoʻyilmalar shaklida amalga oshiriladi; ular yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarni kengaytirish, qayta taʼmirlash va texnik jihatdan qayta jihozlash, yangi asbob-uskunalar, vositalar va inventarlar xarid qilish, loyiha mahsulotlari uchun va boshqa kapital xarakterdagi xarajatlarni qamrab oladi. Iqtisodiyot fani va amaliyotning

tasdiqlashicha, kapital qo'yilmalar investitsiyalarning sinonim hisoblanmaydi va bu atamalar bir xil ma'noni anglatmaydi. Investitsiyalar kapital qo'yimlarga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. /arb mamlakatlari adabiyotlarida fond bozorlarini ko'rib chiqishga asosiy e'tibor qaratiladi, chunki bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya) investitsiyalash qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiyalashning asosini iqtisodiyotning real sektoriga qo'yilmalar, ya'ni mulkchilik shakli har xil bo'lgan korxonalar asosiy va aylanma kapitaliga qo'yilmalar tashkil etadi. Investitsiyalar bozori muvozanatlangan narxlar bo'yicha investitsion tovarlar oldi-sotdisi bo'lib o'tadigan sohani sohani ifodalaydi. Investitsion tovarlar shaklida namoyon bo'luvchi investitsiyalar quyidagilar hisoblanadi:

1.Ko'char va ko'chmas mulk.

2.Pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yimlari, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar.

3.Mualliflik huquqi, litsenziyalar, patentlar, nou-xau, EHM uchun dasturiy mahsulotlar va boshqalardan kelib chiqadigan mulkiy huquqlar.

4.Yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqi.

Kapital qo'yilmalar shaklida amlaga oshiriladigan investitsiya faoliyati subyektlari investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo'yilmalar obyektlaridan foydalanuvchilar va boshqa shaxslar hisoblanadi.

Investorlar kapital qo'yimlarni mamlakat hududida o'zlarining mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga amalga oshiradilar. Investorlar yuridik shaxslar va qo'shma faoliyat to'g'risida shartnoma asosida tashkil qilingan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar birlashmalari, davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari, shuningdek, xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Investitsiya faoliyati subyektlari davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qo'yiluvchi talablarga rioya qilishlari, shuningdek, kapital qo'yilmalar mablag'laridan maqsadli foydalanishlari lozim.

Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) resurslarni kapital xarajatlarga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni investitsiya faoliyatining muayyan obyektlariga aylantirish jarayoni (investitsiyalashning o'zi);

2) kiritilgan mablag'larni kapital qiymatning o'sishiga aylantirish, bu investitsiyalarning yakuniy iste'moli va yangi iste'mol qiymati (binolar, qurilmalar va hokazolar) olishni anglatadi;

3) kapital qiymatning foyda shaklida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, boshlang'ich va yakuniy zanjir bo'g'inlari birlashib, yangi o'zaro aloqani hosil qiladi: daromad—resurslar—yakuniy natija (samara), ya'ni jamg'ariy jarayoni takrorlanadi.

Investitsiyalashning maqsadi va kapitalning o'sish manbasi loyihalarni amalga oshirishdan olinadigan foyda (daromad) hisoblanadi.

Investitsiyalarning o'sish sur'ati bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar hajmi avvalo, olingan daromadni iste'mol qilish va jamg'arishga taqsimlashga bog'liq. Aholi o'rtacha kishi boshiga to'g'ri keluvchi daromad past bo'lgan sharoitlarda ularning asosiy ulushi (70-80%) iste'mol uchun sarflanadi. Fuqarolar daromadlarining o'sishi investitsion resurslar manbasi hisoblangan jamg'armalarga yo'naltiriluvchi ulushning o'sishiga olib keladi. Demak, umumiy daromad tarkibida jamg'armalar ulushinnig o'sishi investitsiyalar hajmining o'sishiga olib keladi va aksincha. Biroq bu shart fuqarolarning davlatga ishonchi yuqori bo'lgan holatlarda amal qiladi, bu ularning investitsion faolligini kafolatlashi lozim. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromadlilik me'yori ta'sir ko'rsatadi, chunki foyda ular uchun asosiy undovchi motiv bo'lib xizmat qiladi. Kutilayotgan foyda me'yori qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalar hajmi ham shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida nafaqat o'z mablag'laridan, balki qarzga olingan mablag'lardan ham foydalanish mumkin. Agar kutilayotgan sof foyda me'yori ssuda foizi o'rtacha stavkasidan katta bo'lsa, bunday qo'yilmalar investor uchun foydali bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasining o'sishi mamlakat iqtisodiyotiga

investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib keladi. bu holatda davlat pulning kredit emissiyasini cheklash hisobiga muomalada bo'lgan pul massasini qisqartirish maqsadida restriksion siyosatni yuritadi. Kredit hisobiga o'rtacha foiz stavkasi pasayishida davlat investitsion tovarlar taklifi va ularga talabni o'stirish vositasida investitsion faollikni rag'batlantiradi.

Shuningdek, investitsiyalar hajmiga taxmin qilinayotgan inflyatsiya sur'ati ham ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, investorning kelajakdagi foydasi shunchalik bahosizlanadi va investitsiyalar hajmini oshirishga bo'lgan stimullar kamroq bo'ladi (ayniqsa, uzoq muddatli investitsiyalash jarayonida).

Shu sababli investitsiya loyihalari biznes-rejasini ishlab chiqishda ko'rsatilgan omillar korxonaning investitsion portfeliga kiritish maqsadida ular jalb etuvchanligini baholash uchun hisobga olinishi zarur.

5.2. Investitsion muhit, uning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi shuningdek, olib borilayotgan investitsion faollikning o'sish sur'atlari investitsion muhitga bog'liq bo'ladi.

Investitsion muhit investitsion resurslarni joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Qulay investitsion muhit mamlakatga kapital olib kelishni rag'batlantiradi, investorlar faoliyati faolligi ko'tarilishiga xizmat qiladi aksincha, investitsion muhit ma'qul bo'lmasa, kapital chiqib ketadi, investitsion faoliyat so'na boshlaydi. Qayerdagi qulay investitsion muhit mavjud ekan o'sha tomonga investitsiyalar oqimi tezlashadi. Darhaqiqat, investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchdir.

Investitsion muhit mavhum tushuncha bo'lib, uning muayyanligini investitsion faoliyatni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi.

Investitsiya iqlimi tushunchasi iqtisodiyotda yangi emas, ammo, mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi.²³

Qulay investitsion muhit yaratishning muhim tashkil etuvchilaridan biri huquqiy-me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va shuningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim.

Sodda qilib, e'tirof etganda ingvestitsion muhit- investitsion munosabatlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir.

Investitsion muhitni yaxshilashdan maqsad investitsion salohiyatni oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsion faoliyatni jadallashtirish va provardida iqtisodiyot yuksalishi, ijtimoiy muammolar hal etilishi, ishlab chiqarish samaradorligi ortishidir.

Investitsion muhit - muayyan mamlakatga (yoki hududga) investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi.


Hududiy investitsion muhitni yaxshilashda ustuvor ishlab chiqarishga asoslangan korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularning investitsion faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash lozim. Bu esa mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini va bino-inshootlarni imtiyozli narxlarda sotish, investitsion kredit, soliq va o'zaro qarzlarni restrukturizatsiya qilish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, investorlarni qonunchilik yo'li bilan himoya qilish,

²³ G'ozibekov D.G., Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. -T., 2003. 46-bet.

ularni investitsion dasturlarga kiritish, budget mablag'larini jalb qilish kabilar ham katta ahamiyatga ega.

5.3. Qulay investitsion muhit yaratish shartlari

Investitsion faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini ifodalovchi investitsion muhitning quyidagi tashkil etuvchilarining tavsifini keltiramiz.



8-rasm. Investitsion muhitni shakllantirish²⁴

Uning asosiy tashkil etuvchilari sifatida *investitsion faollik* va o'z ichiga *investitsion salohiyat* va *investitsion risk darajasini* oluvchi *investitsion jozibadorlik* tushunchalari ko'rsatib o'tiladi.

Investitsion jozibadorlik –mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishi hisoblanadi.

Investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqliligi hamda jozibadorligi, investitsion risk darajasini aniqlash mumkin. Investitsion risk darajasi investitsion muhitga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

²⁴ Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Albatta, bu yerda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o'z kapitalining xavfsizligini ta'minlash masalalariga birinchi navbatda, e'tiborini qaratadi. Shundan keyin, u o'z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o'ylab ko'radi. Demak, investitsion muhit investor uchun shunday bir shart ekanki, unda investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitalning riski haqida o'ylab ko'radi. Buning uchun esa u kapital riskiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni e'tiborga oladi:

- mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik;
- mintaqadagi yaqin qo'shnichilik munosabatlari;
- hukumatning investitsion munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajalari.

Investitsion salohiyat makroiqtisodiy xususiyatlar, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligi, aholining xaridorgir talablari va boshqalarni hisobga oladi.

Investitsion risk darajasining yuqoriligi investitsiya va undan keladigan daromadni yo'qotish ehtimolini ko'rsatadi. Oxir-oqibat investitsion faollik uning investitsion jozibadorligiga bog'liq.

Investitsion faollik – asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiya ko'rinishidagi investitsion faoliyatning real (haqiqiy) rivojlanishi hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay investitsion shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

- investitsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy ta'minlashni takomillashtirish,
- ustuvor ishlab chiqarish sohalaridagi xususiy sektorga investitsion loyihalarni berish va ularni o'zlashtirishda davlat ko'maging ahamiyatini oshirish,
- investitsion dasturlarni ishlab chiqish orqali investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga yo'naltirish,
- investitsion siyosatga zarur o'zgarishlarni tezkor ravishda kiritish maqsadida, investitsion jarayonlarining doimiy monitoringini olib borish.

5.4. Investitsion muhitni baholash usullari

Aksariyat iqtisodchilar «investitsion muhit» tushunchasini bir xil talqin qiladilar, ammo uning muayyan tuzilishiga kelganda, uni baholash uslublari haqida fikr yuritganda ular fikrlari turlichadir.

Investitsion muhitni ijobiy yoki salbiy ekanligini baholashda bir qancha omillarga va usullarga asoslaniladi. Investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillarni *obyektiv va subyektiv* guruhlariga ajratish mumkin.

Investitsion muhitga ta'sir etadigan obyektiv omillarga:

- mamlakatning geografik joylashuvi;
- energetika resurslarining mavjudligi;
- tabiiy va iqlim sharoitlari;
- mintaqadagi demografik ahvol va boshqalar kiradi.

Subyektiv omillar esa davlat va boshqa boshqaruv subyektlarining boshqarish faoliyati bilan bog'liq tashkiliy huquqiy, iqtisodiy qarorlaridan iboratdir.

Investitsion muhitga baho berishda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin.²⁵

Birinchi yondashuv – toraytirilgan. Bu yondashuv quyidagi baholashlarga asoslanadi:

• yalpi ichki mahsulot va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va milliy daromad dinamikalari;

- milliy daromadni taqsimlash dinamikasi;
- jamg'arish va iste'mol nisbati;
- investitsion faoliyatni qonuniy tartibga solishning holati;
- alohida olingan investitsion bozorlar, shuningdek, fond va pul bozori rivoji

Ikkinchi yondashuv – kengaytirilgan, ko'p omilli.

U investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillarni baholashga asoslangan.

²⁵ Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование. -М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2001. С.116

1. Hududning mehnat va energetika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, bioiqlimiy salohiyati, ilmiy-texnikaviy salohiyati va infrastruktura rivojlanganligi kabilarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy salohiyatiga tavsif.

2. Xo'jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari – ekologik xavfsizlik, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligi va tugallanmagan qurilishlar hajmi.

3. Bozor infratuzilmasi rivojlanganligi, xususiylashtirishning investitsion faollikka ta'siri, inflyatsiya va uning investitsion faollikka ta'siri, aholining investitsion jarayonga jalb qilinganlik darajasi, tadbirkorlik, raqobat muhiti rivojlanganligi, mahalliy bozor hajmi, xo'jaliklararo aloqalarning jadalligi, eksport imkoniyatlari, chet el kapitali mavjudligi.

4. Siyosiy omillar: aholining hokimiyatga bo'lgan ishonchi darajasi, ijtimoiy barqarorlik darajasi, milliy-diniy munosabatlar holati.

5. Ijtimoiy va madaniy omillar: aholining turmush darajasi, tibbiy xizmat rivojlanganligi, jinoyatchilik darajasi, real ish haqi hajmi, aholining o'z va chet el tadbirkorlariga munosabati, chet el mutaxassislari uchun ishlash sharoitlari.

6. Tashkiliy-huquqiy omillar: hokimiyatning chet el investorlariga munosabati, qarorlar qabul qilishdagi tezkorlik darajasi, axborot erkinligi, qonunni himoya qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi, mahsulotlar, kapital va ishchi kuchlarining joylanishi va harakatlanishi uchun shart-sharoitlarning mavjudligi va shuningdek, tadbirkorlarning etik va ish yuritish sifatlari.

7. Moliyaviy omillar: budget daromadlari, aholi jon boshiga budgetdan tashqari fondlar mablag'lari bilan ta'minlanganligi, chet el valyutasida kredit olish imkoniyati, bank foizi darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, uzoq muddatli kreditlarning solishtirma qiymati, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan omonatlarning miqdori, zararga ishlaydigan korxonalar ulushi.

Ko'p omilli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) investitsion muhit va investitsion xavf darajasi kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi;

2) investitsion muhitning asosiy kapital va iqtisodning real sektoriga bo'lgan investitsiyalar bilan bog'liqligi;

3) investitsiya muhitining obyektiv xususiyatlariga diqqat-e'tibor, investitsiya muhitining alohida olingan investorlar xohish-irodasiga bog'liq emasligi.

Uchinchi yondashuv – risk bilan bog'liq.

Uning tarafdorlari odatda investitsion muhitning tashkil etuvchilari sifatida ikkita asosiy mezonni ko'rsatadilar: *birinchisi*, investitsion salohiyat va investitsion risk darajalarining holati, bo'lsa, *ikkinchisi*, investitsion risk va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajalarining bog'liqligi.

Investitsion salohiyat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholanib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- hududda ishlab chiqarish omillari va istemol talabining mavjudligi;
- xo'jalik faoliyati natijalari;
- ilm-fanning rivojlanishi va uning yutuqlarini joriy qilinganlik darajasi;
- etakchi investitsion institutlarning rivojlanganligi;
- kompleks infratuzilma bilan ta'minlanganligi.

Investitsion risk darajasi investitsiyalar va ulardan keladigan daromadni yo'qotish ehtimoli nuqtai nazaridan baholanadi. Ko'rsatkichlarning katta guruhi asosida, shuningdek, investitsion salohiyatning har bir tashkiliy qismi va har bir risk bo'yicha hududiy reyting baholanadi.

Uchinchi yondashuvda bundan tashqari yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda inson omili, rivojlanishning moddiy bazasi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va siyosiy risk darajasi omili, iqtisodiyotning holati va uni boshqarish darajalari kabilar hisobga olinadi.

Investitsion muhitga baho berishning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur.

1. Barcha turdagi investitsiyalar uchun ma'lum investitsion muhit zarur.

Investitsiyalarning turlari kabi, kapitallarning ham ko'rinishi turlicha (sanoat, savdo, ssuda, aksionerlik) bo'ladi. Ana shunday vaziyatlarda investorlar muddati jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan moliyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Masalan,

ssuda kapitali qisqa vaqt ichida maksimum foyda olishga qaratilgan bo‘lib, moliyaviy investitsiyalar orqali harakat qiladi. Sanoat kapitali uzoq muddat davomida korxona faoliyatiga barqaror ta’sir o‘tkazishga intilib, real, bevosita investitsiyalar orqali harakat qiladi.

2. Investitsion muhit manfaatlar muvozanatiga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki investitsiyalarni qabul qiluvchi ham, investitsiyalarni yetkazib beruvchi ham turli maqsadlarni ko‘zlaydi. Ularning birinchisi mamlakatdagi mavjud mahalliy resurslardan tejimli foydalangan holda, ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish)ning ustuvor sohalarini rivojlantirish va eksportbop zamonaviy tovar (xizmat)lar ishlab chiqarish kabi maksimum maqsadlarni ko‘zlasa, ikkinchisi – yuqori foyda olish va mahalliy bozorlarni mumkin qadar tezroq va muqim egallashga intiladi.

3. Investitsion muhit, bir tomondan, uzoq vaqt davomida barqaror bo‘lishi lozim, ikkinchi tomondan, yetarli darajada uddaburon tadbirkor, mamlakatda shakllanayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish omillariga (ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik, boshqaruv, texnologik) nisbatan yuz berayotgan o‘zgarishlarni hisobga ola biladigan bo‘lishi darkor.

4. Investitsiyalar inson kapitali rivoji, barcha faoliyat sohalaridagi ishchi va xizmatchilarning malakasi va kunikmalarining yuksalishi bilan aniq bog‘langan bo‘lishi lozim.

5. Investitsion muhit xo‘jalikning iqtisodiy barqarorligi va ishlab chiqarish tizimlari xavfsizligiga raxna solmasligi kerak.

6. Investirlarning va investitsiyalanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning manfaatlari muvozanatini ta’minlash maqsadida, jalb qilinayotgan investitsiyalarning samarali ekanligini va investitsion muhitning qulayligini kompleks baholash talab etiladi. Shu sababdan nafaqat jalb qilingan investitsiyalar hajmi, balki ularni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarini hisobga olish darkor.

Investitsion muhitning yuqorida bayon qilingan uslublari asosliligi va amaliy ahamiyatini izohlash uchun chet el tajribasini ko‘rib chiqamiz. Investitsion muhitga baho berish uslublari bir-biridan farq qilib, odatda chet elda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho ishlatiladi.

Investitsion muhitni baholashning ko‘p omilli usuli uslubiy talablarga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Uning afzallik tomonlari: resurs-omillarning o‘zaro ta‘sirini hisobga olish; baho berishda subyektivizmni kamaytiradigan statistik ma’lumotlardan foydalanish; iqtisodning turli darajalariga alohida-alohida yondashuv; investitsiyalarning barcha mumkin bo‘lgan manbalarini maksimal darajada samarali qo‘llashni ta’minlashga intilish.

Risk darajasi bilan bog‘liq baholash usuli eng avvalo strategik investor uchun qiziqish uyg‘otadi. U nafaqat investitsiyalash uchun jozibadorlikni aniqlab qolmay, balki, investitsiyalarni qo‘yiladigan yangi obyektga xos bo‘lgan xavf darajasi bilan hozirda mavjud bo‘lgan, investor uchun biznes yuritish odatiy bo‘lgan risk darajasini qiyoslaydi. Ushbu yondashuvda, shuningdek, investorning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari hisobga olinadi.

Zamonaviy iqtisodiy tafakkurning etakchi yo‘nalishlaridan bo‘lgan institutsionalizm investitsion muhit tahlili uchun yangi imkoniyatlar beradi. Shuni ta’kilash joizki, investitsion muhit iqtisodiyotning institutsional tizimida alohida (qism tizim) tizim osti bo‘lib, u ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va ilmiy-texnikaviy yangilanish jarayonida faol investitsion faoliyat orqali ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasiga ega. Tadqiqotlarimiz maqsadlari uchun kengaytirilgan ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodni samarali tashkil etishni va oxir-oqibatda iqtisodiy yuksalishni ta’minlaydigan institutsional shart-sharoitlar tavsifini bilish muhim.

Xo‘jalik tizimining investitsion muhiti dinamizmga ega bo‘lib, u doim yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgarib turadi. Shu sababdan uni monitoring qilish, doimiy kuzatishni tashkil qilish muhimdir. Jahon amaliyotida bunday monitoringning uch xil varianti eng ko‘p tarqalgan:²⁶

²⁶ Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-solik munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2003. 60 bet.

- *birinchi variant* mintaqalar va tarmoqlarni ajratmagan holda butun mamlakat investitsion muhitini yaxlit kuzatib boriladi. Bu variantdagi kuzatuv ko'p hollarda chet el konsalting agentliklari tomonidan amalga oshiriladi;

- *ikkinchi variant* mintaqalar va mamlakatning butun investitsiya muhiti kuzatib boriladi;

- *uchinchi variant* mintaqalar, tarmoqlar, yiriklashtirilgan mintaqalararo iqtisodiy zonalar investitsion muhiti kuzatiladi.

Uchinchi variant umume'tirof etilgan variant hisoblanib, mamlakat investitsion muhitini tavsiflashning mukammal kurinishidir. U quyidagi imkoniyatlarni beradi: mintaqalararo iqtisodiy tuzilmalarning investitsion shart-sharoitlari o'rtasidagi o'xshashlik, farqi va o'ziga xosligini aniqlash; mamlakat investitsion siyosatida u yoki bu mintaqaning o'sib borayotgan ahamiyatini e'tiborga olish; subyektivizmni kamaytirish, axborotni yig'ish, qayta ishlash, uzatish jarayonini soddalashtirish, turli iqtisodiy darajalardagi investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha muayyan tavsiyalar berish. Shuningdek, investitsion muhitni aniqlovchi turli xil omillardan, ya'ni, statistik, faktologik va axborot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va shu kabi boshqa omillardan ham foydalaniladi.

5.5. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni tashkil qilish bir tomondan, loyihani moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi va uni amalga oshirish muddatiga muvofiq bajarishga imkon beruvchi investitsiyalar hajmi bilan ta'minlashi, boshqa tomondan pul mablag'lari, soliq imtiyozlari va boshqa omillardan foydalanishning mos keluvchi tuzilmasi hisobiga risk va xarajatlarni pasaytirishi lozim. U moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida kapitalni yaratish va modernizatsiyalashga, investitsion biznes loyihalarning moliyaviy barqarorligini baholash asosida tanlab olingan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturini bajarish hamda qatnashchilarning qarz mablag'larini olish sxemasiga muvofiq ular o'rtasida riskni taqsimlashga yo'naltiriladi.

Loyihani moliyalashtirishni tashkil etishning o'ziga xos jihati bu ko'p tomonglama shartnoma munosabatlari bilan bog'langan qatnashchilar keng doirasini jalb qilish imkoniyatidir. Asosiy qatnashchilar ta'sislar (tashabbuskorlar) va kreditorlar (investorlar), qolganlar esa - pudratchilar, loyihachilar, asbob-uskunalar ta'minotchilari va maslahatchilar hisoblanadi. Potentsial qatnashchilar davlat, tijorat banklari sug'urta kompaniyalari, agentliklar va boshqa tashkilotlar o'lishi mumkin.

Loyihalarni moliyalashtirishni tashkil qilish odatda ularning har biri talab qilinadigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning qat'iy belgilangan asoslashiga ega bir nechta bosqichlarni qamrab oladi. Masalan, birinchi bosqichda – loyihani investorlarga taqdim etguncha – loyihaning yashovchanligi oldindan tahlil qilinadi, bu jarayonda uni amalga oshirish uchun sarflanuvchi vaqt va mablag'larning maqsadga muvofiqligi, barcha xarajatlarni qoplash va foyda olish uchun moliyaviy resurslar tushumining yetarli ekanligi aniqlanadi. Ushbu bosqichda olingan loyiha bo'yicha moliyaviy natijalar dastlabki xarakterga ega bo'ladi.

Loyihani amalga oshirish rejasi ishlab chiqiluvchi ikkinchi bosqich jarayonni uning maqsadga muvofiqligini olindan o'rganishdan tortib to moliyalashtirishni tashkil qilishgacha qamrab oladi. Bu erda barcha ko'rsatkichlar va risklar, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatning rivojlanishi mumkin bo'lgan yo'llari tahlili, loyihani amalga oshirishga kredit bo'yicha foiz stavkalari, inflyatsiyaning o'sishi, milliy valyuta kursi kabi omillar ta'siri baholanadi. Shundan so'ng loyihani moliyalashtirishni tashkil qilish bo'yicha takliflar va investitsiya resurslarini sarflash rejasini amalga oshirish ustidan nazorat usullari ishlab chiqiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni tashkil qilishning boshlanishi ularni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun kerakli mablag'lar hajmini aniqlash hisoblanadi. Moliyaviy resurslarning doimiy taqchilligi ayrim takliflarni ko'rib chiqishni cheklashi, masalan, loyiha quvvati va boshqa texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni eng kam, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq cheklashi mumkin. Shu bilan birga, resurs cheklovlari asosiy cheklovchi omilni ifodalaydigan holatlarni istisno qilgan holda, investitsiyalarga ehtiyojni faqat loyihaning hajm ko'rsatkichlarini, uchastkani o'zlashtirish, bino va inshootlar qurish, texnika va

texnologiyalar sotib olish xarajatlarini, aylanma kapitalga moliyaviy ehtiyojni (buning uchun sotuv hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va daromad hajmini bilish zarur) hisob-kitob qilib chiqqandan so'nggina investitsiyalarga ehtiyojni to'g'ri aniqlash mumkin. Barcha holatlarda ham investitsiyalarni, marketing va ishlab chiqarish xarajatlarini noto'g'ri (past) baholash va aksincha sotuv va kutilayotgan daromad hajmini ortiqcha baholashga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish umumiy summasi odatda *asosiy kapital* (loyiha-tadqiqot ishlari, maydonchalarni tayyorlash, bino va inshootlarni qurish va ta'mirlash, asbob-uskunalarini xarid qilish va o'rnatish, xodimlarni o'qitish va hokazolar) va *aylanma kapital* (xomashyo va materiallar xarid qilish, sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energiya, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari va hokazolardan iborat bo'ladi.

Aylanma kapitalni hisob-kitob qilishda qisqa muddatli kreditlarning chiqarib tashlanishi sababli u aksiyadorlik kapitali yoki uzoq muddatli majburiyatlar hisobiga moliyalashtirishi lozim. Xo'jalik yili davomida vujudga keluvchi moddiy resurslarni qisqa muddatli oshirish qisqa yoki o'rta muddatli kreditlar hisobiga moliyalashtirish mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish turli shakl va usullar bilan amalga oshiriladi. Ularning orasida egsh tarqalganlari quyidagilar sanaladi:

➤ *aksiyalar yordamida investitsiyalash* – pul mablag'larini aksiyalar xarid qilish yo'li bilan kiritishni ifodalaydi;

➤ *budjetdan investitsiyalash* – bevosita subsidiyalash orqali investitsion dasturlar hisobiga amalga oshiriladi;

➤ *lizing* – investitsiyalarni moliyalashtirishning mulkka egalik huquqini ijaraga beruvchida saqlab qolgan holda uzoq muddatli ijaraga berishga asoslangan shakli sifatida (mashinalar, asbob-uskunalar, transport va boshqa vositalarni o'rta va uzoq muddatli ijaraga berish);

➤ bank kreditlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari hisobiga shakllanuvchi *qarzga moliyalashtirish*;

➤ *ipoteka* – pul ssudasi olish maqsadida ko‘chmas mulkni (erlar, korxonalar, bino va inshootlar, er bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa obyektlar) garovga qo‘yish.

Bu shakllarning har biri o‘z yutuq va kamchiliklariga ega bo‘lib, shu sababdan turli xildagi moliyalashtirish usullaridan foydalanish oqibatlarini to‘g‘ri baholashga faqat ularning muqobil variantlarini taqqoslash yo‘li bilan erishish mumkin. Masalan, uzoq muddatli qarz va aksiyadorlik kapitali o‘rtasida nisbatni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qarzga olingan mablag‘lar ulushi qanchalik katta bo‘lsa, foiz ko‘rinishida shunchalik ko‘p mablag‘ to‘lanadi.

Investitsiya loyihalarini *moliyalashtirish manbalari* ham turlicha bo‘lishi mumkin. Bu, masalan:

➤ xo‘jalik subyektlarining *o‘z moliyaviy vositalari* - foyda, amortizatsion ajratmalar, sug‘urta tashkilotlari tomonidan tabiiy ofatlardan (avariya va hokazolar) ko‘rilgan zarar uchun to‘lanuvchi mablag‘lar, boshqa aktiv turlari (asosiy fondlar, er maydonglari va b.) va jalb etilgan mablag‘lar, masalan, aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar, shuningdek, yuqori xolding va aksiyadorlik kompaniyalari, sanoat-moliya guruhlar tomonidan ajratiluvchi xayriya mablag‘lari va boshqa badallar;

➤ turli darajadagi (respublika, mahalliy) byujet hisobiga, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, budjetdan tashqari fondlar tomonidan xayriya yoki imtiyozli asosda taqdim etiluvchi *budjet mablag‘lari*;

➤ *chet el investitsiyalari* - qo‘shma korxonalar gizom kapitalida moliyaviy yoki boshqa ko‘rinishda ishtirok etish, shuningdek, amadjagi qonunchilikka muvofiq xalqaro tashkilotlar, mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan moliyaviy munosabatlar va xususiy shaxslarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul mablag‘lari hisobiga shakllanuvchi chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar kapitali;

➤ *qarzga olingan mablag‘lar* – davlat va tijorat banklari, chet ellik investorlar (masalan, Jahon banki, Evropa taraqqiyot va tiklanish banki, xalqaro jamg‘armalar, agentliklar va yirik sug‘urta kompaniyalari) tomonidan qaytarib berish sharti bilan taqdim etiluvchi kreditlar.

Investitsiyalar o'zini-o'zi moliyalashtirishining eng tarqalgan shakli korxonalarning taqsimlanmagan foyda va amortizatsiya ajratmalari shaklidagi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ssuda kapitali bozorida olingan kapital bilan to'ldirilgan mablag'lari hisoblanadi. Shu bilan birga kapital sig'imi katta bo'lgan investitsiya loyihasini amalga oshirishga qaror qilgan korxona kamdan-kam hollarda o'z moliyaviy resurslari bilangina barcha ishlarni bitirishi mumkin, shu sababli u qarzga olingan mablag'lardan foydalanish, obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari chiqarish yoki turli moliyaviy institutlarga (banklar, sug'urta kompaniyalari) kredit olish uchun murojaat qilishga, jumladan, markazlashgan investitsiyalar va boshqa davlat imtiyozlaridan foydalanishga majbur bo'ladi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishni tashkil qilish loyihalarni boshqarishning ularni nafaqat ishlab chiqarish fondlariga kiritilgan pul mablag'lari (asosiy va aylanma kapital) bilan, balki mulk huquqi va nomoddiy aktivlar, kreditlar, zaemlar, soliqlar, yerdan foydalanish huquqi va hokazolar bilan ham ta'minlashni qamrab oluvchi vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu kreditlash shakllarini baholash, investitsiyalar ajratuvchi tashkilotlarni aniqlash, loyihani amalga oshirish va uni moliyalashtirish shartlarini nazorat qilish hamdir.

Moliyalashtirish manbasi sifatida aholining mablag'larini jalb qilishni ham ko'rib chiqish mumkin. Masalan, tijorat banklarining kreditlari va chet el valyuta mablag'larini jalb qilar ekan, qarz oluvchilar ko'pincha aholi o'z qo'yilmalari bo'yicha oluvchi mablag'lardan ancha ko'p foizlar to'laydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aholining valyuta qo'yilmalari bo'yicha foiz stavkasini hech bo'lmaganda tijorat banklari darajasigacha oshirishda investitsiya mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolar o'z yechimini topgan bo'lar edi. Bunda qo'yilmalar sirini saqlash, daromadlarni deklartsiya qilishdan bosh tortish, shuningdek, davlatning qo'yilgan mablag'larni saqlash va o'z vaqtida qaytarib berish, ulardan eng ustuvor yo'nalishlarda foydalanishni kafolatlashi zarur.

Loyihalarni moliyalashtirish tizimi ularni manbalar bo'yicha tasniflaydi:

mulkchilik shakli bo'yicha - xususiy, jalb qilingan va qarzga olingan;

mulk egalari darajasi bo'yicha – davlat, korxona va investitsiya loyihasi darajasida. Bugungi kunda *davlat darajasida* ularning manbasi budjet va budjetdan tashqari fondlar, davlat kredit-moliya va sug'urta tizimlari, ichki va tashqi qarz mablag'lari;

loyiha darajasida – budjet mablag'lari va xo'jalik subyektlari (mahalliy korxona va tashkilotlar, jamoa institutsional investorlar) mablag'lari, turli shakldagi chet el investitsiyalari hisoblanadi.

Korxona darajasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

➤ *o'z mablag'lari* - foyda, amortizatsiya ajratmalari, tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararni qoplash uchun sug'urta mablag'lari, asosiy va aylanma mablag'larining immobilizatsion ortiqchaligi, nomoddiy aktivlar va b.;

➤ *jalb qlingan mablag'lar* (o'z kapitali tarkibiga kiritiladi) – aksiyalar chiqarish va joylashtirish hisobiga jalb etiluvchi, yuqori tashkilotlar tomonidan ajratiluvchi grantlar, xayriya badallari, davlat subsidiyalari, bevosita va bilvosita imtiyozlar va b.;

➤ *qarzga olingan mablag'lar* (o'z kapitali tarkibiga kiritilmaydi) – bank kreditlari va boshqa qarzlar, obligatsiyalar chiqarish va joylashtirish hisobiga jalb etiluvchi mablag'lar, mashina va asbob-uskunalar, lizing (moliyaviy, operatsion) asosida foydalaniladigan boshqa pulsiz vositalar va b.

Loyihalarni moliyalashtirish tizimi nafaqat uning manbalarini, balki quyidagilarga taqsilanuvchi tashkiliy shakllarni ham qamrab oladi:

➤ *aksiyadorlik shakli* – nizom kapitlaida ishtirok etish, korporativ moliyalashtirish;

➤ *davlat shakli* - qaytarib berish asosida budjet kreditlari va xayriya shaklidagi budjet ajratmalari, davlat maqsadli investitsion dasturlari, loyihalarni davlatdan qarz olish hisobiga moliyalashtirish;

➤ *loyiha shakli* – to'liq regress huquqi bilan, regreass huquqsiz va mastik regress huquqi bilan kreditlash;

➤ *qarz shakli* - lizing, bank ssuda va kreditlari, chet el kreditlari, investorlar jamoasi investitsiyalari va hokazolar.

Qisqacha xulosalar

Investitsion muhit - muayyan mamlakatga (yoki hududga) investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi. Investitsion jozibadorlik –mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishi hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Investitsion muhitning iqtisodiy mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Qaysilar investitsion muhitning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi?
3. Investitsion faollik nima?
4. Investitsiya salohiyati deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsion risk darajasini qanday tushuncha?
6. Investitsion jozibadorlik nima?
7. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?

6-bob. KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH

6.1. Pul oqimlari tushunchasi va uning ahamiyati

Korxonalarning moliyaviy faoliyatini boshqarishda va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish va boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Pul oqimlari korxonalarning ma'lum davr (ko'p hollarda bir yil) davomidagi barcha kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari harakatini ifodalaydi. Korxonaning kelib tushadigan va chiqim qilinadigan pul mablag'lari harakati moliyaviy menejmentda pul oqimlari deb nomlanadi va u moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi sifatida muhimdir. Pul oqimlarining tahlilning asosiy maqsadi avvalo, kichik korxonaning moliyaviy barqarorligi va daromadliligining tahlil qilishga asos bo'lib hisoblanadi.

Pul oqimlari korxonaning o'z-o'zini moliyalashtirish, moliyaviy salohiyatini va daromadliligini xarakterlab beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxona boshqaruvi uchun moliyaviy qarorlarini qabul qilishda muhim manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu ma'lumotlardan korxona rahbariyati kichik korxonaning likvidliligini hisoblashda, dividendlarni hisoblashda, korxona faoliyati uchun muhim bo'lgan loyihani moliyalashtirishda moliyaviy holatini tahlili uchun foydalaniladi. Shuningdek, korxona menejmenti uchun korxonaning investitsion va moliyaviy siyosatini rejalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul oqimlari ikki ko'rinishda bo'lib, ijobiy va salbiy turlari mavjud. Pul oqimlarining yalpi tushumi va chiqimi o'rtasidagi farq sof pul oqimini tashkil etadi. Sof pul oqimi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Korxonalarning barcha pul oqimlari uchta asosiy guruhdan iborat, ya'ni operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan tashkil topadi. Pul oqimlarining bunday taqsimlanishi moliyaviy menejmentning talabidan kelib chiqqan. Bunday taqsimot ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarining bo'linishini talab

qilmaydi²⁷.

Pul oqimlarini boshqarish pul oqimlarini sinxronlash, debitorlik qarzlari tezroq qoplash, pul mablagʻlarini tez sotiladigan qimmatli qogʻozlarga investitsiya qilish va xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishdan iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasida pul oqimlarini tartibga solish Adliya Vazirligida 4.11.1998 yilda 519-son tartib raqam bilan roʻyxatdan oʻtgan 9-BHMS “Pul oqimi toʻgʻrisidagi hisobot” orqali amalga oshiriladi²⁸. Pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi oʻzgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani toʻgʻrisidagi axborot bilan taʼminlaydi. Standartga koʻra pul oqimlari - pul mablagʻlari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat²⁹.

Korxonalar pul oqimlari tushunchasi moliyaviy boshqaruvning alohida obyekti sifatida nafaqat mahalliy, balki xorijiy adabiyotlarda ham moliyaviy boshqaruv boʻyicha yetarli darajada oʻz aksini topmagan. Pul oqimlarining asosiy tarkibida pul aktivlarini boshqarish, moliyaviy resurslarni shakllantirishni boshqarish va bankrotlik xavfi sharoitida inqirozga qarshi korxonalar boshqaruvi masalalari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar, korxona pul mablagʻlarini harakat dinamikasini xarakterlovchi buxgalterlik hisobini yuritish kabilar kiradi. Pul oqimlarini toʻgʻri rejalashtirish va boshqarish nisbatan murakkab vazifa boʻlib hisoblanadi. Kichik biznes korxonalarining pul oqimlari maʼlumotlaridan foydalanish quyidagi vazifalarni echishga yordam beradi:

-tadbirkorlik subyektining «moliyaviy qon aylanish tizimi» sifatida uni samarali tashkil etilganda moliyaviy barqarorlikni taʼminlaydi;

-pul oqimlarini oqilona shakllantirish xoʻjalik operatsion faoliyatining bir maromda va doimiy amal qilishini taʼminlaydi;

²⁷ Васильева Л.С, Петровская М.В. Финансовый анализ.– М.: КНОРУС, 2010. – с.80

²⁸ Oʻzbekiston Respublikasi buxalteriya hisobining milliy standartlari. Norma Hamkor. -T. 2018.

²⁹ Oʻzbekiston Respublikasi buxalteriya hisobining milliy standartlari. Norma Hamkor. -T. 2018.

-pul oqimlarini samarali boshqarish qarz mablag'lariga, ya'ni jalb qilingan kapitallariga bo'lgan ehtiyojlarni qisqartiradi;

-pul oqimlarini boshqarishning faol tizimiga ega bo'lishi o'z mablag'laridan samarali foydalanishni, ichki moliyaviy manbalarini shakllantirishni ta'minlaydi;

-pul oqimlarini to'g'ri boshqarish xo'jalik kapitalining aylanishini tezlashtiruvchi moliyaviy dastak hisoblanadi;

-pul oqimlaridan samarali foydalanish tadbirkorlik subyektining to'lov qobiliyatini oshiradi va maqsadli foyda miqdoriga erishishga yordam beradi;

-pul oqimlarini samarali boshqarish shakllariga ega bo'lish, qo'shimcha foydani olishni, bevosita pul aktivlarini ijobiy natijalarga erishishni, ya'ni vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida korxonalar faoliyatining pul oqimlari to'g'risidagi hisoboti pul mablag'larining harakati nuqtai nazaridan korxonaning mulki bo'lgan moliyaviy resurslarining o'zgarishi aks ettiradi. Bu hisobot yordamida boshqa moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirishda va hisoblash usulidan foydalanishni e'tiborga olgan holda, korxonaning likvidligini obyektiv baholash imkoni yaratiladi.

6.2. Pul oqimlarini boshqarish bosqichlari va korxonaning pul oqimlarini hisobotlarni shakllantirish

Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan pul, royalti, badallar, vositachilik haqi va boshqa pul mablag'lari tushumi, tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to'lovlari, xodimlarga va xodimlar nomidan to'lovlar, sug'urta kompaniyasining sug'urta polislari bo'yicha mukofotlari, yillik va boshqa faoliyat bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari, soliqlar bo'yicha pul to'lovlari yoki uning o'rnini bosuvchi to'lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo'lmasa, savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari hamda operatsion faoliyat bilan bog'liq boshqa pul tushumlarini aks ettiradi.

Investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari korxonalarining ishlab chiqarishga sarflagan real investitsiyalari va ortiqcha asosiy vositalarni sotish, boshqa korxonalarning aksiyalarini sotib olish va sotish hamda boshqa investitsion xarakterdagi kirim va chiqimlarni o'z ichiga oladi.


Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari tadbirkorlik subyekti qo'shimcha sarmoya sifatida mablag' jalb qilish, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni jalb qilish, pul ko'rinishida dividend berish va korxona faoliyatini tashqi mablag'lar bilan moliyalashtirishni o'z ichiga oladi.

Biroq maqsad loyiha bo'yicha yakuniy qarorlarni qabul qilish to'g'risida borganda, investorni kapitalni ko'paytiruvchi tushumning qanchaligi, pul mablag'lari kirimi va chiqimigina kiziqitmasdan, balki korxonaning budjet oldidagi majburiyatlardan holi bo'lgandagi, ya'ni soliqlarni to'lagandan keyingi qoladigan natija (foyda) qiziqtiradi.

Korxonalarining pul oqimlarini shakllanishida ichki va tashqi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Tashqi ta'sirlarga tovarlar va fond bozorlaridagi vaziyat, xo'jalik yurituvchi subyektlar orasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibi, kreditlar bilan ta'minlash, soliq va bojxona tizimlari kirs, ichki omillarga ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi va mavsumiylik xarakteri, tadbirkorlik subyekting amortizatsiya siyosati, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tizimi va boshqalar misol bo'ladi.

Ma'lumki, pul oqimlarini boshqarish butun korxona moliyaviy faoliyatini boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U korxonaning moliyaviy boshqaruvida turli shakldagi vazifalarni echishda va uning korxona moliyaviy menejmentini bosh maqsadiga qaratilganligini talab etadi.

Pul tushumlari va chiqimlarini tahlil etish kichik korxona faoliyatiga kiritiladigan investitsiya loyihalarini baholashda juda muhim sanaladi. Ularning tarkibiy tuzilishi quyidagi rasmda aks ettirilgan.



9-rasm. Korxonalarning pul oqimlari tarkibi³⁰

Ikki asosiy sababga ko‘ra pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni to‘ldiradi.

Korxonalar doimo ijobiy pul oqimiga ega bo‘lgan taqdirda barqaror rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi. Pul oqimlari va boshqa moliyaviy resurslarning yetarli darajada bo‘lishi nafaqat takror ishlab chiqarish va shaxsiy iste‘molni

³⁰ Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

kengaytirishga, balki tadbirkorlik subyekting likvidligini ta'minlashga ham imkon beradi.

Korxonalarining to'lovga qobilligi ayniqsa, moddiy resurslar ta'minoti, turli ish va xizmatlar ko'rsatuvchi tashqi korxonalar va ularning moliyaviy faoliyati uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Bundan tashqari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot faqatgina moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kirgan ko'rsatkichlar asosida qilingan baholashdan voz kechishga imkon beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari yordamida tayyorlanadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotdagi ma'lumotlar hisob siyosatiga bog'liq emas. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblash tamoyili asosida tayyorlanadi. Demak, har bir daromad pul mablag'larining kelib tushishi yoki har bir xarajat o'sha vaqtning o'zida pul chiqimlarini ifodalab bermaydi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi sof foyda ko'p hollarda korxonani boshqarishni baholashga bog'liqdir. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotdagi ma'lumotlar hisob siyosatiga bog'liq emas.

Pul harakati to'g'risidagi hisobot turlicha standartlarni qo'llayotgan turli mamlakatlarning korxonalari sof foydasi ma'lumotlarini iqtisodiy karakteristikasini solishtirish imkonini berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning tahlili korxonaning iqtisodiy kelajagini (yoki hayotiyligini) baholashga yordam beradi. Xususan, joriy davrdagi pul tushumining asosiy qismini investitsion faoliyatdan (asosiy vositalarni sotishdan) kelib tushsa, investorlar uchun korxonaning likvidligini pasayishga olib keladigan noxush holatni yuzaga kelganini izohlash mumkin bo'ladi.

Joriy hisobraqamdagi harakatsiz pul mablag'lari qariyb daromad keltirmaydi. Ularning ko'payishi bilan investitsion daromadning yo'qotishlari ko'payib boradi. Shu sababli ham daromadning yo'qotilishi likvidlikning ortganligining to'lovi sifatida ko'riladi. Moliyaviy menejmentning asosiy vazifasi bo'lib hisob raqamida likvidlilik darajasini ushlab turadigan hamda uning darajasini ortib ketmasligiga

imkon beradigan samarali pul mablag'larini ushlab turish hisoblanadi.

Korxonalarning pul oqimlarini boshqarish jarayoni belgilangan tamoyillar asosida aniqlanadi. Korxona pul oqimlarini boshqarishda moliyaviy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri bu korxona faoliyatiga tegishli bo'lgan uning xo'jalik faoliyatini o'rganishdagi alohida xulosalarni chiqarishda zarur bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonaning hech bir joriy moliyaviy rejasi, uning birorta yirik xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish pul oqimlari rejasini tuzmasdan amalga oshirmasligining iloji yo'q. Chunki, barcha shakldagi pul mablag'larini rejalashtirishda asosiy hujjat pul tushum va chiqimlarini joriy moliyaviy rejaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'rib o'tilgan pul oqimlari to'g'risida hisobot Respublikamiz amaliyotida qo'llaniladi. Mazmunan bu hisobot pul oqimlari to'g'risida bo'lsa ham, aslida pul mablag'larining harakatini ifodalab beradi.

Xorij moliyaviy bozorlarida tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarning keng turlari mavjud. Ular korxonalarni qisqa muddatlarda bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga aylantirib (masalan bir necha soatga), keyin esa tezlik bilan orqaga pulga aylantirishga imkon beradi. Shu sababli ham menejerlar pul mablag'larining kerakli miqdori zaruriyatini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Respublikamizdagi korxonalar bunday imkoniyatlarga ega emas, shu sababli ham ularda muddati o'tgan to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan pul mablag'larining etishmasligi muammosiga duch keladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari yordamida moliyaviy hisobotlarning xalqaro andozasi shartlarida tayyorlanadi. Shuning uchun ham korxonalarning moliyaviy tahlilini amalga oshirishda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni belgilangan shartlar asosida tayyorlanganligini inobatga olish kerak.

6.3. Pul oqimlarining turlari

Xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda amortizatsiya ajratmalari sof foydani hisoblashda garchi pul ko'rinishida bo'lmasa ham, korxonaning daromadlari summasidan chiqarilib tashlanadi. Chunki asosiy vositalarni sotib olishga qilingan xarajatlar amortizatsiya ajratmalarini keltirib chiqaradi hamda ular foydalanish davri mobaynida ajratilib boradi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sof foyda ko'rsatkichidan ishlab chiqarishning tushumi ko'rsatkichini olish uchun birinchi navbatda amortizatsiya ajratmalarini qo'shish lozim bo'ladi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot quyidagi formula bilan ifodalanadi³¹:

$$\text{Pul oqimlari(tushumlar)} = \text{Sof foyda} + \text{amortizatsiya} \quad (23)$$

Korxonalar uchun an'anaviy usullar yordamida amalga oshirilayotgan tahlillar oraliq natijalarni faqatgina ma'lum muddatlarga ifodalab beradi xolos. Shuning uchun ham bu tahlil yakuniy moliyaviy natijalarni tayyorlashda qo'shimcha ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. An'anaviy tahlil natijalari ma'lum davrlarda yakuniy moliyaviy natijalarga erishish uchun xizmat qiladi. Ko'p kichik korxonalar qo'yilgan investitsion mablag'lar qaytimiga minimal muddat belgilaydilar. O'z o'zini qoplash usuli kelgusidagi pul oqimlari qo'yilgan mablag'ni qancha vaqt davomida qaytishini hisoblash imkonini beradi, ya'ni qo'yilgan kapital qanchalik tez qaytsa shu darajada risk past bo'ladi va aksincha.

Har qanday loyiha³²ning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanishi pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib investitsiya loyihasining samaradorligini baholash mumkin emas. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pul oqimlari haqidagi aniq ma'lumotlarni yig'ish juda muhim vazifa hisoblanadi. Investitsiya loyihasini baholash loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi sababli, pul oqimlari haqidagi ma'lumotlar ham oldindan rejalashtiriladi. Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ushbu

³¹ З.Боди, Р. Ментон. Финансы. СПб.: Питер, 2005. - с 72.

jarayon investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham, pul oqimlarini rejalashtirishda turli xil risklarni hisobga olish ham lozim. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish uchun balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblash usuliga ko'ra daromad yoki xarajatlar pul oqimlarining harakati davrida emas, balki ularning yuzaga kelgan davrida tan olinadi. Shu sababli ham pul oqimlarining aniqlanishi uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni o'tkazish (moslashtirish) kerak bo'ladi. Buning uchun daromadlarni haqiqatdagi pul mablag'larining kelib tushishi va pul chiqimlarini esa haqiqatdagi sarflarga moslashtirish orqali erishiladi.

Pul oqimlarini aniqlashning bevosita va bilvosita turlari mavjud.

Bevosita usulida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning har bir moddasi haqiqatdagi pul tushumlar va chiqimlari bilan moslashtiriladi.

Bilvosita usulda esa moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning har bir moddasi haqiqatdagi pul tushumlar va chiqimlari bilan moslashtirilmaydi. Unga ko'ra, hisobning asosiy nuqtasi bo'lib, tahlil qilinayotgan davrning pul mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lmagan harajatlarni qo'shish va pul oqimlariga bog'liq bo'lmagan barcha daromadlarni chiqarib tashlash orqali moslashtirilgan foyda (zarar)ning umumiy hajmi olinadi.

Jahon amaliyotida kichik korxona faoliyatiga investitsiya kiritilayotgan paytda uning menejmenti yalpi yoki sof pul oqimiga emas, balki erkin pul oqimlariga e'tiborini qaratadi. Chunki pul mablag'lari harakatidan faqatgina xarajatlarni qoplash emas, balki farovonlikni oshirish maqsad qilinadi.

Korxonaning erkin pul oqimi (*free cash flow to the firm — FCFF*) operatsion faoliyatning barcha soliqlardan keyingi hamda asosiy va aylanma kapitalga kiritilgan investitsiya summalarini chiqarib tashlangandan keyingi investorlarga tegishli bo'lgan pul oqimidir. Bu pul oqimi korxonaning ishlab chiqaruvchi aktivlari yordami shakllanganligi uchun ham uni aktivlardan kelgan pul oqimi deb ham yuritiladi. Shu sababli ham uning investorlarga yo'naltirilganligini hisobga olgan holda uning miqdori to'lov miqdoriga teng bo'lishi kerak.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda pul oqimlari balansini quyidagicha izohlash mumkin.

$$FCFF = FCFE + FCFD \quad (24)$$

bu yerda: $FCFD$ —kreditorlarga bo‘lgan pul oqimi; $FCFE$ —mulkdorlarga bo‘lgan pul oqimi.

Sof pul oqimining miqdori ($FCFF$) turli usullar yordamida aniqlanishi mumkin. Bunda quyidagi asosiy elementlarni hisobga olish zarur bo‘ladi. Bular:

- asosiy faoliyat bo‘yicha soliq to‘langandan keyingi oqimi;
- aylanma kapitalga kiritilgan sof investitsiyalar;
- asosiy kapitalga kiritilgan sof investitsiyalar.

Sof investitsiyalar miqdorini aniqlash uchun balans hisoboti, shuningdek, boshqa ko‘rsatkichlar zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, aylanma kapitalga kiritilgan t davrdagi sof investitsiyalar WCR miqdoriga teng bo‘ladi, ya’ni, joriy operatsion aktivlar (qisqa muddatili moliyaviy qo‘yilmalardan tashqari) va foizsiz joriy majburiyatlar o‘rtasidagi farqqa teng bo‘ladi. Shunday qilib, bu miqdorning t davrdagi o‘zgarishi (ΔWCR) joriy faoliyatga investitsiya qilingan pul mablag‘lari summasini ifodalab beradi.

$$\Delta WCR = \Delta CA - \Delta CL \quad (25)$$

bu yerda $-\Delta WCR$ aylanma mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojning o‘zgarishi; $-\Delta CA$ joriy operatsion aktivlar (qisqa muddatili moliyaviy qo‘yilmalardan tashqari); $-\Delta CL$ foizsiz joriy majburiyatlar.

Xuddi shunga o‘xshash uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar yoki kapital qo‘yilmalar bu yangi aktivlarni sotib olishga sarflangan pul mablag‘lari (eskilarini sotishdan kelgan tushumsiz) bo‘lib, uning miqdori sof balans qiymati (ΔNFA) o‘zgarishiga teng bo‘ladi. Uni formula asosida quyidagicha keltirish mumkin:

$$\text{Sof balans qiymat } (\Delta NFA) = \text{Yil oxiriga sof uzoq muddatili aktivlar} - \text{Yil boshiga sof uzoq muddatli aktivlar} + \text{Amortizatsiya } (DA) \quad (26)$$

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda erkin pul oqimi quyidagiga teng bo'ladi.

$$FCFF = EBIT - TAX + DA - \Delta NFA - \Delta WCR \quad (27)$$

Bundan ko'rinib turibdiki, erkin pul oqimlari korxonaning moliyalashtirilishiga bog'liq emas. Asosiy faoliyatining pul oqimlaridan farqli ravishda (*CFFO*), pul oqimlari hisobotini tayyorlashda *FCFF* miqdorini hisoblashda zaymlar bo'yicha foizlar hisobga olinmaydi.

Kreditorlarga bo'lgan pul oqimi *FCFD* quyidagi elementlarda tashkil topgan. Bular olingan foizlar- *I*; to'langan va yangi olingan qarzlar o'rtasidagi farq $-\Delta D$.

Shunday qilib,

$$FCFD = I - \Delta D \quad (28)$$

O'z navbatida mulkdorlarga tegishli bo'lgan pul oqimi to'langan dividendlar- *DIV* va o'z kapitalidagi sof o'zgarishlar (taqsimlanmagan foydadan tashqari) $-\Delta E$ dan tashkil topadi. *FCFE* miqdori quyidagicha aniqlanadi

(29)

Bu ko'rsatki uchun $FCFE = DIV - \Delta E$ da ham aniqlash mumkin:

$$FCFE = NP + DA - \Delta NFA - \Delta WCR + \Delta D \quad (30)$$

Ko'rib chiqilgan aktivlarning (*FCFF*), kreditorlarning (*FCFD*) va mulkdorlarning (*FCFE*) erkin pul oqimlari moliyaviy menejmentning vazifalarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, pul oqimlari investitsion tahlil va korxoning qiymatini aniqlashda asosiy obyekt bo'lib hisoblanadi. Uning hisoblanish metodikasi shuni ko'rsatmoqdaki, menejment qanday qilib korxonaning qiymatini oshirishi mumkin. Bu ko'rsatkichning orttirishning asosiy richagi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-operatsion foydaning ortishiga (*EBIT*) tushumni ko'paytirish va xarajatlarni pasaytirish yo'li orqali erishish;

-soliqqa tortishni optimallashtirish;

-operatsion va asosiy aktivlarni ulardan samarali foydalanish evaziga minimallashtirish;

-kapital qo'yilmalarni ratsionallashtirish va boshqalar.

FCFD ko'rsatkichi kreditorlar uchun muhimdir. *FCFE* ko'rsatkichining ahamiyati korxonaning mulkdorlari uchun dividend siyosatining samaradorligini baholashda ko'rinadi, shuningdek, u mulkdorlar tomonidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarni tahlilida qo'llanilishi mumkin. Kichik biznes faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini baholashda xalqaro amaliyotda pulning joriy va kelgusi pul qiymati kabi tushunchalardan foydalaniladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, investitsiyalash uzoq muddatli jarayon bo'lib, unda mablag'lar qiymatini baholashning boshida va ularni pulning vaqt konsepsiyasini hisobga olgan sof pul oqimlari ko'rinishda qaytib olishdagi qiymati taqqoslanadi.

6.4. Pul oqimlarini prognozlash

Pul oqimlarini prognozlash moxiyatiga ko'ra korxona uchun kelgusi davrda kutiladigan pul mablag'lari tushumlari manbalarini va turli yo'nalishlar bo'yicha pul mablag'lari chiqimlarini miqdoran aniqlashdan iborat. Pul mablag'lari harakatini prognozlashda aynan qanday ko'rsatkichlarning tanlab olinishi korxona faoliyati xususiyatlariga bog'liq. Unga yiriklashgan (agregat) ko'rsatkichlar bir qatorda batafsilroqlari ham qo'llanishi mumkin.

Ko'pchilik holarda ko'rsatkichlarni katta aniqlik bilan prognozlash qiyin. Shuning uchun odatda pul mablag'lari oqimini prognozlashda rejalashtirilayotgan davr uchun bu oqimning asosiy elementlari hisoblab chiqiladi, ya'ni sotish hajmi, naqd hisob-kitobga sotish, debitor qarzlari, kreditor qarzlari va boshqalar nazarda tutiladi.

Prognoz biron-bir davrga, uni kichik davrlarga bo'lgan holda amalga oshiriladi. Yillik prognoz choraklar yoki oylarga ajratilgan holda, choraklik prognoz oylarga ajratilgan holda tuziladi.

Bunda quyidagilar bajariladi:

1. Kichik davrlar bo'yicha pul tushumlarni prognozlash.
2. Kichik davrlar bo'yicha pul mablag'larining chiqib ketishini prognozlash.

3. Kichik davrlar uchun pul mablag'larining sof oqimini aniqlash.

4. Kichik davrlar bo'yicha qisqa muddatli moliyalashga jami ehtiyojni aniqlash.

Birinchi bosqichda olinishi kutiladigan pul tushumlarining hajmi hisoblab chiqiladi. BHMS (Buhgalteriya hisobining milliy standartlari) qoidalarga binoan hisob registrlarida mahsulot sotishdan daromad tovarlar haridorlarga jo'natilgan paytda hisobga olinadi. O'z navbatida tovarlar naqd hisob-kitoblarga va kreditga sotilishi mumkin.

Korxonalarning ko'pchiligida sotilgan tovarlar qiymati to'lab berilishi uchun muayyan vaqt o'tadi. Shuning uchun sotilgan mahsulot uchun pul tushumining qanchasi rejalashtirilayotgan davrda va qanchasi undan keyin kelib tushishini aniqlash lozim.

Rejalashtirilayotgan davrda kutilayotgan pul tushumlari oqimini aniqroq prognozlash uchun debitor qarzlarni ularning so'ndirilishi muddatlari bo'yicha guruhlash talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yetkazib berilayotgan tovarlar uchun debitor qarzlari to'lanishi muddati 90 kungacha deb belgilangan. Shunga muvofiq holda xo'jalik amaliyotida debitor qarzlari so'ndirilishi muddati 30 kungacha, 60 kungacha, 90 kungacha va h.k. guruhlarga ajratgan holda tahlil etiladi.

Tahlilni oyma-oy amalga oshirish va har bir oyga kelib tushadigan debitor qarzlarni aniqlab olish maqbul deb qaraladi. Pul mablag'lari kelib tushishining mahsulot sotishdan boshqa manbalari mavjud bo'lsa ular ham har bir davrda e'tiborga olinishi lozim.

Ikkinchi bosqichda pul mablag'larining chiqib ketishi hajmlari hisoblab chiqiladi. Korxona joriy ho'jalik faoliyatida pul mablag'lari chiqib ketishining uch asosiy yo'nalishlari mavjud: davlat budjetiga to'lovlar, ish haqi bo'yicha xodimlarga to'lovlar va yetkazib beruvchilarga to'lovlar. Davlat budjetiga soliqlar bo'yicha to'lovlarning katta qismini joriy davr tugamasdanoq to'lashga to'g'ri keladi. Ish haqi bo'yicha to'lovlar esa davr tugashi bilanoq amalga oshirilishi lozim. Soliqlar va ish haqi bo'yicha to'lovlarning kechikib bajarilishi bajarilishi

korxonaga nisbatan davlat organlari tomonidan ma'muriy va moliyaviy xarakterdagi jiddiy choralar ko'rilishiga olib kelishi mumkin. Yetkazib beruvchilarga kreditor qarzlari esa korxona tomonidan bir muncha "cho'zibroq" bajarilishi mumkin.

Bu holda kreditor qarzlari korxonani qisqa muddatli moliyalashning manbaiga aylanadi. Ta'kidlash lozimki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida tovarlar asosan kreditga sotilsada, debitor qarzlari tezroq to'lanishini rag'batlantiruvchi chegirmalar keng qo'llaniladi. Bu holda kreditor qarzlarni kechiktirib to'lash iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmay qoladi. Pul mablag'larining chiqib ketishi foizlar va dividendlar to'lanishi, uzoq muddatli va qisqa muddatli ijara uchun to'lovlar, kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va boshqalar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Uchinchi bosqichda avvalgi ikki bosqichning natijalari bir-biriga taqqoslagan holda umumlashtiriladi va sof pul oqimi hisoblab chiqiladi.

To'rtinchi bosqichda qisqa muddatli moliyalashga bo'lgan jami ehtiyoj aniqlanadi. Unda har bir kichik davr uchun pul mablag'larining joriy etishmovchiligini qoplash uchun zarur qo'shimcha mablag'larni qaysi manbalardan qo'lga kiritilishi rejalashtirib olinadi (masalan, qisqa muddatli bank kreditlari). Shu bilan zarur pul mablag'lari miqdorini belgilab olishda korxonaning bankdagi hisob raqamida pul mablag'larining muayyan minimum miqdori mavjud bo'lishi lozimligini etiborga olish lozim. Bu minimum oldindan rejalashtirilmagan, lekin korxona uchun juda zarur ehtiyojlarni qondirishga yoki o'ta foydali qo'yilmalar imkoniyati to'satdan paydo bo'lganda undan foydalana olishni ta'minlashga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona pul mablag'lari bo'yicha oqilona siyosat olib borilishi lozim. Bir tomondan, ho'jalik moliya faoliyati ehtiyojlari o'z vaqtida qondirib borilishi uchun bo'sh pul mablag'larining muayyan darajasi ta'minlab turilishi talab etiladi.

Ikkinchi tomondan, bu mablag'lar likvid qimmatli qog'ozlarga joylashtirilgan summa bilan to'ldiriladi. Zarurat tug'ilganda qimmatli qog'ozlar

zudlik bilan pulga aylantiriladi. Pul mablagʻlari qoldgʻining belgilab olingan darajadan ortiqchasi vujudga kelsa, u likvid qimmatli qogʻozlarga yoʻnaltiriladi.

Shunday qilib umumiy mazmunga koʻra pul mablagʻlariga nisbatan ham ishlab chiqarish zahiralari boshqarish nazariyasi qoidalarini qoʻllash mumkin. Pul mablagʻlarini boshqarishda quyidagi masalalarning echimini topish lozim boʻladi:

- a) pul mablagʻlari va pul ekvivalentlarining umumiy hajmi;
- b) pul mablagʻlari va pul ekvivalentlarining qanchasini bankdagi hisoblarda, qanchasini tez sotiladigan qimmatli qogʻozlar koʻrinishida saqlash kerak;
- c) pul mablagʻlari va tez sotiladigan aktivlarning qancha miqdorini va qaysi paytlarda bir-biriga aylantirish zarur.

Qisqa xulosalar

Pul oqimlari korxonalarining maʼlum davr (koʻp hollarda bir yil) davomidagi barcha kelib tushgan va sarflangan pul mablagʻlari harakatini ifodalaydi. Pul oqimlari korxonaning oʻz-oʻzini moliyalashtirish, moliyaviy salohiyatini va daromadlilikini xarakterlab beradi.

Pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot korxona boshqaruvi uchun moliyaviy qarorlarini qabul qilishda muhim manbalardan biri boʻlib hisoblanadi. Bu maʼlumotlardan korxona rahbariyati kichik korxonaning likvidlilikini hisoblashda, dividendlarni hisoblashda, korxona faoliyati uchun muhim boʻlgan loyihani moliyalashtirishda moliyaviy holatini tahlili uchun foydalaniladi. Shuningdek, korxona menejmenti uchun korxonaning investitsion va moliyaviy siyosatini rejalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul oqimlarini aniqlashning bevosita va bilvosita turlari mavjud. Bevosita usulida moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning har bir moddasi haqiqatdagi pul tushumlar va chiqimlari bilan moslashtiriladi. Bilvosita usulda esa moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning har bir moddasi haqiqatdagi pul tushumlar va chiqimlari

bilan moslashtirilmaydi. Unga ko'ra, hisobning asosiy nuqtasi bo'lib, tahlil qilinayotgan davrning pul mablag'lari harakati bilan bog'liq bo'lmagan harajatlarni qo'shish va pul oqimlariga bog'liq bo'lmagan barcha daromadlarni chiqarib tashlash orqali moslashtirilgan foyda (zarar)ning umumiy hajmi olinadi.

Pul oqimlarini prognozlash mohiyatiga ko'ra korxona uchun kelgusi davrda kutiladigan pul mablag'lari tushumlari manbalarini va turli yo'nalishlar bo'yicha pul mablag'lari chiqimlarini miqdoran aniqlashdan iborat.

Nazorat savollari

1. Pul oqimlari nima?
2. Korxonaning pul oqimlari tarkibini sanab bering?
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari tarkibi nimalardan iborat?
4. Pul oqimlar to'g'risidagi hisobtni taqdim etish xususiyatlarini aytib bering.
5. Pul oqimlarini prognozlash haqida tushuncha bering.

7-bob. KORXONA XARAJATLARI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BOSHQARISH

7.1. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari

Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalarning eskirishi, materiallar, urug‘lik, o‘g‘it, yonilg‘i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat sarflari ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy -xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko‘ra:

- ishlab chiqarish xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlari.

2. Ishlab chiqarishda sarf etiladigan resurslarning manbaiga ko‘ra:

- ichki xarajatlar;
- tashqi xarajatlar.

3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga nisbatan:

- doimiy xarajatlar;
- o‘zgaruvchan xarajatlar.

4. Mahsulotning tannarxiga olib borilishi jihatidan:

- bevosita xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar.

5. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa xo‘jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan:

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar;

- favqulodda zararlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatga noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog‘liq xarajatlar;
- ma‘muriy boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar kiradi.

Korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan o‘ziga tegishli resurslar sarfi uning ichki xarajatlarini, tashki mol yetkazib beruvchilar va boshqa subyektlardan sotib olingan resurslar uchun to‘lovlar korxonaning tashqi xarajatlarini tashkil qiladi.

Qisqa muddatli davrda mahsulot hajmining o‘shishiga nisbatan doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar farq qiladi.

Doimiy xarajatlar mahsulot hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmay, korxonaning ma‘lum bir vaqt oralig‘ida sarflashi qat‘iy belgilab qo‘yilgan o‘zgarmas xarajatlarini ifoda etadi. Bunga asosiy vositalarning eskirish, boshqaruv xodimlarining mehnat haqi, sug‘urta to‘lovlari, telefon uchun abonentlik to‘lovi ijara to‘lovlari va shunga o‘xshashlarni misol qilib keltirish mumkin. Doimiy xarajatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahsulot hajmining oshib borishi bilan bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keluvchi doimiy xarajatlar kamayib boradi.

O‘zgaruvchan xarajatlarning miqdori mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi yoki kamayishiga qarab o‘zgarib turadi, ya‘ni mahsulotning hajmiga mutanosib bo‘ladi. O‘zgaruvchan xarajatlarning tarkibiga ishchilarning mehnat

haqi va unga nisbatan ajratmalar, xom ashyo, yonilg'i-moylash materiallari, yoqilg'i va energiya, transport xarajatlari hamda boshqa resurslarning sarfi kiradi. O'zgaruvchi xarajatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahsulot hajmining oshib borishi bir birlik mahsulotga to'g'ri keluvchi o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarning yig'indisi xo'jalikning umumiy xarajatlarini tashkil qiladi. Bundan tashqari bir birlik mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan o'rtacha umumiy xarajatlar tushunchasi ham mavjud. O'rtacha doimiy xarajatlar, doimiy xarajatlar summasini mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali hisoblanadi. Xuddi shuningdek, o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarni, o'zgaruvchi xarajatlar summasini mahsulotni ishlab chiqarish hajmiga bo'lish orqali topish mumkin.

Ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida, hali moddiy resurslar va asosiy vositalar to'la bandlik darajasiga erishmagan davrda o'rtacha doimiy xarajatlarning qiymati yuqori bo'ladi va ishlab chiqarish hajmining oshib borishi bilan u kamayib borish xususiyatiga ega. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmi optimal chegaraga etguncha kamayib boradi, ammo undan keyin ishlab chiqarishga jalb etilgan ortiqcha resurslarning samarasiz bo'lishi tufayli, o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar ortib boradi.

Keyingi har bir qo'shimcha mahsulotning birligini ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar chegaraviy xarajatlar deb yuritiladi. Uni umumiy xarajatlar summasining o'sgan qismini mahsulot hajmining o'sgan qismiga bo'lish orqali topish mumkin. Chegaraviy xarajatlar ishlab chiqarilayotgan har bir qo'shimcha mahsulot birligi xo'jalikka qanchaga tushishini ko'rsatadi.

Ayrim turdagi ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning mehnat haqi va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajatlarning turlari bevosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Ikkinchi bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot etishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, transport vositalari va texnologik jihozlarning eskirishi), ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Xo'jalikning ishlab chiqarish, operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq turkumlanadi.

7.2. Mahsulot tannarxini hisoblash tartibi va ketma-ketligi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi mahsulotni ishlabchiqarish yoki qayta ishlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) jarayonida foydalanadigan tabiiy resurslar, xomashyo, materillar, yoqilgi, quvvat, asosiy fondlar, mehnat resurslarini, shuningdek ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni qiymat bahosini ifodalaydi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish bilan bog'liq, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishi orqali zarur bo'lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilardan iborat:

- materiallarga doir to'g'ri xarajatlar;
- mehnatga doir to'g'ri xarajatlar;
- bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiladigan xarajatlar ularningsh iqtisodiy mazmuniga muvofiq ravishda quyidagi elementlari bo'yicha turkumlanadi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (ishlatiladigan chiqindilar qiymati chegirib tashlanadi);

- ishlab chiqarishga oid to'g'ri mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarishga oid moddiy xarajatlar quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

- tashqaridan sotib olinadigan, ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibiga kirib, uning asosini tashkil etadigan yoki mahsulot tayyorlashda (ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda) zarur komponent hisoblanadigan xom ashyo va materiallar;

- mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur me'yoriy texnologik jarayonni ta'minlash uchun va mahsulotni o'rash va boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sotib olingan materiallar, shuningdek, jihozlarni, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, inventar, xo'jalik ashyolari va asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydigan mehnat vositalarini qiymati;

- korxonada montaj qilish va qo'shimcha ishlov berish uchun sotib olingan butlash buyumlari va yarim tayyor mahsulotlar;

- chet tashkilotlar yoki jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lmagan, ishlab chiqarishlari va xo'jaliklari tomonidan bajariladigan ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarishda iste'mol qilingan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash, xom ashe va materiallarga ishlov berish bo'yicha operatsiyalarni bajarish; iste'mol qilinadigan xom ashyo va materiallar sifatini belgilash uchun sinovlar o'tkazish; belgilangan texnologik meyorlarga rioya qilinishi ustidan nazorat; asosiy ishlab chiqarish vositalarini ta'mirlash va hokazolar kiradi. Chet tashkilotlarining korxona ichida yuk tashish bo'yicha transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, asboblari, detallar, yarim tayyor mahsulotlar boshqa xil yuklarni bazis (markaziy) ombordan tsexlarga olib utish va tayyor mahsulotni saklash omborlariga yetkazib berish) ham ishlab chiqarishga oid xizmatlarga kiradi.

Sanoatni xom ashyo tarmoqlari uchun yogʻoch materiallaridan foydalanish huquqini amortizatsiyalanadigan qiymati yoki foydali qazilmalar (rudalar) qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari;

- korxona transporti bilan ishlab chiqarish uchun bajarilgan xizmatlarda, texnologik maqsadlar, binolarni isitish, barcha turdagi quvvatni ishlab chiqarishda sarflanadigan, chetdan sotib olingan yoqilgʻini hamma turlari;

- korxonani texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish, shuningdek, xoʻjalik zaruriyatlariga sarflanadigan sotib olinadigan barcha turdagi quvvat (korxonada elektr va boshqa turdagi quvvatni hosil qilish, shuningdek, sotib olingan quvvat istemol joyigacha etkazish va quvvatni pasaytirib berish xarajatlari tegishli xarajat moddalariga kiradi);

- moddiy resurslarni kamomatl va buzilishidagi yoʻqotishlar;

- korxonaning transporti va xodimlarining moddiy resurslarni keltirish bilan bogʻliq xarajatlari (yuklash-tushirish ishlari qoʻshilgan holda) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli moddalari (mehnatga xak toʻlash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar)ga kiritiladi;

- moddiy resurslar qiymatiga moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olingan idish va oʻramlar uchun toʻlangan korxona xarajatlari ham qoʻshiladi;

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan chiqariladigan chikindilar hamda idish va oʻramlarning haqiqiy qiymati sotish, ishlatish yoki omborga kirim qilish narxlarida chegiriladi.

Korxonada joriy etilgan texnologiyaga muvofiq boshqa tsexlar boʻlinmalarga bundan keyin ham ana shu yoki boshqa mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun toʻlaqonli xom ashyo yoki materiallar sifatida berilayotgan moddiy resurslar koldiklari tannarxdan chegiriladigan chiqindilarga kiritilmaydi.

Tannarxdan chegiriladigan chiqindilarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi.

- agar chiqindilardan asosiy ishlab chiqarish uchun, yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari, keng iste'mol buyumlarini (madaniy-maishiy va xo'jalik-ro'zg'or mollari) tayyorlash uchun foydalanish yoki chetga sotish mumkin bo'lsa, ehtimoliy foydalanish narxi bo'yicha,

- agar chiqindilar to'laonli resurs sifatida foydalanish uchun chetga sotilsa, birlamchi oddiy resurslarni to'liq narxi bo'yicha hisobga olinadi.

«Moddiy xarajatlar» moddasi bo'yicha aks ettirilgan moddiy resurslar qiymatiga xarid qilish narxlari, qo'shimcha (ustama) haqlar, ta'minot tashkilotlariga to'lanadigan vositachilik haqlari, tovar birjalari, shu jumladan brokerlik xizmatlari haqlari, bojxona bojlari va yig'implari, transport xarajatlari kiritiladi.

Ishlab chiqarish taalloqli mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilinadigan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay haqlari, tarif stavkalari va mansab maoshlari asosida, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan ishlab chiqarish rejasi bo'yicha dastlabki hujjatlarda ko'zda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

- kasb mahorat va murabbiylik uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar;

- ish tartibi va mehnat shartlari bilan bog'liq kompensatsiya tarzidagi to'lovlar, shu jumladan: texnologik jarayon jadvalida ko'zda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarda ishlaganlik uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustama hamda qo'shimcha haqlar; ko'p smenali tartibda ishlaganlik, kasblarni o'rindoshlik bilan bajarganlik va xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirganlik uchun ustama haqlar; og'ir, zararli, o'ta og'ir mehnat sharoitlarida va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ish haqiga ustamalar, shu jumladan ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxatlariga ko'ra ish haqiga ustamalar;

-aloqa, temir yul, suv, avtomobil transporti va tosh yullar xodimlari hamda faoliyatlari doimiy harakatda yoki ko'chma (sayyor) xususiyatga ega bo'lgan xodimlar ish haqiga ishga ketgan vaqtidan korxonaga qaytib kelish vaqtigacha sutkasiga to'lanadigan ustamalar;

-bevosita qurilish, qayta jihozlash va mukammal ta'mirlash ishlarida, shuningdek vaxta usulida ish bajarilganida ishning ko'chma (sayyor) xususiyatlari uchun xodimlarga amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan ustama haqlar;

er osti ishlarida doimiy band xodimlarga ularning kirish joyidan shaxta (kon)dagi ish joyiga borish va qaytishga me'yorlangan vaqti uchun qo'shimcha to'lovlar: mehnatga haqto'lashning hududiy tartibga solinishi orqali belgilab qo'yilgan, shu jumladan tuman koeffitsientlari hamda cho'l, suvsiz va baland tog'lik joylarda ishlaganlik uchun koeffitsientlar bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lovlar va boshqalar.

Ishlab chiqarish xodimlarining ijtimoiy ta'minoti uchun ajratmalar qonunchilikda belgilangan me'yorlar bo'yicha hisoblanadi. Ular davlat pensiya fondi, bandlik fond iva ksaba uyushmalariga o'tkaziladi.

Korxona nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sugurtaga va ijtimoiy sugurtaning boshqa turlariga ajratmalar qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning hisoblangan amortizatsiyasi summolari ham kiradi. Ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya bo'yicha xarajatlar quyidagilardir:

- asosiy ishlab chiqarish vositalarning, shu jumladan lizing bo'yicha xarid qilingan, qonunchilikda belgilangan me'yorlarda, ularning dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib, hisoblangan amortizatsiya ajratmalari (hisoblangan eskirish) summolari, shu jumladan qonun hujjatlariga muvofiq; amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya;

- ishlab chiqarish maqsadidagi nomoddiy aktivlar eskirishi (amortizatsiyasi).

Bu ularning dastlabki qiymatidan va foydali ishlatish muddatidan (lekin korxonaning faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan) kelib chiqib hisoblanadi.

Agar nomoddiy aktivning foydali ishlatish muddatini belgilash mumkin bo'lmasa, korxonaning faoliyat muddatidan oshib ketmagan holda, bu muddat besh yil deb belgilanadi.

Ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, shu jumladan: ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yoqilg', asboblari, moslamalar, boshqa vositalar va mehnat buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishchi holatida tutib turish xarajatlari (texnik ko'rik va xizmat ko'rsatish, o'rta, joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari); sanitariya-gigiena me'yori jarilishini ta'minlash xarajatlari; ta'mirlashni o'tkazish uchun zahira barpo etish xarajatlari.

Zarurat tug'ilganda korxonalar Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ruxsati bilan kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zahirasini barpo etishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar "Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari" elementi tarkibida aks ettiriladi va xarajatlarning taxmin qilinayotgan qiymatidan va asosiy vositalar har bir obyektining kapital ta'mirlanishi davriyligidan kelib chiqib belgilanadi. Zahiraga ajratmalar me'yori har bir hisobot yilining oxirida qaytadan ko'ib chiqiladi va zarurat tug'ilganda yangi moliya yilida ajratmalar miqdorlari ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar kapital ta'mirlashga zahira qilingan mablag'lar summalari mazkur obyektni tamirlashning haqiqatdagi xarajatlardan oshib ketsa, oshgan summa ishlab chiqarish xarajatlardan chegirib tashlanadi. Agar haqiqatdagi xarajatlari rezerv qilinganidan oshib ketsa, oshgan summa "Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlari"ga kiritiladi;

- yongindan saqlanish va qo'riqlashni ta'minlashga doir hamda korxonalarni texnik ishlatish, ular faoliyatini nazorat qilish qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash xarajatlari. Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari, mazkur ishlab chiqarishning qo'riqlanishi maxsus talab

qilinsagina, mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilishi mumkin. Aks hrllda ular davr xarajatlariga kiritiladi;

- ishlab chiqarish faoliyatiga taalluqli asosiy ishlab chiqarish vositalariningjoriy ijarasi bilan bog‘liq xarajatlar;

- tabiatni muhofaza qilish maqsadidagi vositalarni tutib turish va ishlatish bilan bog‘liq joriy xarajatlar, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganligi va chiqindilarni joylashtirganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari;

- ishlab chiqarishning xususiyatlari bilan bog‘liq, va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan, mehnat va xavfsizlik texnikasining bir maromli sharoitlarini ta’minlash xarajatlari;

- bevosita xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida ishtiroki bilan bog‘liq sog‘likni muhofaza qilish xarajatlari;

- ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul taqdim etiladigan kommunal xizmatlar, ovkatlanish, ozik.-ovkat mahsulotlari qiymati, korxona xodimlariga taqdim etilgan bepul uy-joyga to‘lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va hokazolar uchun pul kompensatsiyasi summolari);

- amaldagi qonunchilikka muvofiq. bepul beriladigan, doimiy shaxsiy foylalanishda qoladigan buyumlar (shu jumladan maxsus kiyim-kechak, maxsus ovkatlanish) qiymati (yoki ularni pasaytirilgan narxlarda sotish munosabati bilan imtiyozlar summasi);

- texnik boshqaruv vositalari, aloqa tarmoqdari, ogohlantirish vositalari, ishlab chiqarish jarayoniga tegishli boshqa texnik boshqaruv vositalari, hisoblash markazlarini tutib turish va xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- qonunchilikka muvofiq, ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun tibbiy muassasalarga to‘lanadigan haq;

- ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli ishlab chiqarish xodimlarining xizmat safarlari xarajatlari;

- ishlab chiqarish xodimlari va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sugurtalash xarajatlari;

- yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta'mirlash va kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;
- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra ishsiz turishlari tufayli yo'qotishlar;
- mahsulot (xizmat)ni majburiy sertifikatlash xarajatlari, bunga kapitallashtiriladiganlar kirmaydi;
- sud qarorlariga asosan yoki ularsiz ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq nafakalar. Kasb kasalligi munosabati bilan nafakalar to'lanishi;
- umumiy foydalanishdagi yo'lovchi transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga va uyiga tashish bilan bog'liq xarajatlar.
- obyektlar davlat kapital qo'yilmalari evaziga bunyod etilayotganda qurilish xatarlarini sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar;
- nomoddiy aktiv - gudvill (firma narxi)ning, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan mol-mulkka doir qismi summaenni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar;
- kon qazish tarmoqlarida tayyorgarlik ishlari bo'yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlar tarkibida hisobga olinmasa (ya'ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmagan bo'lsa).

7.3. Operatsion tahlil usullarini qo'llagan holda mahsulot tannarxining optimal qiymatini aniqlash

Odatda xarajatlar o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratiladi. Biroq, xarajatlarning ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lum turlari mavjud. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liq: mahsulot ishlab chiqarish o'sganda o'zgaruvchan xarajatlar summasi ortadi va aksincha.

Ishlab chiqarish hajmi ortganda o'zgaruvchan xarajatlarning o'sishi to'g'ri proportsional (chiziqli) bo'lishi mumkin, ishlab chiqarish hajmi o'sishiga nisbatan ancha tezroq, va bu o'sishga nisbatan uncha tez bo'lmasligi mumkin.

Umumiy summada o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lsa, u xolda birlik mahsulotga nisbatan hisoblanganda ular o'zgarmas bo'lib qoladi.

O'zgarmas xarajatlar yig'indisi korxonaning ishbilarmonlik faoliyat darajasi o'zgarganda o'zgarmay qoladi, biroq ishlab chiqarish hajmlari o'zgarganda birlik mahsulotga hisoblangan bu xarajatlar o'zgaradi. O'zgarmas xarajatlarga ijara haqi, amortizatsiya chegirmalari, mulk solig'i xarajatlari va boshqalar kiradi. Yarim o'zgarmas xarajatlar alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy boshqarish tizimlari ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi, mahsulot realizatsiyasidan olingan daromad, xarajatlar va sof foyda o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga asoslanadi. Bunday tahlil operatsion deb nomlanadi (inglizcha nomining qisqartirilgani – CVP). *Operatsion tahlil* – korxonada tezkor moliyaviy rejalashtirishning asosiy quroli bo'lib, faoliyatning moliyaviy natijalari xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va narxlarga bog'liqligini kuzatish imkonini beradi.

Operatsion tahlilning asosiy elementlari quyidagilar:

- rentabellik chegarasi;
- operatsion richag;
- zaxiraning moliyaviy puxtaligi.

CVP- tahlil, korxona zarar ham foyda ham ko'rmagan sharoitda, tushumni aniqlash imkonini beradi. Tushumning bunday hajmi yuqori nuqta deb ataladi. Uni topish uchun uchta usulni qo'llash mumkin: grafik, hisoblash va marjinal foyda.

Operatsion vositaning kuchi doimiy xarajatlar va ularning ulushiga bog'liq bo'lib, korxonaning moslashuvchanlik darajasi va tadbirkorlik riskining kelib chiqishini belgilaydi.

Korxona kapitallari tarkibida kredit foizlarining o'sishi hisobiga doimiy xarajatlarning ortishi moliyaviy vositalar samarasining o'sishiga olib keladi.

Bir vaqtning o'zida operatsion vosita, bitta aksiyadan keladigan foyda hajmini oshirib, moliyaviy vosita ta'sir kuchining ortishiga ko'maklashgan holda, mahsulot realizatsiyasi hajmining o'sishiga (tushum) nisbatan daromadning yanada tezroq

o'sishini generatsiyalaydi. Shunday qilib, moliyaviy va operatsion richaglar, bir-birini kuchaytirgan holda, o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Operatsion va moliyaviy vositalarning umumiy ta'siri ikkala vosita bir-birini o'zaro ko'paytirgan holda birga harakat qilishidagi samarasida ifodalanadi.

Ikkala vosita ta'sirining umumiy samara darajasi korxonaning umumiy risk darajasidan dalolat beradi va realizatsiyadan olingan daromad 1%ga ortganda bitta aksiyadan keladigan daromad necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi. Bu qudratli vositalarning birga qo'shilishi korxona uchun halokatli bo'lishi mumkin, chunki tadbirkorlik va moliyaviy risklar, noma'qul natijalarni multiplikatlashtirgan holda, o'zaro qo'shiladi.

Korxonaning umumiy xatarini kamaytirish vazifasi uchta variantdan birini tanlashdan iborat:

1) operatsion vositaning kuchsiz ta'siri bilan moliyaviy vosita samarasining yuqori darajasini qo'shish;

2) kuchli operatsion vositani moliyaviy vosita samarasining past darajasi bilan qo'shish;

3) bir me'yordagi moliyaviy va operatsion vositalarni qo'shish.

U yoki bu variantni tanlashda risk minimal bo'lgan holda aksiya kurs narxining mumkin qadar maksimal qiymati umumiy ko'rinishdagi mezon bo'lib xizmat qiladi, bunga risk va daromadlilik o'rtasida kelishuv orqali erishiladi.

Operatsion va moliyaviy vositalar ta'sirining umumiy samara darajasi, korxonaning dividend siyosatini amalga oshirish imkonini ta'minlagan holda, rejalashtirilayotgan realizatsiya tushumiga bog'lik ravishda bitta aksiya keltiradigan daromad qiymatining rejadagi hisoblarini bajarish imkonini beradi.

Xulosa qilib, aytganda chiqimlar va xarajatlarni hisoblash, ularni hisoblash tartiblarini o'rganish masalaning bir tomoni bo'lsa, masalaning ikkinchi tomoni bu xarajatlarni turlarga ajratish, qarorlar qabul qilishda ularning ahamiyatiga qarab, foydalanish hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatida xarajatlar nuqtai nazaridan kam yoki ko'p, ahamiyatli yoki arziyas chiqimlar bo'lishi mumkin emas. Har bir xarajatning o'z o'rnini va xarajat tarkibiga olib borilishiga ko'ra tasniflanishiga ega.

Shuningdek, operatsion tahlil usullarini qo'llagan holda mahsulot tannarxining optimal qiymatini aniqlash va uni amaliyotga tatbiq etish moliyaviy menejmentning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Qisqa xulosalar

Xarajatlarni boshqarish - boshqaruvning dinamik jarayoni bo'lib, korxona faoliyati samaradorligini oshirish, raqobatchilarga nisbatan afzalliklarga ega bulish va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan harakat usullari yig'indisi hisoblanadi.

Ayrim xarajatlarni bevosita va to'g'ridan-to'g'ri aniq mahsulot turiga yoki xarajat obyektiga olib borish mumkin. Bunday xarajatlar bevosita xarajatlar deyiladi. Boshqa xarajatlarni aniq mahsulot turiga olib borib bo'lmaydi, bunday xarajatlar bilvosita xarajatlar deyiladi. Xarajatlar tasnifi amaldagi va eski xarajatlar, mahsulotga ketgan xarajatlar va davriy xarajatlarga ajratiladi.

Nazorat savollari

1. Xarajatlarni boshqarish deganda nima tushuniladi?
2. Mahsulot tannarxini boshqarishga nimalar kiradi?
3. Bevosita va bilvosita xarajatlar deb nimaga aytiladi?
4. Ishlab chiqarish xarajatlariga nimalar kiradi?
5. Umumishlab chiqarish xarajatlariga nimalar kiradi?
6. Chiqimlar tasnifining qanday variantlari mavjud?
7. Qarorlar qabul qilish uchun xarajatlarni tasniflashda qaysi yo'nalishlarga bo'yicha bo'linadi?
8. Qanday xarajatlarni o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: “O‘zbekiston”, 2002.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuni, T.: “O‘zbekiston”, 1995.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, T.: “O‘zbekiston”, 1996.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida ”gi qonuni (Yangi tahrirda). 2016.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuni. (Yangi tahrirda) 2015.

1.6. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida ”gi qonuni. (Yangi tahrirda) 2000.

1.7. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida ”gi qonuni. 1999.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2008 y.

1.9. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-508 “О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с принятием основных направлений налоговой и бюджетной политики на 2019 год”. 24.12.2018 г.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

2.1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

2.2. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmoni.

2.3. “Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 martdagi PQ-2863 Qarori.

2.4. “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4086 Qarori. 26.12.2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

3.1.«Pul mablag‘larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002.

3.2.«Pul-kredit ko‘rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori.04.02.2003.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 29.12.2018 y.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 16.12.2017 y.

4.3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi gazetasi. 16 yanvar 2017 yil.

4.4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b

4.5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

4.6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari me’yoriy-huquqiy hujjatlari.

5.1. "Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan mablag‘larni hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida"gi yo‘riqnoma. 2012 yil 15 martda 2342–son bilan ro‘yxatdan o‘tgan

5.2. “Qarzdorlar va ularning debitorlari bank hisobvaraqlarini qidirishda Bank depozitorlarining Milliy axborot bazasidagi ma’lumotlardan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 2 aprelda 2448-son bilan ro‘yxatga olingan

5.3. “Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida yo‘riqnoma”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2009 yil 19 yanvarda 1885-son bilan ro‘yxatga olingan

5.4. Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida Nizom (O‘zR AV 27.12.2006 y. 1648-son bilan ro‘yxatga olingan)

6. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

6.1. Антонов В.Г. и др. Корпоративное управление. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 288 стр.

6.2.Zaynutdinov Sh.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.

6.3.Xodiev B.Yu., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.

6.4.Xodiev B.Yu., Karlibaeva R.X., Akramova N.I. Korporativ boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. – TDIU, 2010. – 280 bet.

6.5.O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. S.S.G‘ulomov tahriri ostida. - Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006. 440 b.

6.6.Качалина Л.Н. Конкурентоспособный менеджмент. – М.: Изд-во Эксмо, 2009.

6.7.Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993.

6.8.Каганов В.М. Роль антидемпингового регулирования в современной международной торговле: автореф. к.э.н. – М.: ГОУ ВПО «Государственный университет управления, 2008. – 20 с.

6.9.Боровкова В.А. “Рынок ценных бумаг” - М., “Финансы”. 2003, -295 с.

6.10. Семенов К. А.Международные валютные и финансовые отношения. Учебное пособие.- М., ТЕИС, 2003.

6.11. Титова Н.Е., Кожаев Ю.П. “Денги, кредит, банки”. Учебное пособие. - М., 2003, с. 156.

Internet saytlari

<http://bmcenter.ru/standards-msfo>

www.travel-library.com www.thebanker.com

<http://www.cbu.uz>

<http://www.lex.uz>

www.infocom.uz - Infocom.uz elektron jurnali.

<http://learnenglishkids.britishcouncil.org/en/>

<http://learnenglishteens.britishcouncil.org/>

Competition Policy International.

<https://www.competitionpolicyinternational.com>

International Journal of Business Competition and Growth.

<http://www.inderscience.com>

International Journal of Competitiveness. <http://www.inderscience.com>

International Journal of Economics and Financial Research.

<http://www.arpgweb.com>

Journal Globalization, Competitiveness and Governability.

<http://www.scimagojr.com>

Journal of Competitiveness Studies. <http://www.eberly.iup.edu>

Journal of Competitiveness. <http://www.cjournal.cz>

Journal of Engineering Management and Competitiveness.

<http://www.tfzr.uns.ac.rs>

Journal of Financial Economics. <http://www.journals.elsevier.com>

Journal of Financial Research. <http://onlinelibrary.wiley.com>

Journal of Industry, Competition and Trade. <http://www.springer.com>

The Journal of Financial Management, Markets and Institutions.

<http://www.jfmi.univpm.it>

Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.

www.iqtisodiyot.uz

Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz

GLOSSARIY

Bir-birining o‘rnini bosadigan tovarlar — o‘zining belgilangan vazifasi, qo‘llanilishi, sifat va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa parametrlari bo‘yicha taqqoslanishi mumkin bo‘lgan shunday tovarlarki, ularni oluvchi iste’mol qilish chog‘ida bir tovarni boshqasiga haqiqatan ham almashtiradi yoki almashtirishga tayyor bo‘ladi;

Insofsiz raqobat — xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar etkazadigan yoki zarar etkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘sig a putur etkazadigan yoki putur etkazishi mumkin bo‘lgan harakatlari;

Iqtisodiy kontsentratsiya — xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish;

Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish — xo‘jalik yurituvchi subyektlar harakatlarini bunday xo‘jalik yurituvchi subyektlardan birortasi bilan ham bir shaxslar guruhiga kirmaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs bilan kelishib olish;

Kamsituvchi shartlar (sharoitlar) — tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste’mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o‘zgacha tarzda boshqa shaxsga o‘tkazish shartlari (sharoitlari) bo‘lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo‘jalik yurituvchi subyektni o‘zga xo‘jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda teng bo‘lmagan holatga solib qo‘yadi;

Kelishib olingan harakatlar — tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma’lum bo‘lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlari;

Moliya bozori — banklar hamda boshqa kredit, sugʻurta va oʻzga moliya tashkilotlari tomonidan koʻrsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek qimmatli qogʻozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi boʻlib, u Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy boʻlinishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni koʻrsatish imkoniyati mavjud boʻladi;

Notoʻgʻri taqqoslash — raqobatchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan tarqatiladigan, tovar yoki moliya bozorida ayrim xoʻjalik yurituvchi subyektga afzalliklar yaratadigan yoxud xoʻjalik yurituvchi subyektni (raqobatchini) yoki raqobatchi ishlab chiqargan tovarni yomonlovchi yolgʻon, noaniq yoki buzib taqqoslash;

Raqobat — xoʻjalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi boʻlib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozorida tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda taʼsir koʻrsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi;

Raqobatga qarshi harakatlar — raqobat toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi);

Tovar — faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun moʻljallangan mahsuli, shu jumladan ishlar va xizmatlar;

Tovar bozori — tovarning (shu jumladan bir-birining oʻrnini bosadigan tovarning) Oʻzbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi boʻlib, u Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy boʻlinishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud boʻladi;

Xoʻjalik yurituvchi subyekt — tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet

ellik yuridik shaxs, xo‘jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor.

Iqtisodiy nochor korxonalar – muayyan miqdorda kapital yo‘qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo‘lmagan maxsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg‘i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxona.

Iqtisodiy o‘sinh – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o‘shishi.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valyuta ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma’lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘yilgan bo‘sh pul mablag‘lari.

Bank kapitalining yetarlilik darajasi – bu jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo‘lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko‘ra kamida 8% ni tashkil etishi kerak.

Bank tizimining likvidligi – bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Banklar likvidligi – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘shishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o‘z majburiyatlari yuzasidan talablarga to‘la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bankrot – xo‘jalik sudi tomonidan e‘tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kruditorlar talablarini to‘la xajmda qondirishga yoki majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Barqarorlik – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o‘ziga xos muayyanlik holati.

Biznes – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

Bozor kon’yunkturasi – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo‘lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o‘zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Budjet defitsiti – budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmaslik huquqi hisoblanadi.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig‘i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to‘lov (soliq).

Daromad solig‘i stavkalari – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta‘lim va kasb-hunar dasturlarni ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy,

huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Demokratik ong – kishilarning ozodlik, erkinlik, ijtimoiy adolat, fikrlar xilma-xilligi, oshkoralik va mulohazalar erkinligi haqidagi his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, nazariyalarning majmuidir. Demokratik ong ham yangi hodisa, ammo chuqur tarixiy ildizlarga ega. Xalqning ozodlik, erkinlik, adolat, oshkoralik, mulohazalarining xilma-xilligi haqidagi o'ziga xos intilishlari, qarashlari udumlari asosida bunday ongning tarixiy zaminlari bor.

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng etakchi zamonaviy tendentsiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

Dividend – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy

kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Ijtimoiy adolat – jamiyat barqaror va to‘laqonli rivojlanishi uchun o‘ta zarur omildir. U birinchidan, shaxs, jamiyat, davlat aloqadorligida tenglik va o‘zaro hamkorlikni taqozo etadi. Ikkinchidan, mazkur tamoyil shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ne‘matlardan bahramand bo‘lishda teng huquqli bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan mezonlar va kafolatlarning mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy adolatni ta‘minlash xar bir huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Ijtimoiy soha obektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy fikr – aholining muayyan guruhлари, qatlami, tabaqalarining voqelikdagi turli xodisa va harakatlarga nisbatan baholovchi munosabatidir. Bunday baho ma‘qullash, qoralash yoki betaraf pozitsiyada namoyon bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy hamkorlik – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarıning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o‘z o‘rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo‘lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarıning mavjudligi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Inventarizatsiya – korxonalar, firmalar, tashkilotlarda naqd mulk va tovarlarni ro‘yxatdan o‘tkazish; natura holidagi boyliklarıning mavjudligi yoki holatini, mablag‘larni muntazam tekshirib turish, shuningdek, ularning moddiy boyliklarni

hisobga olish qaydnomalariga muvofiqligini aniqlash maqsadlarida davriy qayta hisobga olish.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

Investitsion loyiha dasturi - O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga muvofiqligini asoslovchi va investitsiyalarni (biznes-reja) amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyat dasturi.

Investitsion siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsion soliq krediti – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

Investitsion hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiya kompleksi - investitsiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsiya faoliyati - investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari - buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

Investorlar - xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funktsiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan - kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Innovatsiya jarayoni - yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud - yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari – insonga bekamu-ko'st yashash imkoniyatlarini beruvchi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda o'zining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maqom. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga rioya etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosidir.

Inson omili – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o'z ichiga oladi. Birinchi jihat O'zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash, nafaqa bilan ta'minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e'tiborini o'zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o'z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa'y-harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

Inson huquqlari – kishilarning yashash va faollashib borishi uchun ularga berilgan huquqlardir.

Institutsional siyosat - davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

Internet xizmatlari - internet tarmog'i abonentlariga amaliy bayonnomalar tomonidan taqdim etiluvchi funktsional imkoniyatlar majmui: elektron pochta, fayllarni qabul qilish va uzatish, veb-hujjatlarni o'qish, voqeiy vaqtdagi muloqot

(chat), terminal orqali erkin foydalanish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ishlash va h.k.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo‘llar, aloqa, transport, maorif, sog‘liqni saqlash.

Ipoteka – bankning garov xat, ko‘chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

Ipoteka krediti - joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga barpo etiladigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik va muddatlilik shartlarida beriladi.

Iste’mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste’mol krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo‘llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste’mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Iste’mol tovarlari – inson ehtiyojini qondirishga mo‘ljallangan iste’mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste’mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar.

Ish bilan band bo‘lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan qismi.

Ishlab chiqarish – ma’lum davrda alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarib; zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almashtirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapital qo'yilmalar - quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy

mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablagʻlari kapital qoʻyilmalarning manbalari boʻlishi mumkin. Kapital qoʻyilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta taʼmirlashga yoʻnaltirilishi mumkin.

Kapital taʼmirlash – asosiy vositalarni yirik koʻlamda butkul detallari, qismlarini almashtirish bilan bogʻliq qayta taʼmirlash tushuniladi.

Kapital xarajatlar - asosiy kapitalga kiritiladigan mablagʻlar va zaxiralarning oʻsishi.

Kasanachilik – yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish.

«**Katta yigirmalik**» – 20 ta yirik mamlakatlar guruhi boʻlib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi toʻgʻri keladi.

Kichik biznes subyektlari – korxona koʻlami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablagʻlari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilgʻi-energetika sanoati va boshkalarda) 50 kishigacha, xizmat koʻrsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Konʼyunktura – bu bozorda maʼlum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bogʻliq boʻlgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida maʼlum mahsulotni tayyorlash boʻyicha uzoq muddatli aloqalarni oʻrnatish.

Korxonalarga preferentsiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat koʻrsatuvchi korxonalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor

mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Korxonaning innovatsion salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyatining ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Qo'shimcha qiymat solig'i – bilvosita soliq hisoblanib, korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismini davlat budjetiga majburan olishdir. Ishlab chiqarilgan tovarlarni (ishlar, xizmatlarni), O'zbekiston

respublikasi hududidagi import qilingan tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) hamda O'zbekiston Respublikasi hududida bajarilgan (ko'rsatilagan) ishlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish jarayonidagi qo'shilgan qiymatni bir qismini budjetga ajratuvchilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Modernizatsiya – obyektни takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya–kredit muassasalari majmuidir.

Moliyaviy «ko'piklar» – real qiymatga ega bo'lmagan pul va obligatsiyalar hajmining ko'payishi.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy manbalar – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag'larning kelib chiqish

manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning manbalari, davlat budjeti mablagʻlari, qarzga olingan mablagʻlar, xorijiy investorlarning mablagʻlari va boshqa koʻrinishlarda boʻlishi mumkin.

Mustaqillik – (arabchadan - tobe emaslik, ixtiyori oʻzidalik, qaram emaslik) – erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Mustaqillik barcha jabhalarda munosabatlarni meʼyor-mezonga soladi, har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi. Mustaqillik – oʻzaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib ish koʻrish, keng dunyoqarash va erkin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash, oʻz hayotini oʻzi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni taʼminlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni jalb etish boʻyicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohistini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish toʻgʻrisida»gi qarori asosida tashkil etilgan. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yoʻnalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng koʻlamda ishlab chiqarishdan iborat.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Proteksionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

Pudrat – shartnoma yoki xo‘jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko‘ra belgilangan ishni bajarishi to‘g‘risidagi shartnoma.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o‘lishni ta‘minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta‘minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Rekonstruktsiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma‘naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirish. Qayta tiklashda eski tsexlar o‘rniga yangi tsexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Rentabellik – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko‘rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko‘rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko‘rsatkichini korxona aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Soliq imtiyoz – soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lashdan to‘liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq krediti – budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini ma‘lum muddatga kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – kichik biznes subyektlarini rag‘batlantirish maqsadida qo‘llaniladigan soliqqa tortish tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me‘yori.

Soliq yuki – soliq to‘lovchilarning muayyan davrda budjetga to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisidir. Mamlakat miqyosida muayyan davrdagi barcha to‘langan soliqlar va yig‘imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i ham soliq yukini ifodalaydi.

Soliq yukini engillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o‘xshash bo‘lgan soliq turlarini birlashtirish.

Talab – xaridor, iste‘molchilarni bozorda muayyan tovarlarni, ne‘matlarni sotib olish istagi; bozorga olib chiqilgan va pul imkoniyatlari bilan ta‘minlangan ehtiyojlar.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan barcha xarajatlarning qiymati.

Tarkibiy o‘zgarishlar – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta‘minlash maqsadida uning tarmoq va sohalarini izchil ravishda o‘zgartirib borish. Tarkibiy o‘zgarishlar o‘z ichiga yangi tarmoqlarni barpo etish, ba‘zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo‘lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni oladi.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlari – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish koʻzda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

Telekommunikatsion infratuzilma – kompaniyaning telekommunikatsion infratuzilmasi – bu turli axborotlarni: avtomatlashgan boshqaruv tizimlari maʼlumotlari, elektron xabarlar, internet-grafika, turli fayllar hamda «ovoz» va video koʻrinishidagi axborotlarni uzatish vazifasini hal qiluvchi oʻzaro aloqador tizimchalar majmuasidir.

Telekommunikatsiya – simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanib signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa koʻrinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida maʼlumotlarni masofadan uzatish jarayoni.

Tijorat banklari – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan taʼminlash, shuningdek xususiy mijozlarga turli turdagi bank xizmatlarini koʻrsatishga ixtisoslashgan banklar.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda xizmatlar bilan taʼminlanganlik hamda ularni isteʼmol qilish darajasi.

Toʻgʻridan – toʻgʻri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qoʻyilmalar kiritish. Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

Toʻlov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga toʻlagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan toʻlovlar summolari nisbatini tavsiflaydi. Toʻlov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qoʻshma korxonalarning chet elga pul oʻtkazmalari va boshqalar kiradi.

Uzoq muddatli depozitlar – jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat banklariga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan pul ko'rinishidagi jamg'arma va omonatlar.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning etakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat. Bugungi kunda mazkur fondning jamg'armasi 3,7 milliard dollarni tashkil etadi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

«Fitch Reytings», «Mudis», «Standart end Purs» xalqaro reyting kompaniyasi – faoliyati banklar, moliyaviy institutlar, investitsiya va aksionerlik kompaniyalarining kredit layoqatini o'z vaqtida va aniq baholashga yo'naltirilgan xalqaro reyting agentliklari.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Xalqaro valyuta jamg'armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun

mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, er yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Shaxsni muntazam kamol toptirish – fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning muhim sharti va tarkibiy qismi. Shaxsni rivojlantirish jarayonlari insonning salohiyat va maqsadlarini ro'yobga chiqarish borasida nafaqat davlat, jamiyat ta'siri, balki shaxsning o'z sa'y-harakatlarini faollashtirishni ham taqozo etadi.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Emissiya – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Erkin industrial - iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan,

imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi soliq turi.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Karlibayeva R.X., Temirov A.A.

KORXONALARNI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH

“IQTISODIYOT” – 2019.

*Muharrir
Mirhidoyatova D.*

*Musahhah
Matxo`jayev A.O.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Terishga berildi 8.10.19. Bosishga ruxsat etildi 22.10.2019. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset bosma. Ofset qog‘ozı. Shartli bosma tabog‘ı 9,0. Hisob nashr varag‘ı 8,7. Adadi ____ nusxa.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.